

IJTIMOIIY PSIXOLOGIYA

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV
XO'JALIGI VAZIRLIGI**

SAMARQAND QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI

**PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA O'QITISH METODIKASI
KAFEDRASI**

IJTIMOIIY PSIXOLOGIYA

FANIDAN USLUBIIY QO'LLANMA

MAGISTRATURA TA'LIM YO'NALISHLARI UCHUN

SAMARQAND - 2012

Ushbu uslubiy qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan 23. 08. 2008 yil tasdiqlangan «Ijtimoiy psixologiya» fani namunaviy dasturi asosida Samarqand qishloq xo'jalik inistituti magistratura yo'nalishlari talabalari uchun tayyorlandi/

«Ijtimoiy psixologiya» fanini o'tishda talabalarda ijtimoiy hayotga tayyorlash, jamiyat hayotiga moslashish, ijtimoiylashuv jarayonlariga o'rgatadigan Fan hisoblanadi. Ma'ruza darslarida talabalarda ijtimoiy psixologiya haqidagi tushunchalar shakllantiriladi. Ijtimoiy psixologiya fanining motivlari, stimullari, ijodiy jarayon bosqichlari haqida ma'lumot beriladi. Ijtimoiy faoliyat uchun talab etiladigan ko'nikma va malakalar shakllantiriladi.

TAYYORLAGANLAR : E. NASIMOV- PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA O'QITISH
METODIKASI KAFEDRASI MUDIRI, DOQENT
G. B. AMIROVA- PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA O'QITISH
METODIKASI KAFEDRASI O'QITUVCHISI.

TAQRIZCHILAR: A. SAIDOV – CAMDU DOTSENTI, P.F.N.
J.SULTONOV - CAMQXI DOTSENTI, P.F.N.

MAVZU: Ijtimoiy psixologiya fanining predmeti.

Maqsad: Talabalarga ijtimoiy psixologiyaning tarixi, predmeti va vazifalari, ijtimoiy psixologiyaning boshqa fanlar bilan aloqasi, ijtimoiy psixologiyaning bo'limlari haqida ma'lumot berish.

Reja:

1. Ijtimoiy psixologiyaning tarixi haqida.
2. Ijtimoiy psixologiyaning predmeti va vazifalari.
3. Ijtimoiy psixologiyaning boshqa fanlar bilan aloqasi.
4. Ijtimoiy psixologiyaning bo'limlari.

O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining IX sessiyasida Respublika Prezidenti I.A. Karimov oliy ta'limni isloh qilishda va malakali kadrlarni tayyorlashda ijtimoiy psixologiyaning fan sifatida alohida o'rnini borligiga jamoatchilik diqqatini qaratdi.

Odamlar hamkorlikda mehnat qilish va yashash ehtiyojini sezgan davrdan boshlab insoniyat jamiyati bunyod bo'lib ularda ijtimoiy psixologik tafakkur, ijtimoiy ruh paydo bo'lgan. Bunday ruh qonuniyatlarini o'rganish, uning sirli tomonlarini sharxlashga insoniyatning eng ilg'or vakillari harakat qilganlar. Lekin ijtimoiy ruh qanchalik qadimiy bo'lsa, uning sirlarini o'rganuvchi fan – ijtimoiy psixologiya shunchalik navqironidir.

Uning navqironligi →

o'zining metodi, predmeti va fanlar tizimidagi o'rnini yangiligi, taraqqiyotning yangi davriga shakllanib, rivojlanishiga turtki berganligi bilan bog'liqdir.

Fan sifatida →

Yuzaga kelishi va tan olinishi rasman 1908 – yil hisoblanib, xuddi ana shu yil ingliz psixologi V. Makdugall “Ijtimoiy psixologiyaga kirish”, amerikalik sotsiolog olim E. Ross esa “Ijtimoiy psixologiya” asarlarini chop ettirgan edilar.

Ikkala muallif ham biri psixolog, biri sotsiolog, bo'lishiga qaramay, bu fanning asosiy predmeti ijtimoiy taraqqiyot hamda psixik taraqqiyot qonuniyatlarini uyg'unlikda o'rganishdir, degan umumiy xulosaga kelishgan.

Hozirgi kungacha ijtimoiy psixologiyaning mavzu bahsi va u o'rganadigan sohalar borasida turlicha qarashlar va tortishuvlar mavjud.



Ijtimoiy psixologiyaning mavzu bahsi borasidagi qarashlar.



Nemis olimlari G. Gibsh va M. Forverglar fan predmetiga shunday ta'rif keltiradi: “Odamlar uyushmasi koorparatsiyalar – ijtimoiy psixologik tadqiqotlarning asosidir”, ob'ekti – ijtimoiy o'zaro ta'sir.



Rus sotsiologlari: G. P. Predvechniy va A. Sherkovenlarning “Sotsial psixologiya” kitobida “Ob'ektiv borliqning, unda ro'y beradigan hodisalarning psixik tomonidan o'ziga xos tarzda in'ikos etilishidir.” deb bayon qilganlar. Ular ko'proq sotsiologik yondashish bilan muammolarni yechishga harakat qilganlar.


A.B. Petrovskiy va V.V. Shpalinskiylar “Jamoaning ijtimoiy psixologiyasi” kitobida “Ijtimoiy psixologiya turli uyushgan va uyushmagan guruhlardagi odamlar muloqoti, oʻzaro taʼsir va munosabatlardan kelib chiqadigan psixik hodisalarni oʻrganadi.”degan fikrni bildirganlar. Bu psixologik yondashuv.

1.1- sxema

Rus olimasi Galina Andreevaning taʼkidlashicha ijtimoiy psixologiya sohasida ishlayotgan mutaxassisni kimligi – uning fan predmetiga yondashuvida namayon boʻladi.

Sotsiolog ijtimoiy qonuniyatlari jamiyatdagi anʼanalar va uning qoidalar tilida tushuntirsa, psixolog – shaxs psixologiyasining qonuniyatlarini umumjamiyat qonun qoidalariga tadbiq etadi. G. Andreeva ijtimoiy psixologiyaning mavzu bahsi haqidagi hozirgi zamon qarashlarini umumlashtirib, uch xil yondashish mavjudligini asoslaydi.

1.2-sxema.




Ijtimoiy psixologiyaning alohida fan boʻlib ajralib chiqishiga sabab boʻlgan

Ilmiy manbaalar ikki fan psixologiya va sotsiologiya faning erishgan yutuqlari va har qaysining doirasida maʼlum muammolarning echilishi uchun yana qoʻshimcha alohida fanning boʻlishi lozimligini tan olish tufayli yuzaga keldi. Psixologiya va sotsiologiya ijtimoiy psixologiya fanining “Ota - onalaridir”.

Ijtimoiy psixologiyaning predmeti va vazifalari.

Ijtimoiy psixologiyani predmeti – odamlarning jamiyatda hamkorlikdagi ish faoliyatlari jarayoni davomida ularda hosil boʻladigan tasavvurlar, fikrlar, eʼtiqodlar, gʻoyalar, his – tuygʻular, kechinmalar, turli hulq – atvor shakllarini tushuntirib beruvchi fandır.



1.3-


sxema.

➔ Ijtimoiy psixologiya – ijtimoiy jarayonlar, jamiyatdagi oʻzgarishlarga aloqador psixik hodisalarni oʻrgangani uchun ham bevosita davrga bogʻliqdir.

➔ Fransuz olimi Serj Maskovisi. “Ijtimoiy psixologiyani vazifalarini bevosita jamiyat belgilaydi” deb yozgan edi.

➔ Mustaqil davlatimiz, jamiyatimizda keskin ijtimoiy iqtisodiy oʻzgarishlar roʻy berayotgan vaqtda ijtimoiy psixologik darajada hal qilinishi lozim boʻlgan vazifalar har qachongidan ham muhim boʻlib turibdi.

Ijtimoiy psixologiyani asosiy vazifasi – barkamol avlod tarbiyasini taʼminlovchi barcha maʼnaviy, ruhiy va insoniy munosabatlar mohiyatini tahlil qilish, ularni boshqarishning eng samarali usullarini hayotga tadbiq etishdir. Ijtimoiy tafakkurning, yangicha dunyoqarash va munosabatlarning shakllanishini, insonning oʻziga va oʻzgalarga taʼsir etishning mexanizmlarini oʻrganish eng dolzarb masalalardandir.



1.3- sxema.

Kichik guruhlar va jamoalar psixologiyasi. Bu sohadagi tadqiqot ob'ektlarida odamlarni guruhda va yakka holdagi xulq-atvorlarini o'rganish, kichik guruhlarining psixologik tuzilishi, ularga ro'y beradigan dinamik jarayonlar (uyushqoqliq, o'zaro moslik va hokazolar); guruhlardagi peshqadamlik va boshqarish psixologiyasi; konformizm hodisasi; jamoalarning shakllanish shartlari, turli guruhlararo munosabatlar. Guruhlardagi kishilar o'rtasida o'zaro muloqot, o'zaro bir- biriga ta'sir usullari, odamlarni samarali muloqotga o'rgatish ham guruhlar ijtimoiy psixologiyasining muhim vazifasi hisoblanadi.

Ushbu sohani o'rganish tufayli ajralib chiqqan tadbqiqiy fan sohalariga ishlab chiqarish ijtimoiy psixologiyasi va boshqarish psixologiyasi kiradi.

Shaxsni ijtimoiy psixologik jihatdan o'rganish. Shaxs ijtimoiy psixologik tadqiqotlarning ob'ekti sifatida qaralganda, avvalo uning xulq-atvori, ijtimoiy motivlari, uning yo'nalishlari, xulq-atvor normalari, shaxsning jamiyatda turli ijtimoiy rollari, mavqei, ijtimoiy qo'shilish omillari - ijtimoiylashuvi; shaxsning o'z-o'ziga bahosi, munosabati, hurmati hamda ijtimoiy, tarixiy va madaniy shart-sharoitlarning shaxs ongiga ta'siri, shaxs tiplari o'rganiladi.

Ommaviy ijtimoiy psixologik hodisalar. Ijtimoiy psixologiyaga ommaviy hodisalar deganda turli kishilar guruhiga shaxslararo munosabatlar va o'zaro ta'sir jarayonlari; milliy etnopsixologiya hamda sinflar psixologiyasi muammolari; milliy madaniyat, urf-odatlar, an'analar, udumlar, aqidalarning shaxs shakllanishidagi roli, olomon psixologiyasiga oid psixologik qonuniyatlar; turli guruhlarda odamlarning bir-birini idrok qilishlari va tushunishlari, o'zaro ta'sir masalalari tushuniladi. Hozirgi murakkab ijtimoiy hodisalar sharoitida ommaviy ijtimoiy psixologik qonuniyatlarni bilishning hamda ularni boshqarishning ahamiyati juda kattadir.

Oila-ijtimoiy psixologiyaning o'rganish ob'ekti sifatida.

Bu yerda oilaga xos psixologik jarayonlar oila a'zolarining bir-birlariga munosabatlari, nikohdagi o'zaro moslik masalalari, oilaviy mojarolarning psixologik omillari, oilada bola tarbiyasining ijtimoiy-psixologik metodlari o'rganiladi.

Ijtimoiy tasavvurlar ijtimoiy psixologiyaning o'rganish ob'ektidir.

Ijtimoiy tasavvurlar shaxslararo munosabatlar tizimida shakllanib, ular shaxs xulq-atvorini turli ijtimoiy vaziyatlarni boshqarib turuvchi muhim psixologik mexanizmdir. Ular individual va ijtimoiy ong o'rtasidagi o'ziga xos psixologik ko'prik bo'lib, bizning kundalik hayot tarzimiz, ob'ektiv borliqni tushunish va anglashning muhim vositasidir.

Har bir shaxsdagi ijtimoiy tasavvurlarni bir necha kategoriyalarga bo'lish mumkin:

- turli ijtimoiy guruhlar haqidagi tasavvurlar,
- din va boshqa konfessiyalar haqidagi tasavvurlar;
- fan va ilmiy tushuncha haqidagi tasavvurlar;
- shaxsni bevosita o'rab turgan ijtimoiy muhit - oila, oilaviy rollar, xulq-atvor normalari, etika haqidagi tasavvurlar;
- madaniyat va madaniy qadriyatlar;
- nihoyat, shaxsning o'z "Meni" haqidagi obrazlar tizimi.
- Ijtimoiy psixolog qanday ilmiy tadqiqot olib bormasin, u albatta ijtimoiy tasavvurlarning biror sohasiga murojaat qiladi.

Ijtimoiy tasavvurlarni o'rganish va tarixiga murojaat qilib, shuni ta'kidlash mumkinki, bu konsepsiya Fransiya psixologik maktabiga taalluqlidir. Uning asoschisi Emil Dyurkgeym bo'lib, u o'zining sotsiologik qarashlari tizimida ijtimoiy tasavvurlarni "ijtimoiy fakt" eki obrazlar tarzida talkin etgan. Uning keyingi izdoshlari bo'lgan Franzuz olimlari S. Moskovisi, D. Jadel, Kodol, Arbik, V. Duaz, M-J. Shombar de Lov va boshqa tasavvurlarning ijtimoiy tabiati, ularning hayotdagi o'rni, ahamiyati, tuzilishi va o'zgarishi

masalasida qator ilmiy tadqiqot ishlarni amalga oshirib, ijtimoiy tasavvurlar haqida o`ziga xos nazariyalar yaratdilar. Ularning asosiy tadqiqot usullariga anketa, kontent-analiz, suhbat metodlari kirib, shu oddiy metodlar yordamida fransuzlarning shaxs haqidagi, freydizm haqidagi, din haqidagi tasavvurlaridan tortib, katta - ijtimoiy guruhlar ayollar, erkaklar va bolalar haqidagi tasavvurlarini tadqiq qiladilar. Oxirgi yillarda kognitivizm yunalishi doirasida ushbu konsepsiyani hayotiylik isbotlanmoqda va butun dunyo psixologlari bu nazariyani tan olmoqdalar.

Ajratilgan vazifalardan eng muhimi shuki, hozirgi davrda ijtimoiy psixologiya o`zi bilan bevosita aloqador bo`lgan boshqa psixologiya tarmoqlari bilan hamkorlikda keskin o`zgarishlar davrida har bir inson ongida nima sodir bo`ladi, u bu o`zgarishlarni qanday idrok qilmoqda, uning hayotiy mavqeini qanday qilib maqsadga muvofiq tarzda faollashtirish mumkin, degan savollarga ilmiy asoslangan javob topib berishdir.

Ijtimoiy psixologiyani dolzarb masalalari

ijtimoiy tafakkur, yangicha dunyoqarash va munosabatlarning shakllanishi.

insonning o`ziga va o`zgalarga ta`sir etish mexanizmlarini o`rganish.

ijtimoiy tafakkur, yangicha dunyoqarash va munosabatlarning shakllanishi.


ijtimoiy tafakkur, yangicha dunyoqarash va munosabatlarning shakllanishi.

ijtimoiy tafakkur, yangicha dunyoqarash va munosabatlarning shakllanishi.

1.5-sxema.

3. Ijtimoiy psixologiya bir qator ijtimoiy fanlar bilan uzviy bog'liq.

1.6 -sxema



➡ **Sotsiologiya** ijtimoiy, guruhiy va induvidial qadriyatlar va normalarning tabiati hamda xarakterini o'rganadi. **Ijtimoy psixologiya** ular shakllanishining aniq xususiyatlari hamda u yashaydigan makro va mikro muhitning ta'siri hisobga oladi.

Agar **sotsiologiya** shaxs ijtimoiy faolligining manbalarini tushuntirib bersa, ijtimoy psixologiya esa bu faollikning namoyon bo'lish konuniyatlari va yo'llarini tadqiq qiladi, bu faollik to'liq amalga oshirishining sharoitlarini aniqlashga yordam beradi. **Sotsiologiya** turli xil insoniy guruhlar ichidagi shaxslararo aloqalarning ijtimoiy mohiyatini ochib beradi.

➡ **Ijtimoy psixologiya** esa bu munosabatlar har-biri alohida kishining faoliyatida va ayrim guruhlarda qanday namoyon bo'ladi hamda ularning shaxs sifatleri shakllanishiga ko'rsatadigan ta'siri o'rganadi.

➡ **Pedagogika** qo'lga kiritilgan tajribadan foydalanar ekan, **ijtimoy psixologiya** shaxs va jamoaga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish samaradorligini oshirish, ta'lim tarbiya jarayonlarini takomillashtirish yo'llarini ochib beradi.

➡ **Ijtimoy psixologiya** pedagoglarni jamoalar, ularda shaxslararo munosabatlarni psixologik tahlil qilishning ilmiy usullari bilan qurollantiradi va bu orqali eng muhimi masala yangi insonning shakllantirish vazifasini hal qilishga yordamlashadi. Shunday qilib **ijtimoy psixologiya** kishilarning turli xildagi guruhlar, xususan, oila.

➡ Maktab, o'quv va pedagogik jamoalardagi muloqot va o'zaro ta'sir jarayonida vujudga keladigan o'zaro munosabatlarini o'rganadi. Bunday bilimlar tarbiyani psixologik jihatdan to'g'ri tashkil qilish uchun zarurdir.

Shunnigdek, **psixologiya**ning har-bir tarmog'ida bo'lgani singari ijtimoiy psixologiya ham umumiy psixologiyani o'rganishdan boshlanadi, chunki psixikaning umumiy qonuniyatlarini, asosiy tushunchalarini chuqur bilmasdan turib, ijtimoy psixologiya qilishi lozim bo'lgan muammolarni ko'rib chiqishi mumkin emas.

➡ Ilmiy manbalar ijtimoiy psixologiya ning davlat va huquq nazariyasi, siyosiy iqtisod, etika, falsafa fanlarining rivojlanishi bilan uzviy bog'ligini ko'rsatadi. Aynqsa, fan taraqqiyotiga falsafa fani o'zining sezilarli ulushini qo'shgan. Shuning uchun ham amerikalik olim G. Olport ijtimoiy psixologik goyalarning yaratilishi va rivojlanishi falsafa bilan, uning ko'zga ko'ringan arboblardan hisoblangan Platon nomi bilan bog'lik deb yezgan edi.

Platon o'zining "Davlat" va "Qonunlar" deb atalgan dialoglarida shaxsning jamiyat bilan aloqalari masalasiga to'xtalib, jamiyat individga nisbatan o'zgarimas, uning taraqqiyoti jamiyat rivojlanishi qonunlarga buysunadi, degan fikrni himoya qilga.

4. Ijtimoiy psixologiyaning asosiy bo'limlari.

Ijtimoiy psixologiyaning asosiy bo'limlari qo'yidagilardan iborat

Ijtimoiy guruhlar va ularning
psixologik xususiyatlarini
o'rganish

Shaxs psixologiyasi

Kishilarning birgalikdagi
faoliyatlarida amalga oshiriladigan
o'zaro ta'sir va muloqot jarayonlari
qonuniyatlarini o'rganish.

Turli xil jamoalardagi
shaxslararo munosabatlar

1.7-sxema.

Har bir shaxs hamisha ma'lum ijtimoiy guruhlar doirasida faoliyat ko'rsatadi. Bu uning oilasi, mehnat jamoasi, ko'cha-kuyda norasmiy guruhlardagi davrasi, o'quv jamoasi vaboshqalar.

Shaxsning yakka va turli guruhlar doirasida o'zini tutishi, xulq-atvori, mavqei, unga o'ziga xos guruhiy tasirlar, guruhdagi shaxslararo moslik, liderlik, guruhiy tazyiqqa beriluvchanlik kabi qator hodisalarni o'rganish ijtimoiy psixologiyaning muhim sohalaridan biridir.


Shaxs psixologiyasi, uning ijtimoiy- psixologik qiyofasi masalasi ham bugungi kundagi o'zgarishlar va ma'naviy jihatdan poklanish davrida o'ta muhim sohasidir.

Har bir shaxsning jamiyatda ro'y berayotgan tub islohatlarga munosabati, ularni idrok qilish va anglash darajasi, o'z-o'ziga nisbatan munosabatining tabiati, xulqidagi ijtimoiy motivlar va yo'nalishlar katta ahamiyatga egadir. Jamiyat miqiyosida ro'y beradigan ommaviy hodisalar ham ijtimoiy psixologiya uchun tadbqiqiy ahamiyatga ega. Chunki alohida shaxs tarbiyasida ommaviy hodisalarning, katta guruhlarning ta'sirini inkor etib bo'lmaydi.

Mamlakatimizda ro'y berayotgan tub ijtimoiy – siyosiy islohatlar ijtimoiy taraqqiyot va tafakkuri rivojlanishini tezlashtiruvchi, davr va kishilar ruhiga xamohang tarzda kechishini ta'minlab beruvchi tadbqiqiy ishlar xususida, yoshlarda yangicha dunyoqarashni shakllantirishdir.

Ijtimoiy psixologiyaning alohida sohalar:

Hozirgi kunda ijtimoiy psixologiya har bir sohaga kirib brogan. M: Ijtimoiy psixologiya oilani o'ziga xos ijtimoiy guruh sifatida tekshirib, unda sodir bo'ladigan barcha ruhiy jarayonlarni o'rganadi. Respublikamizda oila va nikoh masalalariga e'tiborning kattaligini hisobga olib, ko'pchilik tadqiqotchilar o'z ilmiy ishlarini ana shu muammolarga bag'ishlaganlar.



1.8-sxema.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Ijtimoiy psixologiyaning o'rganishning ahamiyati.
2. Ijtimoiy psixologiyaning dolzarb masalalari.
3. Ijtimoiy psixologiyaning boshqa fanlar tizimida tutgan o'rni.
4. Ijtimoiy psixologiyaning alohida sohalari.
5. Ijtimoiy psixologiya va pedagogik amaliyot.

ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr busagasida: Xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Toshkent: O'zbekiston 1997, 328 bet.
2. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya asoslari. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti 1994 yil.
3. Agoronyan A.S. Kultura povsednevnoy jizni: Sotsialno prakticheskie aspekti. Toshkent: O'zbekiston 1982, 254-bet.
4. Andreeva G.M. Aktualnie problemi sotsialnoy psixologii. M. Izd MGU. 1998 - 112 bet.
5. Sotsialnoe psixologiya: Uchebnoe posobie dlya stud. ped. institutov. / A.V. Petrovskiy, V.V. Abramenkova, M.E. Zelenova i drugie. Pod redaksiyey A.V. Petrovkogo/. M. pros. 1987 - 224.

MAVZU: IJTIMOIY PSIXOLOGIYANING YUZAGA KELISHI VA RIVOJLANISHI.


Reja:

1. Ijtimoiy psixologiyaning mustaqil fan sifatida rivojlanishining ijtimoiy va ilmiy asoslari .
2. Ijtimoiy psixologiyaning vujudga kelish manbalari .
3. Rossiyada ijtimoiy psixologiyaning shakllanishi.
4. O'zbekistonda ijtimoiy psixologiya sohasida olib borilgan tadqiqotlar.


Ijtimoiy psixologiyaning fan sifatida shakllanishi.

Ijtimoiy psixologiyaning fan sifatida rivojlanish tarixiga nazar tashlar ekanmiz, uning jamiyat tarixiy rivojlanishi bilan bog'liq holda rivojlanganligining, ilmiy jihatdan esa falsafiy qarashlar ta'sirida bo'lib sof ijtimoiy –psixologik nazariyalarning juda oz sonli bo'lganligini guvoni bo'lamiz.

Insoniyat tarixini o'rganar ekanmiz mutafakkirlar, olimlar, allomalar ijtimoiy-psixologik hodisalar bilan juda qiziqqanliklarini kuzatamiz. Lekin ular bu hodisalarni o'z davri ruhida, o'z nazariy va ijtimoiy qarashlari, hattoki, turli oqimlar doirasida tushuntirishga uringanlar. Shuning uchun ham ijtimoiy psixologiyaning fan sifatidagi taraqqiyotini o'rganish uchun ijtimoiy psixologik muammolar yoritilgan asar yoki kashfiyotchining yashagan davri, uning siyosiy qarashlari, jamiyatning taraqqiyot xususiyatlarini o'rganish lozim. Ayniqsa fan taraqqiyotiga falsafa fani o'zining sezilarli hissasini qo'shgan.



2.1-sxema.



➡ Ulardan keyingi - yangi davr faylasuflari – Gobbs, Gelvetsiy, Lokk, Russo, Gegel, Makiavelli, sharq faylasuflaridan Abu Rayhon Beruniy, Al-Farobiyalar ham barcha asarlarida shaxs va jamiyat qarama-qarshiliklarini ilmiy asosda izohlashga uringanlar, lekin hech qaysisi bu muammoni ijtimoiy - psixologik muammo darajasiga ko'tara olmadilar.

XIX asrning o'rtalariga kelib, kapitalistik munosabatlarning keskinlashuvi, turli davlatlar bilan iqtisodiy aloqalarning tobora o'sib borishi, turli xalqlarning bir mamlakatdan ikkinchisiga ko'chishi – migratsiya munosabati bilan bir qator ijtimoiy fanlar rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar paydo bo'ldi.

Ijtimoiy psixologiyaning ilmiy manbalaridan bari bo'lgan sotsiologiya fanining xizmatini ko'rsatmay bo'lmaydi. Sotsiologiyaning asoschilari hisoblangan Ogyust Kont, Gerbert Spenser va boshqalar:


Masalan, fransuz sotsiologi Gabriyel Tard har bir individda ijtimoiy fakt borligini, bu narsa uning miya doirasidagini emas, balki bir qancha miyalar aloqasi tufayli mavjuddir, deb hisoblaydi. Ijtimoiy xulq-atvor modeli, uning fikricha, doimo individlararo munosabatni o'z ichiga olib bunda bir individ boshqa individga doimo taqlid qiladi, shuning uchun ham shaxsni o'rganish boshqa shaxslarni inkor qilmasligini talab qiladi.

➡ Srday qilib sotsiologiyada psixologik yo'nalish paydo bo'ldi. G. Tarddan keyin L. Uord, F. Giddings va boshqalar ijtimoiylik qonunlarini jamoa ruhiy holati bilan uzviy ravishda o'rgana boshladilar. Ularning fikricha, ijtimoiy fakt – bu ijtimoiy aql, tafakkur bo'lib, u “Jamiyat psixologiyasi” yoki sotsiologiyaning bahs mavzuidir.

Yuqorida qayd etilgan ilmiy falsafiy, ijtimoiy manbalar shart-sharoitlar tufayli ijtimoiy – psixologik g'oyalar shakllanib bordi. Bu qarashlar sof psixologiyaga o'xshamagan, sotsiologiya doirasidan chiqib ketadigan alohida fanning – ijtimoiy psixologiyaning paydo bo'lishi uchun zamin rolini o'tadi.

➡ XX asr shu bilan xarakterli ediki, u turli fanlar oldiga aniq topshiriqlar qo'ya boshladi. Shuning uchun psixologiya fani oldida tadqiqotlar asosida psixologik qonuniyatlarni asoslash vazafasi turar edi. Ikkinchidan esa Amerikada ko'pgina psixologlar o'z tadqiqot ob'ektlarini laboratoriyalarda ayrim psixik jarayonlarni o'rganishni kichik guruhlariga ko'chira boshladilar.

Bu davrda psixologiyada uch asosiy oqim:



2.3- rasm.

Bu oqimlar ichida ham ijtimoiy xulq-atvorni kichik guruhlarlar doirasida o'rganish tendensiyasi paydo bo'ldi.

Bunda asosiy diqqat kichik guruhlar va ularda turlicha eksprementlar o'tkazishga qaratilgan edi. Bunday holatning paydo bo'lganligi ijtimoiy psixologiyaning fan sifatida shakllanishida nihoyatda katta rol o'ynadi. Geshtalt psixologiya yo'nalishi negizida maxsus ijtimoiy psixologik yo'nalishlarning – interaksionizm va

kognitivizmning paydo bo'lganligi esa bu fanning eksperimental ekanligini yana bir bor isbot qildi.

Bixeviorizm yo'nalishlari doirasida o'tkazilgan ijtimoiy psixologik tadqiqotlar avvalo amerikalik olimlar K. Xoll va V. Skennerlar nomi bilan bog'lik. Ular va ularning izdoshlari hisoblangan K. Miller, D. Dollard, Dj. Tibo, G. Kelli va boshqa diada - ikki kishi o'rtasidagi munosabatlarning xilma-xil eksperimental ko'rinishlarini tadqiq qilib, ularda matematik o'yin nazariyasi elementlarini qo'lladilar.

Diada sharoitida laboratoriyalarda o'tkazilgan tadqiqotlarda asosan mustahkamlash g'oyasini isbot qilishga urinildi.

Klassik bixeviorizmdan farqli o'laroq ijtimoiy psixologik bixevioristlar hayvonlar o'rniga laboratoriyaga naqd pulga odamlarni taklif eta boshladilar, shuning uchun ham ularning g'oyasida biologizm va mexanizm tarzda ilgarigi hayvonlarda to'plangan dalillar modelini insonlarda qo'llash hollari kuzatildi.

Psixoanaliz doirasida esa ijtimoiy psixologik tadqiqotlar E. Fromm va Dj. Salliven ishlari bilan

Geshtalt psixologiya – nemischa (shakl) degan ma'noni bildiradi. Asoschilari Vertiimer, V. Keler shakl fenomen, idrok va murakkab psixik hodisalarni yaxlit holda o'rganadi.

Bixoviorizm – xulq-atvorni o'rganuvchi oqim.

Psixoanaliz – XX asrda paydo bo'lgan. Predmeti instinktiv mayllar ongning rolini inkor etadi.

bog'liq. Bixevioristlardan farqli o'laroq bu yerda eksperimentlar ikki kishi emas, balki ko'pchilik ishtirokida o'tkazila boshladi. Ularning izdoshlari (V. Bayon, V. Bennis, G. Sheparde, V. Shuts) o'tkazgan tadqiqotlar tufayli hozirgi kunda ham katta qiziqish bilan o'rganilayotgan T-Guruhlar psixologiyasi yaratildi.

Unda guruh sharoitida bir odamning

boshqalarga ta'siri, guruhning ayrim individlar fikrlariga ta'siri kabi masalalar ishlab chiqildi va ijtimoiy psixologik treninglar o'tkazishga asos solindi.

➡ Kognitivizm K. Levin nazariyasi asosida paydo bo'lgan psixologik yo'nalish bo'lib, undagi o'rganish ob'ekti munosabatlar tizimidagi kishilar, ularning bilish jarayonlari, ong tizimiga taalluqli bo'lgan kognitiv holatlar bo'ldi. Kognitivizm doirasida shunday mukammal nazariya yaratildiki, ular hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

➡ Masalan, F. Xaydarning balanslashtirilgan tizimlar nazariyasi, T. Nyukomning kommunikativ aktlar nazariyasi, Fetingerning kognitiv dissonanslar nazariyasi va boshqalar shular jumlasiga kiradi. Ulardagi asosiy goya shundan iboratki, shaxs o'ziga o'xshashga shaxslar bilan muloqotga kirishar ekan, doimo munosabatlarda ruxiy mutanosiblik, tenglik bo'lishiga, shu tufayli ziddiyatlardan chikishiga harakat qiladi. Maqsad-turli ijtimoiy sharoitlarda shaxs xulq-atvorining psixologik sabablarini tushuntirish va ziddiyatlarning olidini olish yo'l-yo'riqlar ishlab chikishdan iborat. Hozirgi davrda ham taniqli ijtimoiy psixologlar Olport, Maslou, K. Rodjers va ularning safdoshlari gumanistik psixologiya doirasida bu ishlarni faol davom ettirmokdalar.

Nihoyat, turtinchi nazariya interaksionizm bo'lib, bu aslida sotsiologik nazariya bo'lib hisoblanadi. Uning asoschisi Gerbart Mid bo'lib, uning qarashlari ta'sirida T. Sarbinning rollar nazariyasi, G. Xaymen va R. Mertonlarning referent guruhlar nazariyasi, F. Goffmanining ijtimoiy dramaturgiya nazariyalari shakllanadi. Ular turli ijtimoiy sharoitlardagi xulq-atvorlarni tushuntirish orqali shaxs ijtimoiy psixologik sifatlarining sabablarini topishga harakat qiladi. Har bir shaxs doimo ijtimoiy o'zaro ta'sir tizimida, mavjud bo'ladiki, unda u tugri harakat qilish uchun o'zgalarni tushunishga harakat qilishi, o'zgalar roilini qabul qilishga tayyor bo'lishi lozim. Lekin o'zgalar rolini tugri qabul qilish uchun unda "umumlashtirilgan o'zga" obrazi bo'lishi lozimki, bu obraz shaxslararo muloqot jarayonida, har bir shaxs uchun ibratli bo'lgan kishilar guruhi bilan muloqotda bo'lish jarayonida shakllanadi. Ya'ni shaxs faolligi tan olinadi, bu esa fan tarixida o'ta progressiv hol edi.

IJTIMOIIY PSIXOLOGIYANING UCH NAZARIY MANBAI

XIX asrning oxiri XX asr boshlarida fanda uch nazariya paydo buldiki, ular hakli ravishda ijtimoiy psixologiyani mustakil ilmiy yunalish sifatida shakllanishiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shdilar. Bu uch nazariyani birlashtirib turgan shu narsa ediki, ularning har biri mustakil tarzda shaxs bilan jamiyat munosabatini ilmiy asoslar bilan tushuntirishga urinadilar.



2.5- sxema.

➡ Xalqlar psixologiyasi ijtimoiy psixologik nazariya sifatida XIX asrning oʻrtalarida Germaniyada shakllandi. Undagi asosiy nazariya fikr shundan iborat ediki, ayrim individlardan yuqori turadigan rux mavjud boʻlib, bu rux oʻzidan ham yuqori turadigan ilmiy yaxlitlikka buysunadi. Bu ilohiy yaxlitlik xalq yoki millatdir. Ayrim individlar ana shu yaxlitliklarning boʻlaklari boʻlib, ular shu ruxga buysunadilar. Yaʼni, shaxs bilan jamiyat oʻrtasidagi qarama-qarshilik muammosi jamiyat foydasiga hal qilinadi.

➡ Xalqlar psixologiyasining tarixiy-mafkuraviy asosi boʻlib Gegel falsafasi va nemis romantizmi xizmat qilgan, deyish mumkin. Chunki Gegeldagi "individdan yuqori turuvchi rux" gʻoyasi xalqlar psixologiyasi jonkuyarlari tomonidan tulaligicha qabul qilindi.

➡ "Xalqlar psixologiyasi" iborasi birinchi marta faylasuf M. Latsarus (1824-1903) hamda tilshunos G. Shteyntal' (1833-1893) asarlarida ishlatildi. Ular birgalikda chop etgan "Xalqlar psixologiyasi toʻgʻrisida kirish soʻzi" kitobida shunday fikrlarni ilgari suradilar:

"Tarixni yurgizuvchi asosiy kuch - bu xalq yoki shu" Yaxlitlikning ruxi boʻlib, bu rux sanʼatda, dinda, tilda, afsonalarda, anʼanalarda oʻz aksini topadi. Individding ongi ushbu Yaxlitlikning mahsuli boʻlib, ularning yigindisi oʻz navbatida xalq ongini tashkil etadi. Xalqlar psixologiyasining vazifasi xalq ruxi mohiyatini oʻrganish, xalq ruhiyati qonunlarini ochish, xalq psixologiyasiga oid boʻlgan oʻziga xos xususiyatlarning paydo boʻlishi va yuqolishini tushuntirib berishdir".

Usha kitobda mualliflar shaxs bilan jamiyat munosabati xususida quyidagi mulohazalarni bayon etadilar:

➡ Odam o'z mohiyati jihatidan ijtimoiy mavjudot bo'lib, u jamiyat hayoti bilan uzviy bog'liq, chunki u o'ziga o'xshashlarga qarab rivojlanadi, boshqalarga taqlid qilib harakat qiladi va ular tadbiqidan ko'chadi. Xalqlar psixologiyasining asoschilari faqat nazariy mulohazalar yuritish bilan cheklanadilar, chunki ularda o'z fikrlarini isbot qilish uchun tadqiqot ishlari etarli emas edi.

"Psixologiyaning otasi" hisoblangan Velgelm Vundt esa xuddi ana shu tadqiqotga asoslangan ma'lumotlar tuplashga o'z diqqatini qaratdi. U o'zining "Inson va hayvon ruxi haqida leksiyalar"i (1863-y) va 1900 yilda bosmadan chiqqan o'n tomli "Xalqlar psixologiyasi" asarlarida asosan o'zi to'plagan empirik ma'lumotlar asosida xalqlar psixologiyasiga bag'ishlagan fikrlari tizimini bayon etdi. 2.6- rasm.

Uning fan oldidagi xizmati shundan iborat ediki, empirik ma'lumotlar tuplash usullari, tuplangan manbalarni sharxlash borasida bebaxo bilimlar tupladi. Uning fikricha, psixologiya fani ikki qismdan iborat:

fiziologik psixologiya

xalqlar psixologiyasi

➡ Fiziologik psixologiya inson ruhiyatini o'rganuvchi eksperimental fan bo'lib, oliy psixik jarayonlar tafakkur va nutqdan tashqari barcha narsalar eksperiment usulda tadqiq etish mumkin.

➡ Eksperiment usulda o'rganib bo'lmaydigan barcha oliy rux holatlarini xalqlar psixologiyasi o'rganadi, chunki undagi o'rganish usullari o'ziga xosdir. U madaniy mahsullar hisoblangan til, afsonalar, odatlar, san'at asarlari, inson tafakkurining murakkab tomonlarini ochib beradi.

➡ To'g'ri, Vundning psixologiya fani oldidagi xizmatlari, uning xalqlar psixologiyasiga oid ma'lumotlari hozirgi kungacha ham o'z qiymatini yo'qotgani yo'q. Lekin, uning yagona kamchiligi shu ediki, uning qarashlari idealistik asosda bo'lgan, yana u individ bilan jamiyat o'rtasidagi murakkab dialektik munosabatini idealistik asosda turib hal qilgan va jamiyatning rolini absolyut tushunib, shaxsning tarixini yaratishdagi, ijtimoiy jarayonlardagi faol o'rnini ko'ra bilmagan.

➡ Uning izdoshlari rossiyalik A. Potebni, nemis olimi T. Geyger va boshqalar ham u yo'l qo'ygan mafkuraviy kamchilikning oldini ola olmadilar, lekin ular bir fikrda yakdil edilarki, xalqlar psixologiyasi individual psixologiyasidan fark qiladi, shuning uchun ham maxsus fan kerakki, u o'ziga xos usullar yordamida shaxs va jamiyat munosabatlari qonunlarini ochib berishi lozim. Xuddi ana shu xulosalar ijtimoiy psixologiyaning fan sifatida shakllanishiga ilmiy asos bo'ldi.

→ O m m a p s i x o l o g i y a s i paydo bo'lishiga tarixiy asos ishchilar sinfining paydo bo'lishi va yevropada ishchilar xarakatining ommaviy tus olishi buldi. Ya'ni, XIX asrning ikkinchi yarmida ishchilar xarakati shunday keng tus oldiki, tartibsiz xarakatlar darajasiga kutarildi. Shuning uchun ham shu xarakatlarning qonunlarini bilish, ularni boshqarish usullarni uylab topish zarur edi.

Ommaviy hodisalarni o'rganish natijasida 1890 yilda Gabriel Tardning "Taqlid qilish qonunlari" deb atalgan birinchi kitobi chiqdi. Tard Fransiyada ruy berayotgan ommaviy hodisalarni shu hodisalarda ishtirok etayotganlarning xulq-atvorlarini taqlid qilish orqali tushuntiradi. Bu harakatlar irratsional (ya'ni aqlning ishtirokisiz) tabiatga ega bo'lib, har bir individ ommaga kushilgan zahoti unga taqlid qilishga tayyorlik instinkti ustun bo'lib qoladi. Italiyalik huquqshunos S. Sigeli va fransuz olimi G. Lebon ham Tard ishlarini ma'qullab uning nazariyasini faktik materiallar bilan boyitdilar.

1895 yilda bosilib chiqqan Sigelining "Omma psixologiyasi" kitoblarida asosiy g'oya shundan iborat ediki, ommaviy harakatlarda shaxsning o'z xulq-atvorlarini ongli va aql bilan boshqarish qobiliyati yuqoladi. Bunday hollarda hissiyotlar ustun keladi, ayniqsa, affekt holatlari shuning uchun ham affekt holatiga ruy berayotgan jinoyatga aybni yumshatuvchi holat sabab bo'lgan, deb qarash odatli bo'ladi. Bu qarashlari tufayli Sigeli Italiyaning qonuniga maxsus modda kiritishga ham erishdi.

→ Sotsiolog Lebon esa asosan o'z diqqatini ommani elitaga - jamiyatdan yuqori turuvchi tanlangan guruhlarga qarshi qo'yishga qaratadi. U ommaning ayrim hollarida, ayniqsa biror hodisa ro'y berganda "qiziqqonlik" xususiyati ustun turishi haqida yozadi. Uning fikricha, bir qancha odamlarning bu yerda to'planishi ommani hosil qiladi va bu odamlar kim bo'lishidan qat'i nazar - olimmi yoki oddiy insonmi, shu zahotiyok qo'zatuvchanlik va ziyraklikni yo'qotadi. Chunki bu holatda ular holatini instinktlar va hissiyotlar boshqaradi.

Lebon shaxsning omma holatidagi belgilariga to'xtalib quyidagilarni ajratadi:

Shaxsiy sifatlarning yuqolishi. Boshqa odamlar ta'sirida individ o'ziga xos sifatlarni yo'qotish, buning o'rniga impulsiv instinktiv harakatlarni amalga oshirishi mumkin.

Hissiyotlarga o'ta beriluvchanlik. Ommada aql, tafakkur, hissiyot, instinktlarga o'z o'rnini bo'shatadi. Shuning uchun ham ommaning ta'sirchanligi o'ta oshib ketadi.

Aqliy sifatlarning yo`qolishi. Ommaning "aqli" uni tashkil etuvchilar aqlidan ancha past bo`ladi. Shuning uchun ham ommaning tazyiqiga uchramaslik uchun har bir kishi aqlan mulohaza yuritishdan bosh tortishi, munozaradan qochishi lozim.

Shaxsiy mas'uliyatning yo`qolishi. Ommaga qo`shilib qolgan shaxs shunchalik hissiyotlarga berilib ketishi mumkinki, u o`z harakatlarini nazorat qilish, o`z ishiga mas'uliyatni esidan chiqaradi. Yakka holda sodir qila olmaydigan ishini, u ommaga ko`shilib qilib qo`yishi mumkin.

2.7- sxema.

➡ Yuqorida sanab o`tilgan ommaning belgilari Ernesto Grassi tomonidan nemis ensiklopediyasiga ham kiritilgan.

Shunday qilib, omma tartibsiz, u mustaqil ravishda tartib o`rnatish qobiliyatiga ega emas. Shuning uchun ham unga doimo "dohiy" kerak, dohiylar - elita tashkaridan kelib omma o`rtasida tartib o`rnatishi mumkin. Bu fikrlarning mafkuraviy ma`nosi tushunarli, chunki omma deganda, ular ishchilar sinfini, dohiylar deganda esa, burjuaziyani nazarda tutishgan. Demak, shaxs va jamiyat ziddiyatlari masalasi omma psixologiyasi tarafdorlari nazariyasi ayrim shaxslar -dohiylar foydasiga hal qilindi. Lekin bu nazariya, nima uchun ommaviy hodisalarda ommaning o`zidan chikib qoladigan liderlar, ommaning ba`zan tashwaridan hech kimni tan olmay qolishi masalalariga umuman javob topa olmadi, chunki ularning ham fikrlarida ko`proq idealizmga moyillik sezilib turardi.

Ijtimoiy xulq-atvor instinktlari nazariyasi XX asrning boshida Angliyada shakllandi. Uning asoschisi ingliz psixologi Uilyam Magdugall bo`lib, u uzining 1908 yilda yezgan "Ijtimoiy psixologiyaga kirish" kitobidagi inson xulq-atvorining motivi yuoki uni harakatga keltiruvchi kuch instinklardir deb yozgan.

➡ Keyinchalik u instinkt tushunchasi bilan birga layoqat, intilish iboralarini ham ishlata boshladi. Uning fikricha, xulq-atvorni taminlovchi narsa tug`ma, psixofiziologik tayyorgarlik holati bo`lib, u nasldan-naslga uzatiladi. Magdugall barcha harakatlarni refleksiv holda tushuntirishga intilib, refleksiv yoyga xos bo`lgan barcha qismlar ya`ni efferent qabul qiluvchi, retseptiv bo`lim, efferent (harakat) va markaziy bo`limdan iborat tizim sifatida tasavvur qiladi. Barcha ijtimoiy harakatlar ham ana shunday refleksiv tabiatga egadir, deb uqtiradi u.

➡ Shunga o`xshash fikrlar E. Ross ("Ijtimoiy psixologiya") va Dj. Bolduin ("Ijtimoiy psixologiya bo`yicha tadqiqotlar") qarashlarida ham rivojlangan. Masalan, Bolduin ikki turli irsiyat haqida - tabiiy va ijtimoiy irsiyat haqida yozib, ijtimoiy irsiyat odamlardagi taqlid qilish qobiliyati bilan bogliq, deb yozadi. Jamiyatda yashayotgan odamlar bir birlariga ta`sirlarini o`tkazishga moyildirlarki bu narsa ular o`rtasidagi munosabatlarini boshqarib turadi.

➡ Shunday qilib, bu yo`nalish tarafdorlarining fikricha, barcha ongli harakatlarning boshi- ongsizlikdir, ya`ni instinklar bo`lib, ular asosan hissiyotlarda namoyon bo`ladi. Hissiyot bilan instinklar bogliqligini Magdugal juftliklarda ko`rsatishga harakat qilgan: masalan, kurash instinkti - kurkuv, gazaab hissi, nasl qoldirish instinkti - rashk, ayollardagi

tobelik hissi, o'zlashtirish instinkti - hususiylikka intilish hissi va hokazo. Ijtimoiy hodisalarning tushuntirishda tug'ma instinktlar rolining yuqori qo'nganligi uchun bu nazariya ilmiy taraqqiyot bosqichida salbiy o'rin tutdi, deb aytishimiz mumkin. Lekin uning ayrim hodisalar sabablarini tushunishtirishga harakat qilishi fan oldiga ulkan vazifalarni qo'ydi. Ijtimoiy psixologiya fan sifatida ana shu muammolarni tadqiq qilishi lozim edi.

Yuqorida aytib o'tilgan nazariya va oqimlar hozirgi kunda ham ijtimoiy psixologiyaning rivojlanishiga o'z hissalarini qo'shib kelmoqdalar. Rus ijtimoiy psixologiyasi va sobiq Ittifoq tizimida bo'lgan jumhuriyatlardagi ijtimoiy psixologik qarashlar rivojlanishida ham chet el, xususan amerikalik olimlarning ulushlari kattadir.

Rossiyada ijtimoiy psixologiyaning shakllanishi.

Sobiq ittifoq jumhuriyatlarida, birinchi navbatda Russiyada ijtimoiy psixologiya 20-yillardan boshlab rivojlana boshladi. Bu borada rus ijtimoiy psixologiyasining asoschisi deb haqli ravishda V. M. Bexterevni ko'rsatish mumkin. U o'zining refleksologiya nazariyasi doirasidan shaxs xulq-atvorining motivlari tushunishga o'rganganlardan biridir. Uning fikricha, barcha ongli va ongsiz jarayonlar tashqi xulq-atvorda, harakatlarda ifodalanadi, shuning uchun ham tashqi harakatlarni, qiliqlarni, nutqni, tovushni o'rganish, orqali shaxsning o'zini bu harakatlarning sabablarini o'rganish, mumkin. Bexterevning xatosi shu ediki, u o'z qarashlarida sotsiologiyani biologiya bilan, psixologiyani esa fiziologiya bilan aralashtirib yubordi, shu orqali shaxs va jamiyat taraqqiyotining uni versal qonunlarini topmoqchi bo'ldi.

Bexterevdan keyingi olimlar, Yu. Vasilevning "biologik sotsiologiyasi" ham, M.A. Reysnerning "ommaviy psixologiya" ham, L.N. Voytolovskiyning "jamo'ya psixologiyasi" ham reflekslar qonuni mexanik tarzda ijtimoiy psixologik jarayonlarini tushuntirishga kuchirish bo'ldi, desak xato bo'lmaydi.

20-30 yillarda bolalar va o'smirlar ijtimoiy psixologik taraqqiyotini o'rganishga qaratilgan ikki yo'nalish paydo bo'ldiki, ular ham qator kamchiliklardan xoli bo'la olmaydilar. Masalan, biologik yoki biogenetik nazariya tarafdorlari shaxsning shakllanishida irsiy va biologik nasliy omillar yetakchi rol o'ynaydi, deb hisoblashsa (E. Arkin, I. Aryamov, va boshqalar), sotsiologik yoki sotsiogenetik nazariyotchilar bu borada ijtimoiy muhit rolini nihoyatda ortik ekanligini himoya qilib chiqdilar. (S. Molojaviy, A. Zalkind va boshqalar).

30-yillarda A.S. Makarenko, A. Zolujniy, L.S. Vigotskiy, N.K. Krupskaya va boshqa qator olimlar o'z nazariy qarashlarini marksizm bilan bevosita bog'lab, jamo'ya va shaxs nazariyasini yaratdilar. Ular shaxsning shakllanishida ijtimoiy muhitning, jamoaning rolini, ta'lim tarbiyaning ahamiyatini isbotlashga urindilar. Lekin, 40-60 yillar ijtimoiy psixologiya taraqqiyotida nisbatan sokinlik davri bo'ldi. Chunki psixologiya sohasida olib borilgan tadqiqotlar ichida ijtimoiy psixologik tadqiqotlar yo'k hisob edi. Bu fan Rossiyada va boshqa Sobiq ittifoqdosh jumhuriyatlarda 70-yillardan keyin keskin rivojlana boshladi. Bunda Moskvalik va Leningradlik (hozirgi Sankt-Peturburg) olimlar maktabi katta rol o'ynadi. Agar Moskva shaxrida asosan ijtimoiy psixologiya bo'yicha fundamental nazariy tadqiqotlar ko'plab o'tkazilib, unda hozirgi zamon ijtimoiy psixologik tadqiqotlarning empirik qonunlari asoslari ishlab chiqilgan bo'lsa, Sankt-Peturburgda ko'proq tadbqiqiy ilmiy tadqiqot ishlar olib borildiki, ular birgalikda minglab yosh ijtimoiy psixologlar avlodini tarbiyalab yetishtirdilar. Ular esa hayotimizga ilg'or fikrlar va dadil tadqiqotlar bilan kirib kelib, hozirgi kun fanini dunyo miqyosida misli ko'rilmagan darajaga ko'tardilar. Lekin, yuqorida aytib o'tilganidek, mamlakatimizda ijtimoiy psixologiyaning rivojlanishida chet el, ayniqsa AQ SH psixologiyasining ta'siri ancha sezilarlidir.

4.O'zbekistonda ijtimoiy psixologiya sohasida olib borilgan tadqiqotlar.

Ijtimoiy psixologiya jamiyatimizda shaxslararo munosabatlarning tabiati va qonuniyatlarini o'rganuvchi fan sifatida o'zining nazariy tamoyillarini amaliyotga tatbiq etmog'i va shu orqali yangicha mazmundagi demokratik munosabatlarning jamiyatning har bir jamoasida, oilasida va fuqarosida qaror topishiga, yoshlarda yangicha fikrlashni va dunyoqarashni shakllantirish jarayoniga ko'maklashishi zarur.

Ijtimoiy psixologiyaning fan sifatida yurtimizda rivojlanish tarixiga e'tibor beradigan bo'lsak, shuni ta'kidlash lozimki, u oxirgi o'n yilliklar mobaynida shakllanmoqda, xolos. Lekin tarixdan, umuman psixologiyaning O'zbekiston xududida shakllanishini tahlil qilinsa, uning diniy-falsafiy oqimlar va qarashlar tizimida o'ziga xos tarzda shakllanib kelganini ko'rish mumkin. Masalan, eramizning, II-III asrlarida rivoj topgan mexanizm (asoschisi Mani) yoki mazdakizm (asoschisi Mazdak) va boshqalar o'z diniy qarashlari tizimida ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy adolat va shaxsning o'ziga xosligi kabi goyalarni keng tashviqot qilganlar.


Lekin tarix bizga shundan darak beradiki, yaxlit, tizimli ijtimoiy psixologik qarashlar tizimi umuman bo'lmagan. Ijtimoiy psixologik tadqiqotlarning o'tmishdagi va hozirgi kundagi holati M. Otajonovning qator ilmiy maqola va risolalarida bayon etilgan. Uning oxirgi yillarda o'tkazilgan ilmiy tadqiqoti natijalariga ko'ra, ijtimoiy psixologiya fan sifatida muhimlik shajarasida ikkinchi o'rinni egallaydi, ijtimoiy psixologiya va ana shu fanning muammolari eng istiqbolli va yechilishi zarur, dolzarbidir. Shuni alohida ta'kidlash lozimki,

O'zbekistonda o'tkazilayotgan ijtimoiy psixologik tadqiqotlar asosan oilada va oilaviy munosabatlarga bag'ishlangan. Birinchi ijtimoiy psixologik tadqiqot ham 70-yillarning oxirida 80- yillarning boshida I.Ekubov tomonidan o'tkazilgan bo'lib, u oilaviy munosabatlarning barqarorligi va er-xotin ijtimoiy rolarning muvofiqligini ta'minlovchi sotsial-psixologik omillarni o'rganadi.

➡ Tadqiqot natijasida shu narsa aniqlandiki, oila a'zolarining rollar borasidagi muvofiq o'zaro munosabatlari oilaviy hamjihatlikning muhim shartidir. Oilaviy majorolar esa, asosan hozirgi zamon o'zbek ayolining ijtimoiy mehnat bilan bandligi hamda oilaviy munosabatlarda eskilik sarqitlarining saqlanib qolganligidadir.

➡ G'.B. Shoumarov va Ye. A. Morshinalarning (1986) tadqiqotlarida esa oilada bolalarning tarbiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy psixologik omillar o'rganildi, chunonchi, unda o'ziga xos milliy va an'anaviy o'zaro munosabat xususiyatlarining o'zni belgilanadi.

➡ Oilaviy munosabatlar psixologiyasi xususida o'tkazilgan muhim tadqiqotlardan biri N. Soginovning o'zbek oilasiga xos bo'lgan nikoh va oila munosabatlari - nikohdan qonikish, nikoh motivlari, oila qurishning o'zbeklarga xos bo'lgan yosh xususiyatlari, yosh o'zbek oilalaridagi psixologik mojarolar va ajralishlarning sabablarini tizimli tarzda o'rganigan ilmiy ishidir. Bu tadqiqotda ilgari hech o'rganilmagan ilmiy ma'lumotlar to'plandiki, ularga ko'ra:



2.8-rasm.

➡ N. Soginovning to'plagan ma'lumotlari yosh oilalar, mojaroli oilalar va yoshlar tarbiyasi bilan mashg'ul bo'lganlar uchun muhim ilmiy yo'l-yo'riqdir.

➡ Bundan tashqari, oxirgi yillarda katta guruhlar psixologiyasiga oid qator tadqiqotlar o'tkazildi va o'tkazilmoqda. Masalan, E. Usmonovning o'zbek ayollarining suisidal (ya'ni o'z joniga qasd quyish) xulq-atvorining ijtimoiy-psixologik sabablarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqoti (1993), Fargona Davlat universiteti psixologiya kafedrasida amalga oshirilayotgan qator ilmiy tadqiqot ishlari, Ye. Nu'monovanning "O'zbek oilalaridagi reproduktiv ustanovkalarining xususiyatlari" ga bag'ishlangan, M. Zokirovning erkak va ayollardagi rollar haqidagi tasavvurlarning o'ziga xosligini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqoti, M. Toshpo'latovning o'zbek yoshlaridagi ijtimoiy xulq-atvorning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi o'ziga xos qirralarini o'rganishga qaratilgan ishlari va boshqalar shular jumlasidandir. Bu tadqiqotlar natijasida yaqin kelajakda yangi etnopsixologik konsepsiya shakllanadi va bu Respublikamizdagi ilmiy ishlarning rivojiga o'z hissasini qo'shadi.

Lekin O'zbekistonda ijtimoiy psixologlar oldida juda muhim tadqiqot mavzulari mavjudki, ularda hozirgi mustakillik sharoitida shaxs va turli ijtimoiy guruhlar psixologiyasida ruy berayotgan o'zgarishlar, turli yosh, demografik, etnik, professional guruhlariga mansub bo'lgan kishilarning ijtimoiy tasavvurlari, ular asosida ijtimoiy xulq-atvorni ilmiy boshqarish asoslari ishlab chiqilmog'i lozim. Ya'ni, ishlab chiqarish ijtimoiy psixologiyasi, boshqarish psixologiyasi, guruhlar psixologiyasi hamda ommaviy psixik jarayonlarning ta'siri masalalari o'zbek psixologlaridan o'z yechimini kutmoqdaki, ularda ilg'or fan yutuqlaridan foydalanilgan holda hududning milliy o'ziga xos qirralari ishlab chiqilishi kerak.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Ijtimoiy psixologiya fan sifatida tarkib topishning ijtimoiy, ilmiy va g'oyaviy asoslari.

2. Ijtimoiy psixologiyaning vujudga kelishi.
3. Turli ijtimoiy – psixologik nazariyalarning paydo bo`lishi.
4. Rus psixologiyasida olib borilgan ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar.
5. Hozirgi kunda ijtimoiy psixologiya oldida turgan asosiy masalalar.
6. Ijtimoiy psixologiya rivojlanishining hozirgi davridagi ahvoli.

ADABIYOTLAR


1. Karimov I. A. O`zbekiston XXI asr busagasida: xavfsizlikka taxdid, barkarorlik shartlari va taraqqiet kafolatlari. Toshkent: O`zbekiston 1997 yil.
2. Karimov I. A. Barkamol avlod - O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent, 1997 yil.
3. Agaronyan A. S. Kultura povsednevnoy jizni: Sotsialno-prakticheskie aspekti. Tashkent: O`zbekistan, 1982
4. Andreeva G. M. Aktualnie problemi sotsialnoy psixologii. M: Izd-vo MGU 1998

MAVZU:Ijtimoiy psixologiyaning metodlari

Reja:

- 1.Ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarni o`tkazish sharoitlari va texnikasi.**
- 2. Ijtimoiy psixologik tadqiqot o`tkazish bosqichlari.**
- 3. Ijtimoiy psixologik tadqiqotlarning asosiy metodlari:**
 - A) Kuzatish va uning turlari;**
 - B) Hujjatlarni tahlil qilish metodi;**
 - V) So`rov metodlari va ularning turlari;**
 - G) Ijtimoiy psixologik eksperiment va uning mohiyati;**
 - D) Ijtimoiy psixologik tadqiqotlarda test metodi;**
 - E) Proyektiv metodlar.**
- 4. Ijtimoiy psixologik axborotni statistik qayta ishlash metodlari.**

Har bir alohida bo`lgani singari ijtimoiy psixologiyaning o`z metodlari va ularni qo`llash vositalari mavjud. To`g`ri, ularning aksariyati psixologiya va sotsiologiya falarida qo`llaniladigan usullarga yaqin, lekin fanning predmetidagi o`ziga xoslikni hisobga olgan holda ularni ishlatish yo`llari va m`lumotlarni ilmiy jihatdan tahlil qilishda farqlar mavjud. Har qanday fanning yutug`i ma`lum darajada uning metodik apparati rivoji bilan belgilanadi. Fanning metodik apparati yangi ma`lumotlarni qo`lga kiritish va uning asosida nazariy xulosalar chiqarish imkonini beradi. Shuning uchun ijtimoiy psixologiya metodlarini ishlab chiqish doimo tadqiqotchilarning diqqat markazida bo`lib kelgan. Ijtimoiy psixologiya aniq metodlarni ishlab chiqish shu fan tomonidan ilgari suriladigan nazariy holatlar va metodologik tamoyillarga asoslanadi. Tadqiqotchi tomonidan tanlab olingan yoki loyihalashtirilgan metod u yoki bu nazariyani aks ettirib, tadqiqot ob`ektini tanlashni, qo`lga kiritilgai natijalarni tahlil qilish usullarini belgilaydi. Ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarda konkret metodlarni qo`llash avvalom bor shu tadqiqot maqsadlaridan va o`rganilayotgan ob`ektning xususiyatlaridan kelib chiqadi. Bunda ijtimoiy psixologiya metodlarinint kim tomonidan qo`llanilishi ham juda muhim hisoblanadi.



3.1- rasm.


Ijtimoiy psixologik tadqiqotdan olingan axborotning ishonchliligi qayta tekshirish o'tkazilganda ham bir xil ma'lumotlar to'planishi, turli tadqiqotchilar tomonidan bir xil natijalarni qo'lga kiritish.

➡ Asoslilik yoki validlik avvalombor tadqiqotchi qo'llaydigan vositaning xususiyatlari va bu vositaning aynan tadqiqotchini qiziqtirayotgan, o'rganilayotgan ob'ektning aynan zarur xususiyatlariiii aniqlash imkoniga egaligi bilan belgilanadi.

➡ Ijtimoiy-psixologik axborotning aniqligi tadqiqotchi tomonidan qo'llanilayotgan metodikalarning uni qiziqtirayotgan xususiyatlarni o'rganishga mosligi bilan belgilanadi.

Har qanday ijtimoiy-psixologik tadqiqot ob'ektini o'rganish dasturini tuzishdan boshlanadi.

3.2-rasm.



➡ Tadqiqot taxmini- tadqiqotchi tomonidan ilgari suriladigan ilmiy faraz. Bu taxmin o'tkaziladigan tadqiqot natijasida isbot qilinadi.

➡ Tadqiqot metodi- bu tadqiqotchini qiziqtirgan axborotni qo'lga kiritish yuli, vositasi.

➡ Tadqiqot metodikasi- bu turli jarayonlar va ularning xususiyatlari to'g'risidagi zarur axborotni qo'lga kiritish uchun ishlatiladigan aniq usul va vositalar majmuidir.

➡ Ijtimoiy psixologik- tadqiqot dasturi pilotaj tekshiruv o'tkazilgandan keyin aniqlashtirib olinadi.

Pilotaj tadqiqot bosh yo'nalishni, asosiy tadqiqot metodlari va uni tashqil qilish tamoyillarini belgilab olishni ta'minlaydi. U tadqiqot o'tkazish vaqti joyi, vaziyatini tekshirib ko'rish imkonini beradi. Pilotaj eksperiment davomida tadqiqotchi tomonidan tadqiqot o'tkaziladigan tekshiriluvchilar soni va xususiyatlari aniqlanadi. Tanlab olingan tekshiriluvchilar -bu barcha individlar ichidan tadqiqot uchun tanlab olingan indnvidlar. Ular qandaydir xususiyatlar bilan birlashtirilgan. Hajmiga qarab, katta va kichik tekshiriluvchilar soni farqlanadi. P- 30 bo'lsa, kichik hajmli tanlab olingan tekshiruvchilar bo'lsa, kattasining soni belgilanmagan. Demak, tekshiriluvchilar (general) bosh majmui chiziq bu o'rganilishi lozim bo'lgan; tanlab olingan tekshiriluvchilar esa real o'rganiladigan individlar. Tanlangan tekshiriluvchilar bosh majmuini adekvat aks etilishi, ya'ni reprezentativ.

Ijtimoiy-psixologik tadqiqotni o'tkazish quyidagi bosqichlardan iborat:

Ilgari surilgan taxminni asoslash uchun ma'lumotlarni to'plash

To'plangan materialni tahlil qilish.

Qo'lga kiritilgan materialning ishonchliligini aniqlash

Tahlil natijalarini mazmunan tavsiflash

Xulosa va amaliy tavsiyalar

3.3-rasm.

➡ Tadqiqotga tayyorlanish va taxminini ilgari surish jarayonida bog'liq va bog'liq bo'lmagan o'zgaruvchilarni farqlash zarur. Ular o'rtasidagi munosabatlarni tadqiqotning maqsadi hisoblanadi. Bog'li bo'lmagan o'zgaruvchi bu maxsus tarzda tashkil qilingan psixologo-pedagogik vaziyat.

➡ Bo'lishi mumkin bo'lgan o'zgarishlar ya'ni tadqiqotchi ko'rinish va qayd qilishni mo'ljallayotgan o'zgarishlar bog'liq bo'lgan o'zgarishlardir.

➡ O'zgaruvchilar o'rtasidagi aloqalarning tasodifiy ekanligi yoki qonuniyligi matematik usullar yordamida tekshiriladi.

Ijtimoiy psixologiyada qo'llaniladigan metodlar ikkita katta guruhga ajratiladi.

Ma'lumot to'plash metodlari

Ma'lumotlarni qayta ishlash metodlari

3.4-rasm.


➡ **Ma'lumotlarni qayta ishlash metodlari** (natijalarni nazariy va mantiqiy qayta ishlash usullari, matematik statistika metodlarini qo'llash).

3.1.jadval.

Ijtimoiy psixologiyaning asosiy metodlari

Asosiy metodlar	Asosiy metodlarning variantlari
Kuzatish metodi	Tashqi (ob'ektiv kuzatish) Ichki (sub'ektiv, o'z-o'zini kuzatish) Erkin kuzatuv Standartlashtirilgan Guruh ichida kuzatish Guruh tashqarisida kuzatish
So`roq metodi	Og'zaki so'roq Yozma so'roq Erkin so'roq (suhbat) Standartlashtirilgan so'roq
Testlar metodi	Test – so'rov Test - topshiriq Proyektiv test Sotsiometrik test
Ekspriment	Tabiiy eksperiment Laboratoriya eksperimenti
Modellashtirish	Matematik modellashtirish Mantiqiy modellashtirish Texnik modellashtirish Kibernetik modellashtirish
Hujjatlarni o`rgabish metodi	Ijtimoiy o'rganish Psixologik o'rganish Motivatsion o'rganish Klassifikatsion o'rganish
Kontnent- analiz metodi	Matnni analiz qilish Abzatslarni analiz qilish Iboralar, tushunchalarni analiz qilish

Ijtimoiy psixologiyada quyidagi metodlar mavjud:



Umumiy psixologiyada bo'lgani kabi ijtimoiy psixologiyada ham kuzatish metodi qo'llaniladi, lekin kuzatuv ob'ekti konkret shaxsdagi psixik faoliyat emas, balki shaxsning ijtimoiy munosabatlar tizimida bevosita kuzatish mumkin bo'lgan ijtimoiy xulqidir. Ya'ni, kuzatuvchi aniq oldindan belgilangan reja asosida o'zi o'rganayotgan guruhning faoliyatini, verbal va noverbal xatti-harakatlarni ma'lum vaqt birligida muttasil kuzatib, olingan ma'lumotlarni qayd etib boradi. Bunda zamonaviy audio va videotexnikadan foydalanish, u yoki bu harakatlarni qayta-qayta qurish orqali kerakli xulosalarni chiqarish mumkin. Ijtimoiy psixologiyada qo'llaniladigan kuzatish metodining asosan 3 shakli mavjud:

Qo'shib kuzatish

Tashqi kuzatish


«muhim vaziyatlarni qayd etish»

3.5-rasm.


A. Qushilib kuzatish - bunda tadqiqotchi kuzatuvchilar faoliyatiga bevosita aralashib, ular bilan kerak bo'lsa, yashaydi va ishlaydi. Bu usuldagi eng muhim xususiyat uning tabiyligi bo'lib, kuzatish ob'ektlari o'zlarining kuzatilayotganliklarini sezmaydilar va kuzatuvchini guruhning a'zosi sifatida qabul qiladilar. Ushbu shartning buzilishi eksperimentning samarasiz bulishiga olib kelishi mumkin.

B. Tashqi kuzatish-kuzatuvchilar faoliyatiga aralashmagan holda ular tashqi xulq atvorini qayd qilishdir. Bu usul muayyan vaqt va sabr-toqat talab qilishi bilan boshqa metodalrdan farq qiladi, ba'zida qisqa muddat ichida tadqiqotchi o'zini qiziqtirayotgan predmet xususida hech narsa qayd qila olmasligi yoki tasodifan qo'lga kiritilgan ma'lumot asosida xulosa chiqarishga majbur bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham bu usul boshqa usullarga qo'shimcha vosita sifatida ishlatiladi.

V. «Muhim vaziyatlarni qayd etish» usulida kuzatishning mohiyati shundaki alohida shaxs yoki guruh kutilmagan tasodifiy vaziyatga solinadi va ularning vaziyatga munosabati, o'zini tutishi, ziddiyatli va qiyin holatlardan chiqish yo'llari kuzatiladi. M: guruhni ataylab oldindan tuzilgan loyiha yordamida munozarali vaziyatga solish va unga har bir guruh a'zosini o'zini qanday tutishi va bayon etgan fikrlarini zikr etish bunga misol bo'lishi mumkin.



So'rov metodlari. Bular suhbat, intervyu, anketa metodlaridir. Ushbu metodlar ijtimoiy psixologiyada keng qo'llaniladigan metodlar qatoriga kiradi.




➡ So'rov metodlari ijtimoiy psixologik tadqiqotlarda keng qo'llaniladi, ayniqsa, anketa so'rovi va intervyu shular jumlasiga kiradi. Bu metodlarni qo'llashda qator metodologik qiyinchiliklar vujudga keladi:

➡ 1) - doim shaxslararo munosabatlar, o'zaro ta'sir shakllari mavjud.


➡ 2)- tadqiqotchini sub'ektiv munosabatlarini ham inkor qilib bo'lmaydi.

Tadqiqot mobaynida shaxslararo idrok qilish va sub'ektiv bir-birini tushunishiga qaratilgan barcha qonuniyatlar ishlaydi. Shunga qaramay juda ko'p ijtimoiy psixologik ma'lumotlarni to'plashda so'rov metodlari eng qulay usullar sifatida ishlatib kelimoqda.



➔ **I n t e r y u** o`tkazish uchun odam maxsus ravishda tayyorgarlik ko`rishi kerak, chunki u tadqiqotchidan qator muhim shaxs sifatlarining bo`lishini talab qiladi. Shuning uchun ham ijtimoiy psixologiyada «rolli o`yinlar» metodi yordamida psixolog yoki sotsiolog maxsus tayyorgarlik kursidan o`tadi.

Suhbat yoki intervyuni muvaffaqiyatli o`tkazishning muhim sharti - bu do'stona munosabatlarning o`rnatilishidir. Tadqiqot davomida so`ralayotgan shaxs tadqiqotchi qiyofasida uni tushunishga intilayotgan, uning bildirayotgan fikrlarini tanqid qilmaydigan, o`z fikrini majburan singdirishga harakat qilmaydigan suhbatdoshni ko`rish muhimdir.




➡ **A n k e t a** metodi hamma tanish bo'lgan usullardan biri lekin ko'pincha anketa o'tkazgan odamning uning tuzilishi qanchalik qiyinligi yoki olingan ma'lumotlarni qayta ishlash ularni to'g'ri sharxlash qanchalik qiyin ekanligini tasavvur qilmaydi.

Anketaga kiritilgan savolar ma'lumotiga ko'ra anketa ochiq va yopiq turlarga bo'linadi.

➡ Ochiq anketa respondentdan o'z fikrini erkin bayon etishni talab qiladi.

➡ Yopiq shakldagi anketa savollarining esa javoblari oldindan berilgan bo'lib tekshiriluvchi o'ziga ma'qul bo'lgan, o'zining qarashlari fikrlari bilan mos kelgan javobni belgilab beradi. Ochiq favollarning kamchiligi-respondentlarning har doim ham qo'yilgan vazifaga yetarli darajada mas'uliyat bilan qaramasliklari hamda berilgan javoblarni statik jihatdan ishlov berishdagi qiyinchiliklar bo'lsa, yopiq anketada respondentga tekshiriluvchi (tomonidan o'z fikricha ergashishga o'xshash holatning mavjudligi yoki har doim ham hamma savolning barcha javob variantlarini topib bermaslikdadir.

➡ **I j t i m o i y p s i x o l o g i k t e s t l a r .** Testlar psixologiyaning maxsus usulidir. Ular qisqa sinov usuli bo'lib, u yoki bu ijtimoiy psixologik hodsa qisqa muddat ichida bir texnik vosita sifatida uning yordamida tekshiriladi. Testlar asrimizning boshida kashf qilingan bo'lib, ular 20-30 yillarga hayotga, amaliyotga shunchalik shiddat bilan kirib keladiki, natijada maxsus soha-psixometrika kirib keldiki, natijada maxsus soxa-psixometrika yuzaga keldi.



Shaxs xususiyatlarini tekshiruvchi testlar.

Muloqot sistemasidagi o'rnini aniqlash.

Aqliy sifatlarini tekshiruvchi testlar.

Testlarni qo'llashni qulaylik tomoni shundaki bir test yordamida ma'lum ob'ektning u yoki bu xususiyatini bir necha marta takror-takror sinab ko'rish mumkin. Lekin ularni umumiy deb bo'lmaydi., chunki u yoki bu test muayyan turdagi ob'ektda sinalgan bo'lsa,


uni shunga o'xshash ob'ektlardagina qo'lash mumkin. Xolos, qolaversa undan olingan ma'lumotlar nisbiy xususiyat kasb etadi.

➔ **Ijtimoiy psixologik eksperiment** –bu ijtimoiy hodisalarni o'rganish maqsadida tekshiruvchi bilan tekshiriluvchi o'rtasidagi maqsadga yo'naltirilgan muloqotdir. Bunday muloqotning yuzaga kelishi uchun eksperimentator, ya'ni tekshiruvchi maxsus sharoit yaratadi va ana shu sharoitda aniq reja asosida faktlar to'playdi. Umumiy psixologiyada bo'lgani singari, Ijtimoiy psixologiyada ham quyidagi turlari mavjud:

Ijtimoiy-psixologik eksperiment bunda tadqiqotni maxsus sharoit yaratadi va yana shu sharoitda aniq reja asosida ma'lumotlar to'playdi. Umumiy psixologiyada ham uning tabiiy va laboratoriya turlari farqlanadi.

Laboratoriya eksperimenta odatda maxsus sharoitlarda alohida xonalarda, zarur asbob uskunalar yordamida o'tkaziladi.

Ijtimoiy psixologik tadqiqotlarni eksperimentni o'tkazish eksperimentatordan uni o'tkazish texnikasiga yuqori darajada ega bo'lish, uni to'g'ri rejalashtira olishni umumiy taxmini tuza olishni
 reprezentativ tekshiruvchilarni tanlay bilishni talab qiladi.




3.6-rasm

➔ **Proyektiv metodlar.** Ular test usullarining bir ko'rinishi hisoblanib ularda tekshiriluvchiga aniq tizimga yoki ko'rinishga ega bo'lmagan noaniq narsalar tavsiya etiladi va ularni sharxlash topshirigi beriladi. Binobarin tekshiriluvchiga turlicha talqin qilish mumkin bo'lgan rasmlar, tugallanmagan hikoyalar, biror aniq ko'rinishi mavjud emas

buyumlar, yog`ochlar berilishi yoki ularga qarab tekshiriluvchi o`zining hissiy kechinmalar qizikishlari, dunyoqarashi nuqtai nazaridan baholashi kutiladi.

Lekin hozirgi davrda hayot fanidan tatbiqiy xususiyatga ega bo`lishini talab qilayotganligi tufayli bu qatorga bir turkum metodlarini kiritish lozimki, ular ijtimoiy psixologiyadagi faol tayyorgarlik metodlari deb ataladi. Ularga ijtimoiy psixologik treningning barcha shakllari kiritiladi. Ular o`z mohiyatiga ko`ra, shaxs va guruhning ma`lum sifatlarini shakllantiruvchi eksperimentni eslatadi. Lekin ularning faol metodlari toifasiga kiritilishiga asosiy sabab- bu usullar yordamida qisqa fursatda bevosita muloqot sharoitida kutilayotgan samaraga erishilishidir. Ya`ni tahlil qilib chiqilgan metodlardn farqli o`laroq, faol ijtimoiy psixologik metodlar shaxsda yoki guruhda shakllangan xususiyatlarni qayd qilish emas, balki tarkib toptirish lozim xislatlarni amaliyotchi psixolog yoki ijtimoiy xodimning faol aralashuvi orqali hosil qilishga qaratilgandir.




Proektiv usullarga mashhur "Rorshaxning siyoh dog`lari" testini kiritish mumkin (1921 y). Bu dog`lar ikki tomonlama simmetrik shaklda berilgan 10 xil dog`lardan iborat bo`lib, har bir dog` har xil bo`yoqli fonda ko`rsatiladi. Tekshiriluvchidan har bir "dog"ning nimani eslatayotganligini aytish so`raladi. Uning og`zidan chiqqan so`zlar, assotsiyalarga qarab (ularni kontent-analiz qilib), shaxs xususiyatlari haqida xulosa qilinadi.

Yana bir proektiv usul - bu S. Rozensveygning rasmlari assotsiatsiyalar usulidir. Bunda hayotga tez-tez uchrab turadigan ziddiyatli vaziyatlarni aks ettirgan rasmlar tekshiriluvchiga tavsiya qilinadi. Bu rasmlarda bir tomonda turgan personajlar nimalarnidir gapirayotgan holda

gavdalantiriladi, unga qarshi tomondagi shaxs esa hali javob qaytarib ulgurmagan, tekshiruvchi tekshiriluvchidan tez, qisqa muddat ichida bo'sh kataklarda berilishi mumkin bo'lgan javobni yozishni so'raydi. Berilgan javoblarga qarab shaxsning yunalishi, uning ziddiyatlarga munosabati, agressiya-jaholat hissining xususiyatlari, bu hisning kimlarga qaratilganligi va shunga o'xshash muhim faktlar to'planadi.

"Tugatilmagan hikoyalar" ham guruhdagi va yakka shaxslarning qarashlari, ulardagi psixologik yo'nalishlarni o'rganishda ancha qo'l keladigan usuldir. Ularda shaxsning o'ziga, atrofdagilarga, jamoaga munosabatlari aniqlanadi. "Mening hayotiy intilishlarim...", "Mening kayfiyatimning buzilishiga sabab, odatda..." va shunga o'xshash iboralarning davomi yezilib, tugatilishi taklif etiladi.

Hujjatlarni o'rganish metodi sotsiologiya fanidan kirib kelgan. Bu metodning qator afzalliklari bor. Ulardan muhimlari shundan iboratki, u faoliyatning mahsulini tekshirishga imkon beradi hamda o'plangan ma'lumotlarning ishonchliligi, matematik qayta ishlash imkoniyatining borligi bilan ajralib turadi.




Hujjat-nutq matnlari, yozma, maqolalar, xatlar, siyosiy, badiiy adabiyotlar.

rasimy hxujjatlar, gazetalar, jurnallar,

Amerikalik sotsiolog Lausel va Berelsonlar

Hujjat deganda og'zaki (so'zlangan nutq matnlari, suhbatlarning yozib olgan qismlari, bevosita muloqot) yoki yozma (rasmiy hujjatlar, gazetalar, jurnallardagi maqolalar, xatlar siyosiy yoki badiiy adabiyot materiallari) holda tavsiya etilgan ma'lumotlar nazarda tutiladi. Ana shu materiallarni ma'naviy jihatdan ham sifat, ham miqdoriy analiz qilinish usuli ijtimoiy psixologiyada kontent - analiz deb ataladi. Kontent-analizning ilmiy mohiyati shuki, uning yordamida biror matnda ma'lum fikr, goya yoki tushunchalarning necha marta

qaytarilishi qayd etiladi, ya'ni ma'lum mazmun miqdor ko'rinishiga keltiriladi. Bu metodning asoschilari amerikalik sotsiologlar X. Lassuell va B. Berelsonlar bo'lib, ular bu usulni birinchi marta ikkinchi jahon urushi yillarida bir siyosiy gazetaning mazmunini, g'oyaviy yo'nalishini aniqlash maqsadida qo'llagan edilar. Ular "Haqiqiy amerikalik" nomli gazetaning kundalik chikishlarini kontent-analiz qilib, ularni fashistik yo'nalishdagi gazeta ekanligini isbot qilishgan va uning chikishini ta'kiklashga erishgan edilar.



Kontent-analizni ko'llashda tadqiqotchi oldida turgan asosiy muammo bu tekshiruv birliklari-kategoriyalarini aniqlashdir. Chunki, bunday birliklar tadqiqotning maqsadi va tadqiqotchining etiqodi va dunyoqarashiga ko'ra har xil bo'lishi mumkin. Masalan, o'sha kontent-analizning asoschilari Lassuell va Berelsonlar bunday birlik-ramziy birlik yoki simvollar bo'lishi mumkin, deb hisoblashgan bo'lsalar, boshqa amerikalik tadqiqotchi L. Lovental bunday birlik yaxlit mavzu bo'lishi kerak, deb hisoblaydi. Rus sotsiologlari va tadqiqotchilari esa ijtimoiy g'oya yoki ahamiyatli mavzu bo'lishi kerak, degan fikr tarafdorlari.

Aslida, manaviy birliklar kontent-analizda ilmiy taxmin va tadqiqotchining metodologik asoslari bilan belgilanishi kerak. Shuning uchun ham ko'pgina tadqiqotlarni umumlashtirib, analiz uchun birliklar quyidagilar bo'lishi mumkin deb hisoblaymiz:

- a) Alohida iboralar yoki so'zlarda bildirilgan tushunchalar (masalan, demokratiya, faollik, tashabbus, hamkorlik va hokazo);
- b) Yaxlit abzatslar, matnlar, maqolalar va shunga o'xshashlarda ko'tarilgan mavzular (masalan, millatlararo munosabatlar mavzusi, insonlardagi milliy qadriyatlar mavzusi va hokazo);
- v) Tarixiy allomalar, siyosatshunoslar, tanikli shaxslarning nomlari;
- g) Ijtimoiy hodisa, rasmiy hujjat, biror aniq fakt, asar (masalan, oilaviy mojarolar, O'zbekiston Konstitutsiyasi muhokamasi, yangi yozilgan asarga o'quvchilarning munosabati va shunga o'xshash).

Tanlab olingan analiz birliklari boshqa turdosh yoki o'ngacha birlikka nisbatan hisoblanishi mumkin (masalan, u yoki bu faktga qancha "Tarafdoru, qancha odam qarshi" manosida), yoki bu kategoriya tekshirilaetgan massivda necha marta qayd etilgani absolyut ravishda hisoblab chiqiladi. Masalan, hozirgi zamon ayolining mehnatga munosabatini aniqlash uchun "Saodat" jurnalining ma'lum davrdagi barcha sonlardagi ishlayotgan ayollar fikri "ijobiy" yoki "salbiy" moddalar jihatidan analiz qilish yo'li bilan aniqlanadi. Bazan ko'tarilgan mavzu yoki o'rganilayotgan faktning ijtimoiy ahamiyatini aniqlash maqsadida matnning jismoniy maydoni: qatorlar soni, abzatslar soni, unga ajratilgan varaqlar, radio bo'lsa, unga ajratilgan vaqt, televideniya esa necha marta qaytarilayotganligi, efir vaqti va hokazolar hisobga olinadi.

Yaxshi o'tkazilgan kontent-analiz aslida ijtimoiy psixologik tadqiqotlarda juda katta ahamiyatga ega. Lekin olingan malumotlarning ishonchliligini shu borada ilgari ishlagan shaxslar-ekspertlar bahosi, ayni shu faktni tekshirish uchun boshqa metodlarni ham qo'llash va malumotlarni solishtirish va ayni ob'ekt va ayni vaziyatda qayta analiz qilish yo'llari bilan erishildi. To'plagan miqdoriy malumotlar yaxshigina matematik qayta ishlodan o'tkazilmog'i lozim. Kontent-analiz tadqiqotchidan kattagina o'quvni talab qiladi, chunki bir tomondan, u yoki bu matnni tushunish mahorati bo'lishi kerak, ikkinchi tomondan, tadqiqod so'ngida qo'lga kirilgan miqdoriy birliklarni yana qayta sifat formasiga keltirish lozim, ya'ni tushuntirib berish kerak.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar.

Ijtimoiy psixologik axborotning ishonchliligi va validligi nima?

Ijtimoiy psixologik tadqiqot natijalariga ta'sir etuvchi omillar.

Tayyorgarlik bosqichida amalga oshiriladigan vazifalar.

Tadqiqot metodi, metodikasi haqida tushuncha.

Pilotaj tekshiruv nima?

Reprezentativ tekshiriluvchilar.

Ijtimoiy psixologik tadqiqot o'tkazish bosqichlari.

Tayanch tushunchalar

Kontent tahlil - so'zlangan nutq matnlari, suhbatlarning yozib olingan qismlari.

Ijtimoiy psixologik testlar - ijtimoiy psixologik hodisa qisqa muddat ichida bir texnik vosita sifatida uning yordamida tekshiriladi.

«Trening»– inglizcha "o'rgatish, mashq" ma'nosini anglatadi. Bu turli ijtimoiy faoliyat sohalarida shaxsni tayyorlashdan iborat bo'lib, bunda shaxslar va guruhning muloqot darajasini maqsadga muvofik tarzda oshirish jarayonini aks ettirishdir.

«Breynstorming»– munozaralar yuritishning bir shakli.

Adabiyotlar:

1. Andireyeva G.M. Aktualno'e problemo' sotsialnoy psixologii. M. 1998.
2. Andreyeva G.M. Sotsialnaya psixologiya M, 1980.
3. Karimova V.M., Akramova F. Psixologiya T 2000.
4. Karimova V.M Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot.T1999
5. Mayers D. Sotsialnaya psixologiya, Sankt-Peterburg, 1997.
6. Metodi sotsialnoy psixologii. ye.E.Kuzmin tarx, L1997
- 7.Sokolova ye.T. Proyektivno'e metodo' issledovaniya lichnosti. M,1980
- 8.Sotsialnaya psixologiya. A.V.Petrovskiy tarx. M,1987

MAVZU: Ijtimoiy psixologiyada guruhlar va jamoalar.

Reja:

- 1.Guruhlar va ularning turlari.**
- 2.Jamoa haqida tushuncha.**
- 3.Guruhlar va jamoada shaxslararo munosabatlar. .**
- 4.Lider va uning turlari. Liderlik qilish uslublari.**
- 5.Guruh jamoalarda ma'naviy psixologik iqlim. Unga ta'sir etuvchi omillar.**
- 6.Guruhlardagi shaxslararo munosabatlarni o'rganish metodlari.**

Har bir shaxs o'z faoliyatini turli guruhlar sharoitida yoki turli guruhlar ta'sirida amalga oshiradi. Chunki jamiyatdan chetda qolgan yoki insonlar guruhiga umuman qo'shilmaydigan individning o'zi yo'q. Kishi jamiyatda yashar ekan, u doimo turli insonlar bilan muloqotda, o'zaro ta'sirda bo'ladi, bu muloqot jarayonlari esa doimo kishilar guruhida ro'y beradi. Shuning uchun ham guruhlar muammosi, uni o'rganish va guruhlarni shakllanishiga oid ilmiy xulosalar chikarish insoniy psixologiyaning asosiy mavzularidan va muammolaridan biridir.

Shaxs ijtimoiy mavjudot. U o'zining hayoti davomida boshqa kishilar bilan bevosita muloqotda bo'ladi va bu orqali o'zining ijtimoiy mohiyatini amalga oshiradi. Bunday muloqot turli xil guruhlarda ruy beradi.

Shaxsning guruh normalariga bo'lgan munosabatiga ko'ra referent guruhlar farqlanadi

Guruhlar bir necha asos bo'yicha tasniflanishi mumkin

**Группы бир неча асос бўйича
таснифланиши мумкин**

**Tuzilish tamoyili va usuli
bo'yicha**

**O'zaro munosabatlarning
yaqinligi va chuqurligiga
qarab**

kichik


katta

shartli

real


rasmiy

norasmiy



Guruhning a'zolarga ta'siri **Konformizm** - moslashish

Negativizm – guruh fikriga qarshi turish



→ Har bir shaxs o'z faoliyatini turli guruhlar sharoitida yoki turli guruhlar ta'sirida amalga oshiriladi. Chunki, jamiyatdan chetda qolgan yoki insonlar guruhiga umuman qo'shilmaydigan individning o'zi yo'q, kishi jamiyatda yashar ekan, u doimo turli insonlar bilan muloqotda, o'zaro ta'sirda bo'ladi, bu muloqot jarayonlari esa doimo kishilar guruhida

ro'y beradi. Shuning uchun ham guruhlar muammosi, uni o'rganish va guruhlarining shakllanishiga oid ilmiy xulosalar chiqarish ijtimoiy psixologiyaning asosiy mavzularidan va muammolaridan biridir.

➡ Psixologik ma'noda guruh - bu umumiy belgilar, umumiy faoliyat, muloqot hamda umumiy maqsad asosida birlashgan kishilar uyushmasidir. Demak, olimlar guruhi tashkil topishi uchun albatta qandaydir umumiy maqsad yoki tilaklar, umumiy belgilar bo'lishi shart. Masalan, talabalar guruhi uchun umumiy narsalar ko'p (o'quv faoliyati, bilim olish, yoshlarga xos birliklar (o'spirin yoshlar), ma'lum o'quv yurtida ta'lim olish istagi va hokazo. Ko'chada biror tasodif ro'y berganligi uchun to'plangan kishilar uchun ham umumiy bo'lgan narsa bor - bu qiziquvchanlik bo'lib o'tgan hodisaga guvohlik, unga umumiy munosabatdir.

➡ Guruhni alohida shaxslar tashkil etadi, lekin har bir guruh psixologiyasi uni tashkil etuvchi alohida shaxslar psixologiyasidan farq qiladi va o'ziga xos qonuniyatlarga bo'ysunadi. Ayni shu qonuniyatlarni bilish esa turli tipli guruhlarini boshqarish va ana shu guruhlarini tashkil etuvchilarni tarbiyalashning asosiy mezonidir.

➡ Guruhlarning turlari ko'p, hozir biz katta guruhlar psixologiyasiga to'xtalib o'tamiz:

➡ **Katta guruhlar.** Bu umumiy fazo va makonda mavjud bo'lgan ko'p sonli kishilar uyushmasidir. Bunday katta guruhlariga korxonaning mehnat jamoasini, maktab pedagogik jamoasini misol qilish mumkin. Biroq bu jamoadagi kishilar, masalan, ko'pchilik o'qituvchilar bir-birlari bilan bevosita o'zaro aloqalarda bo'lmasligi ham mumkin, lekin shu bilan bir vaqtda ularning a'zosi hisoblanadi hamda maktab ichki hayotining barcha qoidalariga amal qiladi.

➡ **K a t t a g u r u h l a r** kishilarning shunday birlashmalariki, undagi odamlar soni avvalo ko'pchilikni tashkil etib, ma'lum sinfiy, ilmiy, irqiy, profesional belgilar ularning shu guruhga mansubligini ta'minlaydi. Katta guruhlarini tashkil etuvchilar ko'p sonli bo'lganligi va ular xulq-atvorini belgilovchi mexanizmlarning o'ziga xosligi tufayli bo'lsa kerak, ijtimoiy psixologiyada olimlar ko'pincha kichik guruhlarda ish olib borishini afzal ko'radilar. Lekin katta kishilar uyushmasining psixologiyasini bilish juda katta tarbiyaviy va siyosiy-mafkuraviy ahamiyatiga ega. Bu sohadagi tadqiqotlarning kamligi bir tomondan, aytib o'tilganidek, ko'pchilikni qamrab olishda qiyinchiliklar bo'lsa, ikkinchi tomondan, katta guruhlar psixologiyasini o'rganishga qaratilgan metodik ishlar zahirasi kamligidir. Masalan, ishchilar yoki ziyolilar sinfi psixologiyasi o'rganilishi kerak, deylik. Avvalo o'sha ishchilarning soni ko'p, qolaversa, ishchilarning o'zi turli ishlab chiqarish sharoitlarida ishlayotgan, turli iqlim sharoitlarida yashayotgan turli millatga mansub kishilardir. Ularning barchasini qamrab oladigan yagona ishonchli metodikani topish masalasi tadqiqotchi oldiga juda jiddiy muammolarni qo'yadi. Shuning uchun ham har bir katta guruhga taalluqli bo'lgan asosiy yetakchi sifatni topish va shu asosda uning psixologiyasini o'rganish hozircha ijtimoiy psixologiyadagi asosiy metodologik yo'llanma bo'lib kelmoqda. Qolaversa katta guruhlar jamiyatning tarixiy taraqqiyoti mobaynida shakllangan guruhlar bo'lgani uchun ham har qanday guruhni o'rganishdan oldin, hoh bu sinflar bo'lsin, hoh millatlar yoki xalqlar psixologiyasi bo'lsin, uning hayot tarzi, unga xos bo'lgan odatlar, udumlar, an'analar o'rganiladi. Ijtimoiy psixologik ma'noda, hayot tarzini o'rganish deganda, u yoki bu guruhga taalluqli bo'lgan kishilar o'rtasida amalga oshiriladigan muloqot tiplari, o'zaro munosabatlarda ustun bo'lgan psixologik omillar, qiziqishlar, qadriyatlar, ehtiyojlar va boshqalar nazarda tutiladi. Ana shularning umumiyliigi tufayli har bir shaxsda, ya'ni u yoki bu katta guruhga mansub bo'lgan shaxsda t i p i k xislatlar shakllanadi. Masalan, 90 yillarning yoshlariga xos bo'lgan tipik sifatlar ana shu yoshlar o'rtasida keng tarkalgan urf- odatlar, modda, so'zlashish xususiyatlari, qadriyatlar,


qiziqishlar va xokazolar tufayli shakllanadi. Shuning uchun ham 20 yoshli kishining psixologiyasini tulik ravishda o'rganish uchun undagi bilish jarayonlarining o'ziga xosligi, shaxsi, xarakteri va individual psixologik xususi yatlardan tashqari, yana unga o'xshash yoshlarda ustun bo'lgan psixologik xislatlarining qanchalik namoyon bo'lishini, u mansub bo'lgan va asosan vaqtini o'tkazadigan guruhlar psixologiyasini, milliy sifatlarini ham nazarda tutish va ularni o'rganish zarur. Bu degani, har bir shaxs ongida uning yakka, alohida orttirgan shaxsiy tajribasiga aloqador psixologik tizimlardan tashqari, uning qaysi millat, elat sinfiga mansubligi singdirilgan psixologik tizimlar ham mavjuddir va uni ilmiy tadqiqotchi inkor etmasligi kerak.

Etnik guruhlar

Ijtimoiy psixologiyada katta guruhlar ichida etnik guruhlar psixologiyasi, ya'ni etnopsixologiya bo'yicha ko'proq tadqiqotlar o'tkazildi. Ayniqsa, hozirgi davrda har bir jumhuriyatlar alohida, mustaqil davlat mavqeini olgan, lekin boshqa tomondan qaraganda, hamdustlik mamlakatlari ittifoqi sharoitida millatlar o'rtasida muttasil aloqalar mavjudligidan kelib chiqib, milliy psixologiya masalalari kun tartibida avvalgidan ham muhim masala sifatida qo'yilmoqda. Katta guruhlar ichida milliy guruhlariga ko'proq e'tibor berishni lozim, bunday etiborning yana bir boisi - O'zbekistonda bu sohada ayrim tadqiqotlarning o'tkazilganligi, lekin ular ko'p hollarda milliy psixologiya darajasiga olib chiqilmaganligidadir.

Kichik guruh - nisbatan barqaror, tarkibi jihatidan a'zosi unchalik ko'p bo'lmagan, umumiy maqsad bilan bog'langan kishilarning birlashmasi.

Bunda kichik guruh a'zolari o'rtasida bevosita aloqalar o'rnatiladi va amalga oshiriladi. Bu guruhda, umumiy maqsad mavjud bo'lib, uning a'zolari bu maqsadga erishish yo'lida o'zlarining barcha kuchlarini safarbar etadilar. Kichik guruhga kiruvchi kishilar bir-birlarini shaxsan biladilar va guruh oldida turgan vazifalarni hal qilish uchun bir-birlari bilan muloqotda bo'ladilar.



Fassilitatsiya- individ faoliyat mahsuliga boshya individ bevosita ta'siri bo'lib: sensor kuchayishlar, ish-harakat va fikrlashning tezligida namayon bo'ladi.

Ingibitsiya- boshya ta'sir individlar reaksiyalardagi tormozlanishi, faoliyatning susayishi.

Kichik guruh 2 kishidan 40 kishigacha

Disbalans- nomutanosiblik

➡ Oila, ishlab chiqarish brigadasi, samolyot yoki kosmik kema ekipaji, o'quvchilar sinfi kichik guruh sifatida qarashi mumkin. Ba'zi kichik guruh ichida birlamchi guruhlar mavjud bo'lishi mumkin. Bunday guruh unchalik katta bo'lmay, uning a'zolari 2-7 kishini tashkil etadi. Uning a'zolari kichik guruhning a'zolari bo'lish bilan birga, mustaqil uyushma bo'lishi mumkin.


➡ Shartli guruh - faqatgina nom jihatdan mavjud bo'lgan kishilarning uyushmasidir. Shartli guruhga kiruvchi kishilar bir-birlari bilan hech vaqt uchrashmasliklari ham mumkin, lekin shu bilan birga guruhga ajratish bo'yicha umumiy, ijtimoiy va psixologik xususiyatlarga ega bo'ladi. Masalan, o'smirlar mamlakatimizning qaysi shahar va qishlog'ida yashashidan, hech qachon bir yerga to'planmasliklaridan qat'iy nazar shartli guruhga birlashtirilishi mumkin.

➡ Real guruh - haqiqatdan mavjud bo'lgan kishilarning uyushmasidir. Bu guruhdagi kishilar real aloqa va munosabatlar maqsad va vazifalar bilan o'zaro bog'langan bo'ladilar. Real guruh qisqa vaqt davomida yoki uzoq muddat davomida mavjud bo'lishi, son jihatdan ko'p yoki kam bo'lishi ham mumkin.



➡ Rasmiy guruh - rasmiy hujjatlar asosida to'plangan guruh (ustav, shtat), ishlab chikarishdagi ta'minot bo'limi, oliy o'quv yurtidagi talabalar ish yuzasidan rasmiy guruhlardir. Bunday guruh a'zolari o'rtasida ish yuzasidan bo'ladigan aloqalar o'rnatiladi. bu aloqalar ham hujjatda ko'zda tutilgan bo'ladi. Ular bo'ysunish yoki teng huquqlikni, topshiriq bajarishdagi javobgarlikning ko'p yoki kam bo'lishini ko'zda tutadi.



➡ Norasmiy guruh - psixologik motivatsiyaning yagona yo'nalishi asosida simpatiya, qarashlarning yaqinligi, e'tiqod asosida vujudga keladi. Bunda rasmiy hujjatlar hech qanday kuchga ega emas. Agar simpatiya va o'zaro bog'liqlik yo'qolsa, guruh ham tarqab ketadi.

➡ Referent guruh (etalon guruh) — bu real yoki xayolan mavjud bo'lgan guruh bo'lib, uning qarashlari, qonun-qoidalari namuna bo'lib hisoblanadi. Guruh normalarini tan oluvchi ularni eng yaxshi deb hisoblovchi va ularga qo'shiluvchi shaxs shu guruhga kirishi mumkin. Bunda shaxs bu normalarga qo'shilibgina qolmay, ularni himoya qiladi va zarur bo'lsa, tashviqot qilishi mumkin.



➡ Odamlar ijtimoiy birlashmasi rivojlanishining yuqori shakli jamoadir.





Boshqa jamoalar tizimida tutgan o'ri va alokalariga qarab; birlamchi va asosiy jamoalar ajratiladi.

Guruhlar va jamoa. Shaxs ikki xil munosabatda - **xizmat** yuzasidan bo'ladigan va **shaxsiy** munosabatlarda bo'ladi.

Xizmat yuzasidan bo'ladigan munosabatlar guruh tarkibi bilam birga hujjatlarda qayd etiladi. Shaxsiy munosabatlar esa simpatiya, bogliqlik, do'stlik, o'rtoqlik, antipatiya asosida vujudga keladi.

Xizmat yuzasidan bo'ladigan va shaxsiy munosabatlar shaxslararo tizimini tashkil etadi.

Guruh a'zolari bir-birlariga nisbatan bir xil holatda bo'la oladilar. Guruhning har bir a'zosi o'zining shaxsiy va ishga taaluqli bo'lgan sifatlariga, o'zining mavqeiga ko'ra guruhdagi shaxslararo munosabatlar tizimida muayyan holatni egallaydi. o'tkazilgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha, ayrim kishilar boshqalariga nisbatan ko'proq obro'ga ega bo'ladilar.

Eksperiment malumotlariga ko'ra, sinf jamoasida, ya'ni 30-40 o'quvchi ichida eng mashhur, obro'lisi 3-4 o'quvchi bo'lishi mumkin. Ularning mashhurligi quyidagi omillarga bog'liq bo'ladi:

➡ Birinchidan, buning sababi bu o'quvchilarning guruhning boshqa a'zolari bilan aloqa o'rnatish malakalaridir.

➡ Ikkinchidan, shaxs o'zining bilim va malakalari tufayli, bu bilimlar bilan o'rtoqlashish, boshqa kishilarga beg'araz yordam ko'rsatishga intilishi sababli mashhur bo'lishi mumkin.

➡ Uchinchidan, tashqi ko'rinishi omili tufayli ham shaxs guruhda avtoritet qozonishi mumkin. Bu omilga jismoniy kuch ko'rsatkichini ham kiritish mumkin.

Guruh yoki jamoadagi ba'zi a'zolar shaxsiy o'zaro munosabatlardan chetda qoladilar. Ular bunday aloqalar o'rnatish uchun o'zlariga sherik tanlaydilar. Biroq bu ushbu shaxs jamoa tomonidan xohlanmaydi, degan so'z emas. Bu shaxs ish yuzasidan bo'ladigan munosabatlarga kirishadilar, unga berilgan rolni yaxshi bajaradilar. Jamoa bu a'zosining shaxsiy o'zaro munosabatlarini jamoadan tashqarida yaxshi o'rnatiladi.

Guruhda shaxs yana shunday holatda ham bo'lishi mumkin, bunda uni guruhdoshlari do'stlikda, shaxsiy munosabatlarda rad etadilar. Guruhdagi yakka qo'yish (izolyatsiya) va rad etish sabablari ham turlicha bo'lishi mumkin.

➡ Birinchidan, rad etiluvchi o'quvchilarning o'qishga befarq munosabatda bo'lishi.

➡ Ikkinchidan, ba'zi o'quvchilarning sinfdoshlarni tomonidan rad etilishi ular bilan bo'ladigan muloqotning qiziqarli emasligi bilan ham tushuntiriladi.


➡ Uchinchidan ajralib qolganlik guruhdoshlari bilan aloqa o'rnatish imkoniyatiga ham bog'liq bo'lishi mumkin.

Guruhlar yoki jamoalarda o'ziga boshchilik rolini oluvchi shaxs farqlanadi. Psixologiyada bunday shaxs **lider** deyiladi.

Lider guruhni tashkil etish va boshqarish uchun tayinlanishi yoki belgilanishi mumkin.

Rasmiy lider liderlikka saylangan yoki tayinlangan lider bo'lib, ushbu jamoaning faoliyatiga rasman javobgar hisoblanadi.


Norasmiy lider - rasmiy liderlik mavqeini egallamaganligiga qaramay, ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan, obro'ga ega bo'lgan lider.



Demak, ayni bir jamoada bir necha lider mavjud bo'lishi mumkin. Agar jamoada liderlar ko'p bo'lsa, bu ijobiy holat. Lekin bunda liderlarning axloqiy normalari bir-biriga zid kelmasligi lozim. Liderlarning turli-tumanligi jamoa hayotining turlicha bo'liilini ta'minlaydi.

Liderlar o'rtasida o'zaro munosabatlar jamoadagi psixologik iqlimning muhim tomonidir. Bundan tashqari jamoaning psixologik iqlimiga jamoa a'zolari o'rtasidagi g'ijaxslararo munosabatlar ham katta ta'sir ko'rsatadi. Bunda jamoa a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarnng qanchalik chuqur bo'lishi muhim rol o'ynaydi.

Bu jihatdan o'zaro munosabatlarnng 3 xil darajasini ajratib ko'rsatish mumkin.



Jamoadagi normal psixologik iqlimni belgilovchi bevosita ko'rsatkichlar ham mavjud.

- ➡ Jamoadagi erkinlik atmosferasi.
- ➡ Muloqot turli shakllarining mavjudligi.
- ➡ Umumiy maksadni tushunish va unga erishishga intilish.
- ➡ Fikr-mulohazalarni ochiqchasiga aytish imkoniyatining mavjudligi.
- ➡ Tanqid qilish erkinligi. Nizolarning ham mavjud bo'lishi.
- ➡ Jamoa a'zolari o'rtasida vazifalarning to'g'ri taqsimlanishi.
- ➡ Boshliqning norasmiy o'rtasida vazifalarning to'g'ri taqsimlanishi.
- ➡ Xodimlar qo'nimsizligining kamligi.

Bulardan tashqari jamoaning psixologik iqlimiga bir qancha omillar ta'sir ko'rsatishi mumkin.

O'quvchi, talabalar jamoasidagi ma'naviy psixologik iqlimning tashqilotchisi – o'qituvchi, guruh rahbari hisoblanadi. Har bir guruh rahbari jamoada normal psixologik iqlimni yaratish uchun unga ta'sir etuvchi omillarni yaxshi bilishi zarur. Chunki yaxshi tashkil etilgan jamoada normal psixologik iqlim mavjud bo'lganda guruh a'zolarining o'zlashtirishi, tartib-intizomni saqlashi ham yaxshi yo'lga qo'yiladi.

Guruh va jamoalardagi shaxslararo munosabatlarni o'rganishda kuzatish, eksperiment, turli xil suhbat me'yorlaridan foydalaniladi. Shaxslararo munosabatlari o'rganishish metodlaridan yana biri - **sotsiometriya** metodidir.

Bu metodning mohiyati shundan iboratki, inson u yoki bu ko'rsatkich bo'yicha guruh a'zolarini tanlaydi. Qilingan tanlashlar asosida kishining guruhdagi shaxslararo munosabatlar tizimida tutgan o'rni haqida xulosa chiqaradi.

Demak, sotsiometriya metodi yordamida guruh a'zolari o'rtasidagi simpatiya yoki antipatiyani aniqlash mumkin, sotsiometriya metodni operativ tarzda o'tkazish, uning natijalarini esa matematik ravishda qayta ishlash va grafik tarzda ifodalash mumkin.

Sotsiometriya tadqiqot metodi sifatida tan olish bilan bir qatorda uning ba'zi kamchiliklarining ham ko'rsatib o'tish zarur. Asosiy kamchilik shundan iboratki, sotsiometriya metodi mavjud munosabatlar tuzilishining sabablarini imkonini bermaydi. Shuning uchun ham sotsiometriyadan olingan ma'lumotlar kuzatish, suhbat, psixologo-pedagogik eksperiment natijalari bilan to'ldirilishi lozim.

Sotsiometriya metodidan guruh jamoa a'zolari o'zaro bir-birlarini yaxshi bilgan holatlardagina, rasmiy ish yuzasidan bo'ladigan va shaxsiy munosabatlardagi haqiqiy o'rnini aniqlash, birlamchi guruhlar mavjudligi yoki mavjud emasligini topish, birlamchi guruhlarining paydo bo'lish va tarqab ketish sabablarini aniqlash mumkin!

Sotsiometriya metodining mohiyati shundan iboratki, tekshiriluvchiga birga qilinadigan ishlar yoki guruh a'zolarining ishlarini birgalikda bajarishga hohishlari to'grisida savollar beriladi. Beriladigan savollar tanlash ko'rsatkichlari deyiladi. Kuchli va kuchsiz ko'rsatkichlar farqlanadi. Kuchlilari chuqur va barqaror munosabatlari, kuchsizlari esa yuzaki va beqaror munosabatlarni aniqlashga imkon yaratadi.

Kuchli va kuchsiz ko'rsatkichlar mazmun jihatdan turlicha bo'lishi mumkin, lekin ulardagi umumiy narsa-natija, ya'ni sherik tanlashdir.

Sotsiometrik tadqiqotdan olingan malumotlar asosiy sotsiogrammlar tuziladi. Agar guruh a'zolari soni 20 tadan ko'p bo'lsa, sotsiometrik matritsa tuzish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shuningdek, natijalarni grafik ravishda, zanjir, uchburchak yoki yulduzcha shaklida ham ifodalash mumkin. Shunday qilib, sotsiometriya metodi ob'ektiv va aniq malumotlar, ya'ni shaxsning guruh yoki jamoadagi real holatini aks ettiruvchi ma'lumotlar olishga imkon beradi va amaliy maqsadlarda foydalanishi mumkin.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar.

1. Guruhlarning tafsiflanishi.
2. Rivojlanish darajasiga ko'ra guruhlarning turlari.
3. Jamoa va uning eng muhim belgilari.
4. Faoliyati maqsadiga ko'ra jamoalarning turlari.
5. Shaxslararo munosabatlar nima?
6. Shaxslararo munosabatlarda guruh a'zolarining tutgan mavqelari.
7. Liderlar va ularning turlari.
8. Liderlik uslublari.
9. Guruh va jamoalardagi ma'naviy-psixologik iqlim.
11. Shaxslararo munosabatlarni o'rganish metodlari

ADABIYOTLAR

1. V. M. Karimova Ijtimoiy psixologiya asoslari. T: O'qituvchi nashriyoti 1994.
2. Andreeva G. M. Aktualnie problemi sotsialnoy psixologii. M. Iz. MGU. 1998

3. Sotsialnaya psixologiya: Uchebnoe posobie dlya studentov ped institutov. (A. V. Petrovskiy, V. V. Abramenkova, M. ye. Zelenova i dr. pod. red A. V. Petrovskogo M. Prosveshenie, 1987
4. Sotsialnaya psixologiya: Istoriya, teoriya, empiricheskie isledovaniya. Por red ye. S. Kuzmina, V. ye. Semenova L. G. U. 1979
5. Anikeeva N. P. Jamoadagi ruxiy muxit - Toshkent, "Ukituvchi", 1992
6. Kovalev A. G Kollektiv i sotsialno-psixologicheskie problemi rukovodstva. - M. :Politizdat 1975
7. Kolominskiy YA. V. Psixologiya vzaimootnosheniya v malix gruppax. M: Izd. B. GU. 1976
8. Petrovskiy A. V, Shpalinskiy V. V. Sotsialnaya psixologiya kollektiva. M: Prosveshenie 1978

MAVZU: SHAXSLARARO MUNOSABATLAR TIZIMIDA SHAXSNING RIVOJLANISHI.


Reja.

- 1. Insonning shaxs sifatida shakllanishi va bunda ijtimoiy muhitning o`rni.**
- 2. Ijtimoiy psixologiyada shaxsni o`rganishning o`ziga xosligi.**
- 3. Guruhlar va ularning shaxs rivojlanishiga ta`siri.**
- 4. Shaxsning ijtimoiy ustanovkalari.**

Insonning shaxs sifatida shakllanishi va bunda ijtimoiy muhitning o`rni.

Shaxs jamiyatning a`zosi, ijtimoiy va shaxslararo munosabatlarning mahsuli, ongli faoliyatning sub`ekti bo`lmish individdir.

Shaxsning boyligi, uning hayotga faol munosabati, boshqa kishilar bilan bo`ladigan aloqalarining turli-tumanligiga bogliq bo`ladi.



Individ- soʻzi lotincha-«individuum»-bulinmas degan maʼnoni anglatadi.

Har bir odam oʻzi mansub boʻlgan sinf, muloqotga xos boʻlgan umumiy sifatlar bilan bir qatorda shaxsiy xususiyatlarga ham egaki ular shaxning takrorlanmas individualligidir.

Individuallik- maʼlum sifatlariga ega boʻlgan shunday odamki, bu sifatlar faqat shu odamgagina xosdir.

Shaxs tashqi turmush sharoitlari taʼsirida shakllanadi.

Savol: Bir xil sharoitda tarbiyalanganda har biri oʻzining shaxsiy xususiyatlariga ega boʻladimi?

Javob: Shaxsning shakllanishida ijtimoiy omillardan tashqari biologik omillar ham taʼsir koʻrsatadi.

Bu omillarni bir-biridan ajratib quyish notoʻgʻri.

Hosil qilinadigan xususiyatlar bilan tabiiy mavjud xususiyatlar oʻzaro bogʻliq tashqi sharoitlar taʼsirida odamning shakllanishini ichki sharoitlarga bogʻlik holda sodir boʻladi.

Shaxsning barkarorligi.

Shaxs-oʻzini turli sharoitlarda turlicha tutishiga qaramay asosiy shaxsiy sifatleri ozmi-koʻpmi barqaror boʻladi. Agar odamning xususiyatlari bilib olinsa, uning maʼlum bir vaziyatda oʻzini qanday tutushini aytish mumkin.

Shaxsning jarayonlari, holatlari va xususiyatlari oʻzaro chambarchas bogʻliqdir.

Shaxsning psixologik tuzilishi –jarayonlar, holatlar va xususiyatlarning oʻzaro chambarchas bogʻliyligini hamda aloqadorligi odamdan barcha sifatlarining bir butunligini taʼmin etadi.

Shaxs, siyosiy, gʻoyaviy munosabatlar taʼsirida ham boʻladi. Jamiyat haqidagi gʻoyalar tizimi shaxsning psixologiyasi, uning dunyoqarashi, ijtimoiy ustnovkalarini shakllantiradi.

Ijtimoiy fanlarni oʻzlashtirish shaxsga ijtimoiy taraqqiyotda oʻz oʻrnini anglashga yordam beradi. Jamiyat maktabdagi taʼlim va tarbiya, radio, televideniye va boshqa ommaviy axborot vositalari yordamida shaxsga gʻoyaviy taʼsir oʻtkazadi.

Shaxsning muloqot doirasi qanchalik keng boʻlsa, uni hayotining turli sohalari bilan aloqasi shunchalik turli tuman boʻladi, shaxs ijtimoiy munosabatlar dunyosiga shunchalik chuqurroq kira oladi va uning maʼnaviy dunyosi ham boy boʻla boradi.

Shaxsning psixik xususiyatlari insonning ijtimoiy tajribasi, uning hayot va faoliyati, taʼlim va tarbiya taʼsiri ostida tarkib topadi. Shaxsning shakllanishi u yashaydigan jamiyat sharoitlari hamda mana shu ijtimoiy sharoitlarda u oladigan taʼlim va tarbiya bilan belgilanadi.

Insonning shaxs sifatida shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar

Irsiyat


Ijtimoiy muhit

Ta'lim- tarbiya

Guruhlar va ularning shaxs rivojlanishiga ta'siri.

Har-bir bola yashaydigan ijtimoiy muhit bir emas , balki bir necha qavatdan (zonadan) iborat. Eng yaqin va birinchi qavat oilaviy muhitdir.Oilaga qaraganda kengroq qavatni bolaning tashqari, ya'ni bir qavatni –bolanig qarindoshlari tashkil etadi. Va nihoyat, eng keng qavat- ijtimoiy muhit hisoblanadi. Undan tashqari bevosita xatti-harakat namunalari, alohida kishilarning mulohazalari orqali emas, balki kitob va gazeta, radio, kino, televideniye, jamiyatda o'rnatilgan qonun-qoidalar, odamlar, axloq talablar, ma'naviyat, milliy qadriyatlar orqali amalga oshiriladi.

Biroq, agar bolaning shaxsiy faolligi mavjud bo'lsa, muhit uning taraqqiyotiga ta'sir ko'rsata olmaydi. Faqat o'zining shaxsiy faolligini ko'rsatgandagina bola atrof-muhitning ta'sirini his qilishi, shundagina uning rasmiy xususiyatlari namoyon bo'lishi mumkin.



Demak, inson - faol mavjudod. U tarbiyaviy ta'sirlar, muhit ta'sirining passiv ob'ekti emas. Shuning uchun hayotning tashqi sharoitlari, tashqi ta'sirlar inson shaxsini bevosita emas, balki uning muhit bilan o'zaro ta'siri jarayoni orqali, uning shu muhitdagi faoliyati yordamida belgilaydilar. Shu tuufayli muhit, tarbiyaviy t'asir haqida gapirganda uni ya'ni insoning tashqi muhit bilan faol ta'sir jarayoni, tarbiyachi bilan tarbiyalanuvchining faol o'zaro aloqasi sifatida tushunish zarur.

Inson faol mavjudod sifatida o'z shaxsini ongli ravishda o'zgartirishi mumkin. Shaxsning shakllanishida o'z-o'zini tarbiyalash, ya'ni kishining shaxsiy sifatlarini takomillashtirishga qaratilgan ongli ishi katta ahamiyatga ega bo'la boradi.

Shaxs guruhda, ya'ni mana shu guruhda o'rnatilmagan o'zaro munosabatlar va muloqat ta'sirida rivojlanadi. Demak, guruhning taraqqiyoti shaxsning guruhda rivojlanishi omili sifatida namoyon bo'ladi.

Individ o'ziga xos ehtiyoj, ya'ni shaxs bo'lishi ehtiyoji hamda shaxs bo'lish qobiliyatiga ega. Bu qobiliyat, ya'ni individual xususiyatlar.

Shaxs bo'lish ehtiyoji qondirilishini ta'minladi va turli ishlarni amalga oshirishga imkon yaratadi.

Ushbu ehtiyojning amalga oshirishda yuqori rivojlanish darajasiga ega bo'lgan guruh jamoalar katta ahamiyatga ega.

Shaxs rivojlanishi yangi ijtimoiy muhitga kushilish va u bilan birlashish sifatida tasavvur qilish mumkin. Shartli ravishda bu muhitni doimiy, o'zgarmas deb qaraladi. (masalan, maktabning birinchi sinfi, ishlab chiqarish brigadasi, harbiy qism va hokozo). Nisbatan

barqaror bo'lgan muhitda shaxsning rivojlanishi 3 ta bosqichni bosib o'tadi. Bular – adaptatsiya, individualizatsiya va integratsiya bosqichlaridir.

Demak, inson shaxs sifatida ijtimoiy muhitning hal qiluvchi ta'siri ostida shakllanadi. Tajribalarda ko'rsatishicha, insoniyat jamiyatdan tashqarida haqiqiy taraqqiy etgan inson, shaxs bo'la olmaydi.

Ijtimoiy psixologiyada shaxsni o'rganishning o'ziga xosligi.


Shaxs turli ijtimoiy jarayonlarning ishtirokchisi va faol amalga oshiruvchisi bo'lganligi tufayli ijtimoiy psixologiyada o'rganiladi. Shaxs muammosi umumiy psixologiyada ham, yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiyada ham, psixologiyaning qator maxsus bo'limlarida ham o'rganiladi. Har bir bo'lim yoki tarmoq uni o'z mavzui va vazifalari nuqtai nazaridan shaxsga taalluqli bo'lgan muammolarni yoritadi. Masalan, umumiy psixologiya shaxsni psixologik faoliyatning maxsuli, alohida psixik jarayonlarning egasi deb qaraydi.

Shaxs muammosiga ijtimoiy-psixologik yondoshishning o'ziga xosligi shundaki, u turli guruhlar bilan bo'ladigan turli shakldagi o'zaro munosabatlarning oqibati sifatida qaraladi.

Ya'ni ijtimoiy psixologiya avvalo biror guruhning a'zosi hisoblangan shaxs xulq-atvori qanday qonuniyatlarga buysunishini, shaxsning muloqotlar sistemasida olgan ta'sirlari uning ongida qanday aks topishini o'rganadi.

Guruhning shaxs psixologiyasiga ta'siri qay yusinda sodir bo'lishi ijtimoiy psixologiyada ijtimoiylashuv muammosi bilan uzviy bogliq bo'lsa, bu ta'sirlarning shaxs hatti-harakatlari, xulqida bevosita qanday namoyon bo'lishi ijtimoiy yo'l-yo'riqlar muammosi bilan bog'liqdir. Ana shular asosida shaxsda shakllanadigan fazilatlar va ularning turli tipdagi shaxslarda namoyon bo'lishini aniqlagan holda, shaxs xulq-atvorini boshqarish mexanizmlarni ishlab chiqish ijtimoiy psixologiyaning asosiy vazifalaridan biridir.

Shaxs shakllanishining o'z sohasi, bosqichlari va muassasalari mavjud.



➔ Faoliyat sohasi, ya'ni umr mobaynida shaxs turli faoliyatlarga bevosita yoki bilvosita jalb etilgan bo'lib bu jarayonda fan qatalogi kengayib, boyib boraveradi. Har bir faoliyat

turi individdan maxsus fazilatlarning, malaka va ko`nikmalarining, bilimlarning borligini talab etadiki, ularni koniktirish yo`lidagi aktivligi unda o`ziga xos ijtimoiy-psixologik xususiyatlar kompleksini shakllantiradi;

➡ Muloqot sohasi, ayniqsa maktabgacha yosh davrdagi va o`smirlik davrlaridagi muloqot sistemalari bolada bir qancha ijtimoiy xislatlarni paydo qiladiki, uning natijasida u faol hayotiy mavqega ega bo`ladi, jamiyatda o`z o`rnini tasavvur qilishga erishadi.

➡ O`z-o`zini anglash sohasi, ya`ni "MEN" obrazining yil sayin o`zgarib borishi jarayoni bo`lib, avval o`zini boshqalardan farqliligini, o`zicha mustaqil xarakat qilish, mustakil fikr yurita olish kobiliyatini anglash, sungra o`z-uzini baholash, anglash, nazorat qilish xususiyatlari rivojlanadiki, ular ham faol shaxs psixologiyasining tarkibiy qismidir. Shaxs sotsializatsiyasi, yukorida ta`kidlab o`tganimizdek, bola tugilishi bilan boshlansa-da, sezilarli, samaradorlik nuqtai nazaridan uning bosqichlari farqlanadi. Masalan, birinchi bosqich - mehnat faoliyatigacha bo`lgan bosqich bo`lib, unga bolaning maktabgacha yesh davri hamda o`qish yillari kiradi.

Shaxsning ijtimoiy ustanovkalari.

Ijtimoiy ustanovka shaxs xulk-atvorining ichki, anglanmagan yoki qisman anglangan motivlariga kiradi.

Masalan, bir kishiga badiiy adabiyotdan aingan bir guruh asarlar guruhi yoki shu adib yoqishini tushunmaidi. O`sha guruhdan yangi bir kitob qo`lga kirganda u albatta yoqishi kerak degan tasavvurda bo`ladi shu manoda olib qaralganda ijtimoiy ustanovka shaxsdagi anglanmagan munosabatlariga o`xshaydi. Lekin aslida uning tabiati juda murakkabdir. Chunki ijtimoiy ustanovka tushunchasida munosabatlar ham, shaxsiy ma`no ham, baholar sistemasi ham, bilimlar ham o`z ifodasini topadi. Ya`ni ijtimoiy ustanovka shaxsning turli ijtimoiy ob`ektlarga nisbatan munosabat bildirishining ichki mexanizmidir, shu ob`ektlar bilan ishlashga, ularni baholashga hamda ma`lum tarzda idrok qilishga tayyorgarlik holatidir.

Sof psixologik ma'noda yangicha tafakkur va dunyoqarashni shakllantiruvchi va o'zgartiruvchi ijtimoiy psixologik mexanizm - bu ijtimoiy ustanovkalardir.

Bu - shaxsning atrof muhitida sodir bo'layotgan ijtimoiy hodisalarni, ob'ektlarni, ijtimoiy guruhlarini ma'lum tarzda idrok etish, qabul qilish va ular bilan munosabatlar o'rnatishga ruhiy ichki hozirlik sifatida odamdagi dunyoqarashni ham o'zgartirishga aloqador kategoriyadir.

Ijtimoiy muhitning ta'siri xulq-atvorda bevosita namoyon bo'ladi. U yoki bu xulq-atvorning sababi uning motividir. Ijtimoiy psixologiya shaxs xulq-atvorining motivlari sifatida ijtimoiy ustanovkalarni o'rganadi.

Rus olimi V.A. Yadov o'zining dispozitsion konsepsiyasini yaratib, unda ustanovkalarni to'rt bosqich va to'rt tizimli sifatida tasavvur qilgan

Ijtimoiy ustanovkalar (attitud) - ijtimoiy vaziyatlar ta'sirida ijtimoiy ob'ektlarga nisbatan shakllanadigan ustanovkalar. Ularni o'zgartirish uchun ijtimoiy shart - sharoitlar va shaxsning ularga nisbatan baho va munosabatlari tizimini o'zgartirish kerak.

Elementar ustanovkalar (set) - oddiy, elementar ehtiyojlar asosida ko'p incha ongsiz tarzda hosil bo'ladigan ustanovkalar. Ularni o'zgartirish uchun moddiy shart - sharoitlarni va odamdagi ehtiyojlar tizimini o'zgartirish

B'azaviy ijtimoiy ustanovkalar - ular shaxsning umumiy yo'nalishini belgilaydi va ularni o'zgartirish e'tiqodlar va dunyoqarashlarni o'zgartirish demakdir.

Qadriyatlar tizimi - ular avlodlararo muloqot jarayonining mahsuli sifatida jamiyatda qadr - qimmat topgan narsalarga nisbatan ustanovka. Masalan, sahih hadislar shunday qadriyatlardir, biz ularni tanqidsiz, muhokamalarsiz qabul qilamiz, chunki ular ham ilohiy, ham eng buyuk insonlar tomondan yaratilgan va avloddan avlodga o'z qadrini yo'qotmay kelayotgan qadriyatlardir.

shaxsning avvalgi hayotiy tajribasiga, undagi ijtimoiy tasavvurlariga bog'liqligini o'rginib, shaxs xulq-atvorini turli sharoitlarda boshqaruvchi mexanizm ekanligini isbot qildilar. (U. Tomas, F. Znanetskiy, G. Olport, M. Smit, K. Xovland, Laper, D. Kats, N. Rokich va boshqalar) ular ijtimoiy ustanovkani bir so'z bilan - "attityud" so'zi bilan ifodalaydilar. 1942 yildayoq M. Smit attityudning uch komponentli strukturasi ishlab chiqqan.



➡ Kognetiv qism - bu shaxsdagi attityud obektiga nisbattan bilimlar, uning odam tomonidan anglanishidir. Bunga shaxsdagi bilimlardan tashkari g'oyalar, tasavurlar prinsiplar va hokazolar kiradi.

➡ Affektiv qismi - bu o'sha ob'ektni hissiy emotsional baholash bo'lib, yoqtirish yoki yoqtirmaslik tarzidagi hissiyotlar kiradi.

➡ Konativ qismi yoki xulq-atvor bilan bog'liq qismiga esa ob'ektga nisbatan amalga oshiriladigan xatti-harakatlar, aynan xulq-atvor kiradi. Lekin ba'zi olimlarda ustanovkaning aynan ob'ektga yoki vaziyatga nisbatan bo'lishi mumkinligi haqida ma'lumotlar ham bor edi. Xususan, Laperning 1934 yilda o'tkazgan mashhur eksperimenti bunga misol bo'lishi mumkin. Eksperimentning mazmuni quyidagicha edi.

Laper ikkita xitoylik talabalar bilan AQSH bo'ylab sayohatga chiqadi. Ular hammasi bo'lib 252 ta mexmonxonada bo'lishib, ularning deyarli barchasida (bittasidan tashqari) iliq, samimiy munosabatning guvohi bo'lishadi. Ma'lumki, o'sha paytlarda irqiy belgi bo'yicha odamlarga tanlab munosabatda bo'lishar, xitoyliklar ham sariq tanlilar sifatida kamsitilardi. Laper bilan hamroh bo'lgan talabalarga munosabat bilan olimga bo'lgan munosabat o'rtasida deyarli farq sezilmadi. Sayohat tugagach, Laper o'sha barcha mehmonxona egalariga minnadorlik xati yozib, yana o'sha talabalar bilan borsa, yana o'shanday iliq kutib olishlari mumkinligini so'radi. Javob faqat 128 ta mehmonxona egalaridan keldi, ularning bittasi ijobiy javob, 58 da rad javobi, qolganlarida turlicha formalarida noaniq javoblar olindi. Bundan Laper shunday xulosaga keldi: demak, xitoy millatiga mansub shaxslarga nisbatan ustanovka bilan mexmonxona egalarining real xulq-atvorlari o'rtasida farq bo'lib, aslida ustanovka salbiy ekanligi, vaziyatga qarab esa, u boshqacha-ijobiy namoyon bo'lganligi aniqlandi.


Ijtimoiy ustanovkalarga xos bo'lgan umumiy qonuniyatlardan yana biri uning uzoq muddatli xotira bilan bog'liqligidir. Ayni vaziyatga shakllangan obrazlar uzoq muddatli xotirada saqlanib, u yoki bu vaziyatda aktuallashadi, ya'ni "jonlanadi". Masalan, ba'zi bir etnik steriotiplar ana shunday xotira obrazlaridandir. Demak, ijtimoiy ustanovka ob'ektga hamda konkret vaziyatga bog'liqdir.

Shakllangan ijtimoiy ustanovkaning hayot mobaynida o'zgarishi mumkinligi muhim ijtimoiy psixologik ahamiyatga egadir. Amerikalik olim Xovlant fikricha, ijtimoiy ustanovka o'rgatish yo'li bilan o'zgarishi mumkin. Ya'ni o'quvchilardagi turli ustanovkalarni o'zgartirish uchun rag'batlantirish yoki jazolash sistemasini o'zgartirish lozimdir.

Shaxs tiplari va ularning ijtimoiy psixologik xarakteristikasi.

Psixologlarning fikricha, (G.Asmolov, P.Shixerev, V.A.Yadov, P.Nadirashvili va boshqalar) ijtimoiy ustanovkalarni o'zgartirish uchun shu ustanovkaning sababi bo'lgan vaziyat yoki faoliyatning maqsadi va motivini o'zgartirish shartdir. Shu narsa shaxsning aktiv ongli faoliyatida sodir bo'ladi.

Shunday qilib, shaxs ijtimoiylashuv jarayonida turli ustanovkalarini ro'yobga chiqarish sharoitida faollik ko'rsatadi. Shunday faollikning natijalarini biz uning ijtimoiy-psixologik sifatlarida ko'ramiz. Ya'ni, aktiv birgalikdagi faoliyat, o'zaro muloqot jarayonida shaxsning ijtimoiy-psixologik fazilatlari shakllanadi. Shuning uchun ham barcha sifatlar faoliyatda namoyon bo'ladigan hamda muloqotda ko'rinadigan sifatlar guruhiga bo'linadi. Masalan, tashqi muhit bilan faol munosabat perseptiv himoya sifatleri, ya'ni o'ziga xavf soluvchi yoki solishi mumkin bo'lgan ijtimoiy ta'sirlardan himoya qiluvchi xususiyatlar shakllanadi. Bu sifatleri ba'zi mualliflar perseptiv qobiliyatlar (V.A.Labunskaya) deb atasalar, boshqalari "ijtimoiy ta'sirlarga hissiy javob berish qobiliyati" (A.Bodalev), "kuzatuvchanlik", "ziyraklik" (Yu.Jukov) va hokazo deb atashgan. Boshqa sifatlar "muloqotda namoyon bo'luvchi sifatlar"dir. Ular turli ijtimoiy kutishlar sistemasi bilan bog'liq bo'lib, shaxsning turli sharoitlarda to'g'ri muloqotga kirishish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari, har bir shaxsda o'ziga xos tarzda dunyoni, odamlarni idrok qilish va tushunish qobiliyati borki, ular muloqot jarayonida kamroq xatolarga yo'l qo'yishini ta'minlaydi. Masalan, bosiqlik, mulohazalilik o'zgalarning ichki dunyosini gapleri, hatti-harakatlariga qarab bilish qobiliyati va boshqalar shular jumlasidandnr. Shu fazilatlarni qanchalik namoyon eta olishiga qarab shaxs tiplari farqlanadi.



Ekstrovert va introvert toifali shaxslar

➡ Ekstrovert — o'ta muloqotga kirishuvchan, o'zini odamlar guruhisiz tasavvur qila olmaydigan shaxsdir. Uning uchun muloqot haqiqiy ehtiyojdir, boshqalarning uni tushunish-tushunmasliklaridan qati nazar, u doimo o'z fikr-istaklarini o'rtoqlashgisi keladi. Ekstrovert uchun konkret kim bilandir muloqotda bo'lish emas, umuman kim bilan bo'lsa ham muloqotda bo'lish xohishi muhim. Shuning uchun ham u umuman begona odam bilan gaplashib, kirishib keta oladi. Gaplashgisi kelmagan begonaning psixologiyasini tushunishi qiyin ("Qanday qilib gaplashishni hohlamaslik mumkin?", — deb o'ylaydi u). Ekstrovertning qiziqishlari ham tez-tez o'zgarib turadi, do'stlari, o'rtoqlarini ham almashtirib turishga intiladi. Bundan tashqari, u o'ta qirishuvchan bo'lganligi uchun ham har qanday sharoitda vaziyatdan chiqish usullari to'g'risida tez xulosaga keladi, o'ta qiziquvchan, dunyoda bo'layotgan hodisalar, "mish-mishlar"ni bilish uning uchun zarur. Ekstrovert kek saqlamaydi, bugun urushgan odami bilan ertaga hech narsa bo'lmaganday apoq-chapoq bo'lib ketishi mumkin.

➡ **Introvert** esa ekstrovertning teskarisi. U ko'proq ichki dialog formasidagi muloqotni afzal ko'radi, ya'ni yolg'izlikda mulohaza yuritish, o'zi haqida o'ylash va shunga o'xshaganlar uning uchun asosiy ishdir. Shuning uchun ham unda muloqotga ustanovka juda sust, odamlarning uni tushunmay qolishlaridan doimo xavotirda bo'ladi. Introvert kitoblar olami, falsafiy fikrlashlar qulidir, chunki u odamlar guruhida sodir bo'lib turadigan ziddiyatlardan cho'chiydi, o'zini olib qochadi. Agar muloqotda bo'ladigan bo'lsa, 2—3 kishidan ortiq bo'lmagan guruhni afzal ko'radi. Shunda ham har kuni emas, ba'zan-ba'zan uchrashib turish, gaplashganda ham "shaxsiy" mavzularda emas, umumiy gaplar haqida suhbatlashishni yaxshi ko'radi. Chunki u ekstrovertdan farq qilib, o'z "Men"ining boshqalarga o'xshamasligini doimo esda tutadi. Introvert doimiy standartlar, belgilangan normalar olamida yashaydi, qiziqqan narsasi bilan umrini oxirigacha bo'lsa ham shug'ullanishga tayyor, umr yo'ldoshiga sodiq, vafodor. Do'stlarga ham xuddi shunday.

Mobil va rigid toifali shaxslar

➡ Bu shaxs tiplari muloqotga kirishish me'zoniga ko'ra farqlanadi. Masalan, **mobil tip** har qanday ish bilan mashg'ul bo'lgan sharoitda juda tez muloqotga kirishadi, lekin boshqa narsalarga ham diqqatini ko'chirishi mumkin. U tez gapiradi, doimo shoshadi, yuz ifodalari ham tez o'zgaradi. Suhbat mavzusini ham tez-tez o'zgartirib turishga moyil. Gaplashib ketishi qanchalik oson bo'lsa, gapni tugatib, xayrlashib ketishi ham oson. Suhbat tugagandan keyin qolgan ishini davom ettirib ketaveradi.

➡ **Rigid suhbatdosh** esa uning aksi. Bunday shaxs qat'iyatli, dadil bo'lsa ham, bir faoliyat turidan ikkinchisiga ko'chishi juda qiyin, u ma'lum muddatni talab qiladi. Chunki u o'ylamasdan tavakkal ish qila olmaydi. Masalan, u xat yozayotgan paytda kirib qolsaniz, to biror bo'lagiga nuqta quymaguncha sizga qaramaydi. Qaragandan keyin esa, tezgina suhbatga kirisha olmaydi. Rigid shaxs juda yaxshi suhbatdosh. Mobil tipdagi suhbatdosh bilan gaplashayotganda u tez-tez gapni bo'lib, suhbatdoshga tashabbusni bergisi kelmaydi, rigid esa juda diqqat bilan tinglaydi. Lekin o'zi gapirganda, sekin, mantiqan to'g'ri gapirishni yaxshi ko'radi, gapini bo'lishlarni sira istamaydi. Agar suhbatni bo'lsangiz, keyingi safar siz bilan gaplashmay qo'ya qolishni afzal ko'radi. Agar u bilan urishib qolsangiz, ancha vaqtgacha uning jaxli chiqmaydi, sizni oxirigacha eshitib, sekin javob beradi, undagi ranjish, jaxl chiqishi odatda siz ketgandan keyin keladi. Agar uning suhbatdoshi toqatsiz odam bo'lsa, ikkalasining chiqishishi qiyin, chunki u uzoqdan kelib tushuntirishni yaxshi ko'radi. Demak bu tiplar ham har xil, har birida ham yaxshi, ham yomon sifatlar bor.

Dominant va tobe toifali shaxslar

➡ Dominant tip muloqot jarayonida sira ham boshqalardan past kelishni xohlamaydi, savol berilsa, xohlasa javob beradi, bo'lmasa, indamasligi ham mumkin. U doimo suhbatdoshga ta'sir ko'rsatishi, uning bo'ysunishini xohlaydi. Unda egoizm hissi kuchli, o'zi xato fikr yuritisa, xatoligini suhbatdosh sezsa ham uni bo'yniga olmaydi. Dominant tip — qatiyatli. Suhbat davomida u sizning fikringizni yarim yo'lda tushunsa, sizni oxirigacha tinglashni istamaydi, gapni bo'lib, mayinlik bilan gapni tugatib qo'yishi mumkin. Agar ikkala suhbatdosh ham dominant bo'lishsa, unda ular o'rtasida osongina raqobat hissi yuzaga chiqishi, kelishmay qolishlari mumkin. Shuning uchun janjallashib qolmaslik uchun dominant shaxsning mustaqilligi, dadilligiga ko'nish, unga o'z nuqtai nazarini oxirigacha bayon etish imkoniyatini berish lozim.

➡ **Tobe tipli** shaxs esa suhbatdoshning qarashlariga moslashadi, doimo yon berishga tayyor, shuning uchun u kam janjallashadi, lekin yomon ko'rib qolgan odami bilan umuman gaplashmaydi. Suhbat sharoitidagina u asta-sekin o'zining dadilligini ko'rsatishi, ochiq gaplashishi, ba'zan e'tirozlar bildirishi mumkin. Tobe shaxsli bolalarni rag'batlantirish maqsadga muvofiqdir, shuning uchun ham ularni maqtab turish, gapirayotganda ko'zlar, yuz ifodalari bilan ularni ruhan qo'llab turish kerak. Biror qarorga kelish kerak bo'lib qolsa, bu shaxs qarorni yaxshisi siz qabul qilishingizni xohlaydi, chunki javobgarlikni bo'yniga olishni istamaydi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar.

1. Shaxsning ijtimoiy mohiyati.
2. Shaxsning shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar.
3. Guruhlar va shaxsning taraqqiyoti.
4. Barqaror muhitda shaxs rivojlanishining asosiy bosqichlari
5. Guruhlarning shaxsga ko'rsatadigan ijobiy va salbiy ta'sirlari.

Adabiyotlar.

1. Andreyeva G.N. Sotsialnaya psixologiya. M. 1980.
2. Karimova V.M. Psixologiya. Ma'ruzalar matni. T. 2000.
3. Nemova R.S. Psixologiya 3 tomlik. 1-kitob.
4. Psixologicheskiye issledovaniya sotsialnogo razvitiya lichnosti. M. 1991.
5. Petrovskiy A.V. Sotsialnaya psixologiya. M. 1987

MAVZU: Muloqot psixologiyasi .

Reja:

1. Muloqot va shaxslararo munosabatlar.
2. Muloqot kishilarning o'zaro munosabatga kirishish jarayoni ekani.
3. Muloqot ma'lumot almashinuvi jaryoni.
4. Muloqotning interaktiv va perseptiv tomoni.
5. Tadbikiy ishlar va ilmiy izlanishlarning zarurligi.
6. Yoshlarni yangi demokratik munosabatlarga tayyorlash.

Mavzuga oid izohli lug'at

Kommunikativ- muomala sub'ektlarning o'zaro bir-biri bilan axborot, hissiy kechinmalar, va fikr almashinuvini ta'minlaydi.

Interaktiv- sub'ektlarning o'zaro bir-birlarining xulq-atvoriga ta'sirlarini ta'minlovchi jarayon.

Perseptiv- sub'ektlarning bir-birlarini to'g'riroq, aniqroq idrok qilish va baholashlarini ta'minlovchi muloqot tomoni.

Identifikatsiya- suhbatlarning hissiy kechinmalarining idrok qilgan holda fikran uning mavqeida tura bilishi, uning xolatiga kirishga intilish.

Stereotipizatsiya- ongda o'rnashib qolgan tasavvurlardan foydalanish.

Kauzul atributsiya- shaxsning hissiy kechinmalari va tasavvurlarida o'rnashib qolgan qoliplardan noto'g'ri foydalanish natijasida muloqotning samarasiz yoki xato kechishi.

Plastik va adekvatlik sifatlari- egiluvchan, moslashuvchan.

Muloqot strategiyasi- muloqotning qanday shaklda o'tishi tushuniladi.

Muloqot shakllari- dialogik, monologik, ochiq yoki intim (sirli, yashirin) rasmiy yoki shaxsiy norasmiy.

Muomala texnikasi- uning samarasini ta'minlovchi psixologik omillar, (kommunikativlik malakalari va ko'nikmalar) vositalar, (nutq, nutqiy-verbal, nutqsiz-noverbal) usullar (hissiy-emotsional, psixologik-xarakterologik) tushuniladi.

Noverbal vositalar- fazoviy joylashish, ohanglar va emotsional qo'llab quvvatlash mexanizmlari kiradi.

Muloqot- birgalikdagi ehtiyojlardan kelib chiqadigan turli faolliklari mobaynida bir-birlari bilan o'zaro munosabatlarga kirishishi jarayonlaridir.

Har qanday faoliyat odamlarning bir-birlari bilan til topishishni, bir-birlariga turli xil ma'lumotlar o'zlashishni, fikrlar almashinuvi kabi murakkab hamkorlikni talab qiladi.

Shuning uchun ham har bir shaxsning jamiyatda tutgan o'rnini, ishlarining muvoffaqiyati, obro'si uning muloqotga kirish qobiliyati bilan bevosita bog'liq.

Shaxslararo muloqot jarayoni juda murakkabdir. B.F.Pariginning yozishicha, «muloqot shunchalik ko'p qirrali jarayonki, unga bir vaqtning o'zida quyidagilar kiradi»

➔ Individlarning o'zaro ta'sir jarayoni

➔ Individlarning o'rtasidagi axborot almashinuvi jarayoni


➔ Bir shaxsning boshqa bir shaxsga munosabati jarayoni

➔ Bir kishining boshqalarga ta'sir ko'rsatish jarayoni.

➔ Bir-birlariga hamdardlik bildirish imkoniyati

➔ Shaxslarning bir-birlarini tushinish jarayoni

Muloqotning turli shakllari va bosqichlari mavjud:




➔ Dastlabki bosqich –odamning o'z-o'zi bilan muloqotidir. T. Shibutani «Ijtimoiy psixologiya» kitobida «Agar odam o'ziga bo'lsa ham o'zini anglasa, demak, o'z-o'ziga ko'rsatmalar bera oladi», -deb yozgan edi.

➔ Ikkinchi bosqichi boshqalar bilan muloqot- muloqotnidir. Odamning o'z-o'zi bilan muloqoti aslida uning boshqalar bilan muloqotining xarakterini va hajmini belgilaydi. Agar odam o'z-o'zi bilan muloqot qilishni odat qilib olib, doimo jamiyatdan o'zini chetga tortib yursa, demak, u boshqalar bilan suhbatlashishda jiddiy qiyinchilikni boshidan kechiradi deyish mumkin.

➔ Uchinchi bosqich avlodlar oʻrtasidagi muloqot. Bu muloqot tufayli har bir jamiyatning oʻz madaniyati, madaniy boyliklari, qadriyatlari mavjud boʻladiki, buning ahamiyatini tushungan insoniyatning eng ilgor vakillari uni doimo keyingi avlodlar uchun

saqlab keladilar hamda muloqot jarayonida uni

taʼlim-tarbiya va kundalik avloddan-avlodga uzatadilar.




muloqot rasmiy yoki norasmiy boʻladi.

➔ Rasmiy muloqot odamlarning jamiyatda bajaradigan rasmiy vazifalari va xulq-atvoridan kelib chiqadi. Masalan, rahbarning oʻz xodimlari bilan, professorning talaba bilan muloqoti.

➔ Norasmiy muloqot odamning shaxsiy munosabatlariga tayanadi va uning mazmuni oʻsha suhbatdoshlarning fikr-uylari, niyat-maqсадlari va emotsional munosabatlari bilan belgilanadi. M: doʻstlar suhbat, poyezdda uzoq safarga chiqqan yoʻlovchilar suhbat, tanaffusda talabalarning sport, moda, shaxsiy munosabatlar borasidagi suhbat. Odamlarning asl tabiatiga mos boʻlgani uchun ham norasmiy muloqot doimo odamlarning hayotida koʻproq vaqtini oladi va bunda ular charchamaydilar. Lekin bunday muloqotga ham qobiliyat kerak, yaʼni uning qanchalik sergapligi, ochiq koʻngilligi, suhbatlashish yoʻllarini bilish, til topishish qobiliyati, oʻzgalarni tushunish va boshqa shaxsiy sifatleri kundalik muloqotning samarasiga bevosita taʼsir kursatadi. Shuning uchun hamma ham rahbar boʻla olmaydi, ayniqsa, pedagogik ishga hamma ham qoʻl uravermaydi, chunki buning uchun ham rasmiy, ham norasmiy muloqot texnikasidan xabardor boʻlish talab etiladi.

Muloqot mavzui va yoʻnalishiga

koʻra:



➡ Ijtimoiy yo`naltirilgan (keng jamoatchilikka qaratilgan va jamiyat manfaatlaridan kelib chiqadigan).


➡ Guruhdagi predmetga yo`naltirilgan (mehnat, ta`lim jarayonidagi yoki biror topshiriq bajarish jarayonidagi muloqot).

➡ Shaxsiy muloqot (bir shaxsning boshqa shaxs bilan o`z muammolarini yechish maqsadida o`rnatgan munosabatlari).

➡ Pedagogik muloqot (pedagogik jarayonda ishtirok etuvchilar o`rtasida amalga oshiriladigan murakkab o`zaro ta`sir jarayoni).

Har bir muloqot turining o`z qonun-qoidalari , ta`sir usullari va yo`l-yo`riqlari borki, ularni bilish har bir kishining, ayniqsa, odamlar bilan doimo muloqotda bo`ladiganlarning burchidir.

Muloqot murakkab jarayondir. Uning tuzilishi quyidagicha:



➡ Muloqotning kommunikativ tomoni — muloqotning o`rtasidagi ma`lumot almashinuvi jarayoni.

➡ Muloqotning interaktiv tomoni — muloqotga kirishuvchilarning xulq-atvoriga ta`siri.

➡ Muloqotning perseptiv tomoni — muloqotga kirishuvchilarning bir-birlarini idrok etishlari va tushunishlari bilan bog`liq bo`lgan murakkab psixologik jarayon.

Muloqotning har bir tarkibiy qismi bilan alohida tanishib chikamiz.

Mulokotning kommunikativ tomoni — shaxslararo axborotlar, bilimlar g`oyalar, fikrlar almashinuvi. Bu jarayonning asosiy vositasi — bu til.

Yozma-ogzaki, monologik-dialogik nutq.

➡ Dialogik nutqning mazmuni, xarakteri, davomiyligi muloqotga kirishgan shaxslarning shaxsiy qarashlariga, qizikishlariga, bir-birlariga bulgan munosabatlariga, maqsadlariga

bevosita bogliq bo'ladi. O'qituvchi-o'quvchi, siyosiy rahbarlarning, diplomatlarning, dugonalarning suhbatlari bir-biridan farq qiladi.

➡ Monologik nutq bir kishining boshqa kishiga murojaati— fikrlarning mantiqan tugal bo'lishi, grammatik qonun-qoidalarga rioya qilish kerak. Odamlarning muloqot jarayonida so'zlardan tashqari turli xil harakatlardan, qiliqlardan, holatlardan, kulgu, ohanglardan ham foydalanadilar. Mimika, ko'z qarashlar, to'xtashlar ifodalari va hokazo. Buyuk rus yozuvchisi L.Tolstoy odamlarda 97 xil kulgu turi, 85 xil ko'z qarashlar turi borligini kuzatgan. Andreyevaning yozishicha, odam yuz ifodalari, nigohlarining 2000 ga yaqin ko'rinishlari bor.

Bu noverbal muloqot vositalarining milliy va hududiy xususiyatlari bor. Masalan o'zbek xalqining muloqot jarayoni boy, o'zaro munosabatlarning bevosita xarakteri unda shunday vositalarning ko'proq ishlatilishi bilan bogliq. Bolgarlar biror fikrni tasdiklamoli bo'lishsa, boshlarini chayqashadi, inkor etmokchi bo'lishsa, bosh siltashar ekan.

Noverbal muloqatda suhbatdoshlarning fazoviy joylashuvlari ham ahamiyatga ega: Masalan, ayollar hissiyotga berilganligi uchun bir – birlari bilan yaqin turib gaplashar ekanlar, erkaklar o'rtasida masofa bo'lar ekan.

O'quvchilarni partada orqama – ketin o'tkazgandan ko'ra doira shaklida o'tkazilsa, ularda javobgarlik hissi yuqoriroq bo'lar ekan, emotsiyalar almashgani uchun ham guruhdagi psixologik vaziyat ijobiy bo'lib, bolalarning predmetga va bir – birlariga munosabatlari ancha yaxshi bo'lar ekan.

Demak ta'lim – tarbiya jarayonini tashkil etishda muloqotning barcha vositalariga, ayniqsa, nutqqa e'tibor berish kerak. Bolalarni ilk yoshlik choglaridanoq nutq madaniyatiga o'rgatish, nutqlarini o'stirish choralari ko'rish zarur. Pedagog ham nutq madaniyatiga ega bo'lishi kerak.

Muloqotning interaktiv tomoni – kishilarning birgalikdagi faoliyatda bir – birlariga amaliy jihatdan ta'sir etishlari. Hamkorlikda ishlash, bir – birlariga yordam berish, bir – birlaridan o'rganish, harakatlar muvofiqligiga erishish kabi qator qobiliyatlarni namoyon qilish mumkin.

Odamlarning turli sharoitlarda o'zlarini tutishlari xulq – atvorlarining boshqarilishi ma'lum psixologik qonuniyatlarga bog'liqligini ko'rish mumkin. Bunga sabab jamiyatda qabul qilingan turli normalar, qonun qoidalaridir. Chunki o'zaro muloqot va o'zaro ta'sir jarayonlarida shunday xatti – harakatlar obrazlari kishilar ongiga singib tasavvurlar, xislatlar orqali boshqa birovni tushunishga harakat qilish, o'zini boshqa birov bilan solishtirish, masalan: 1 – martda uchrashuvga ketayotgan yigitning holatini uning o'rtogi yoki akasi tushunishi mumkin.

Refleksiya – muloqot jarayonida suhbatdoshning pozitsiyasida turib, o'zini tasavvur qilishdir, o'ziga birovning ko'zi bilan qarashga intilishdir. Masalan: guruhdoshingizdan biriga ko'ylagi yarashmaganini aytish mumkin, 2-chisiga aytsam kuyyapti deb o'ylaydi deysiz.

Stereotipizatsiya – odamlar ongida muloqotlar mobaynida shakllanib o'rtnashib qolgan, ko'nikib qoling'an obrazlardan shablon sifatida foydalanish, bunday stereotiplar ba'zan muloqotni to'g'ri yunalishini ta'minlasa, ba'zan xatoliklarga sabab bo'ladi. Masalan: qizlarning shim kiyib yurishi yoki velosiped minishi. Ko'pchilik bunday qizlarni odobsiz deb o'ylaydi, bu notug'ri, albatta.

Ba'zan kishini tashqi qiyofasidan uning xarakterini aniqlaydi. M: shunday tajriba o'tkazilgan: talabalarga turli qiyofadagi kishilarning rasmi ko'rsatilgan, ular iyagi katta kishilar kuchli irodaga ega, peshonasi keng odamlar-aqlli, sochi qattiq odam- qaysar, bo'yi past odam- hokimiyatga intiluvchi, chiroyli odam- o'ziga bino qo'ygan yoki nodon

bo'lishini aytganlar. Bular albatta, to'g'ri emas. Lekin kishilarning ongida avloddan avlodga o'tib kelayotgan tasavvurlar shunday obrazlarni shakllantirgan. Natijada odam haqida tushunchaning shakllanishida u qaqida bo'lgan ma'lumot katta rol o'ynaydi. M: Bodalyova talabalarining 2 guruhiga bir odam portretini ko'rsatib, uni 1-guruxga – jinoyatchi, 1-guruh talabalariga esa olim deb tanishtirgan.

1- guruhdagilar uning ko'zlarini- yovuz, beshavqat desa;

2- gurugdagilar uning ko'zlarini- dono, muloyim deyishgan.

Odamlarning tashqi qiyofasi, kiyinishi, o'zini tutishi, hissiy holati, ovozi, qiliqlari, yurishi va x.k. ishlarining ichida odamning so'z muloqot manba'i suhbatdoshiga eng ko'p ma'lumot beradi.

Odamning bir -birlarini to'g'ri anglashlari idrok(asosiy bilish) soshasiga aloqador, bir-birlarini tushunishlari esa ularning tafakkur sohasiga aloqador, murakkab jarayondir. Boshqa odamni to'g'ri tushungan shaxs uning hissiy holatiga ko'ra olgan hissoblanadi. Ya'ni unda empatiya- birovlarining his- kechinmalarini tushuna olish qobiliyati rivojlangan biladi. Yuksak ongli, madaniyatli, « ko'pni ko'rgan» shaxsgina boshqalarni to'g'ri tushunishi, ularning mavqeida tura olishi mumkin.

Psixoliklar turli muloqot vaziyatlariga duch keladilar va har bir vaziyatda ulardan o'tkir didlik, odob, kishilarning psixologiyasini bilgan holda ularni to'g'ri tushunish malakasi talab qilinadi. Bo'lg'usi psixolog bu borada quyidagi qonuniyatlarni bilishi kerak:

1. Birinchi ko'rgan odam haqida faqat birlamchi tasavvurgina bo'lishi mumkin.


2. Biror kishi haqida berilgan malumotga asosan muayyan fikr hosil qilish oson, lekin uni o'zgartirish qiyin.

3. Intellekt juda yuqori bo'lsa ham, juda past bo'lsa ham boshqa odamni tushunish qiyin.

4. Maxsus tayyorgarlik bo'lishi kerak. Tajribada 5-kurs psixologlari bilan rassomlarni odamlarga bergan bahosi solishtirilgan, rassomlarni bergan bahosi aniqroq bilib chiqqan.

Bitta odamning baholash topshirig'i berilganda og'riqni boshdan kechirayotgan odamlar unda johillik sifati bor deb baholaganlar, yaxshi holatda bilganlarida esa xuddi isha odamni yaxshi sifatlarga ega deb aytganlar-demak, biror kishiga baho berish- odamning emotsional holatiga ham bog'liq ekan.

Shaxsning ochiqligi- ya'ni ochiq, samimiy odamning bergan bahosi bilan tund, pisman odamning baholari o'rtasida sifat jihatidan farq bo'lishligi aniqlangan.



➡ **Aktiv holat.** Bu - agar kreslo yoki divan kabi mebel bo'lsa, unga bermalol yastanib yoki yotib olmaslik, suhbatdoshning yuzidan tashqari joylariga qaramaslik, mimika, bosh chayqash kabi harakatlar bilan uning har bir so'ziga qiziqishni bildiradi

➡ **Samimiy qiziqish bildirish.** Bu nafaqat suhbatdoshni o'ziga jalb qilib, balki keyin suhbat kelganda o'zining har bir so'ziga uni ham ko'ndirishning samarali yo'lidir

➡ **O'ychan jimlik.** Bu suhbatdosh gapirayotgan paytda yuzda mas'uliyat bilan tinglayotganday tasavvur qoldirish orqali o'zingizning suhbatdan manfaatdorligingizni bildirish

Психологик таъсир - бу турли воситалар ёрдамида инсонларнинг фикрлари, ҳиссиётлари ва ҳатти-ҳаракатларига таъсир кўрсата олишдир.



➡ **Verbal ta'sir** - bu so'z va nutqimiz orqali ko'rsatadigan ta'sirimizdir. Bundagi asosiy vositalar so'zlardir.

➡ **Paralingvistik ta'sir** - bu nutqning atrofidagi nutqni bezovchi, uni kuchaytiruvchi yoki susaytiruvchi omillar: tovushlar, to'xtashlar, duduqlanish, yo'tal, til bilan amalga oshiriladigan harakatlar, nidolar kiradi.

➡ **Noverbal ta'sir** - Bunga suhbatdoshlarning fazoda bir-birlariga nisbatan tutgan o'rinlari, holatlari (yaqin, uzoq, intim), qiliqlari, mimika, pantomimika, qarashlar, bir-birini bevosita his qilishlar, tashqi qiyofa va signallar kiradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bo'lg'usi pedagog -psixologlardan psixolik bilimdonlik talab etiladi. Buning ijtimoiy- psixolik treninglar yordamida amalga oshiriladi. Odamlarda muloqot malakalari hosil qilinib, ular turli ijtimoiy sharoitlarda o'zini to'g'ri tutishga odatlantiriladi. Boshqacha aytganda, trening muloqotga o'rgatishdir. Muloqotga o'rgatish hozirgi zamon kishisining turli ishlab chiqarish va muomala sharoitlarida to'g'ri moslashishga yordam beradi.

Buning uchun maxsus tayyorgarlik guruhleri yoki trening guruhleri tashkil etishni psixologlar taklif etishgan.

G'arbda shu maqsadda T- guruhlar tashkil qilinib, muloqot jarayonida qiyinchilik his etayotgan kishilar taklif etilgan. Ijtimoiy psixologik treningning asosiy usullari- guruhiiy munozaralar, rolli o'yinlar, psixolik sezgirlikni oshiruvchi treninglardir. Trening guruh a'zolari 7-15 kishigacha bilib mashg'ulotlar bir necha kundan bir necha oylargacha davom etadi.

Ularning muloqot manbaida o'zini «o'zgalar» o'rniga qo'yish, ularning ichki olamini to'g'ri tushinish qobiliyati va istagi tarbiyalanadi.

Ijtimoiy psixologik treninglarga quyidagi metodik talablar qo'yiladi:

1. Munozara yoki o'yinlar jarayonida ar bir ishtirokchi vaziyatni yoki rolni faol o'zlashtirib, shar bir holatdan o'zi uchun xulosa chiqarishga olib kelish zarur.
2. T- guruhlarda muloqotning nutq shakllaridan tashqari, nutqsiz-noverbal shakllari ham keng qo'llanishi, ya'ni har bir ishtirokchi (o'rganuvchi) har bir harakat, ritmning mohiyatini ham tushunib uni hayotda ishlatishga ham erishish zarur.
3. Har bir ishtirokchi kundalik yuritib, uni har galgi mashg'ulotlardan so'ng o'ziga his-kechinmalari, muammolarni yechishdagi shaxsiy ishtiroki, tasavvurlarini odilona yozib borishi muhimdir.
4. T- guruhga qatnashish ixtiyoriy bo'lganligi uchun, har bir a'zo mashg'ulotlarni qoldirmaslikka harakat qilishi zarur,- chunki bu a'zolarining o'zaro munosabatlariga, guruhning muhitiga bevosita ta'sir qiladi.

Mashg'ulotlar maxsus xonalarda, shovqin surondan xoli yerda tashkil etilishi, shinam bo'lishi kerak.

Mashg'ulot o'tkazuvchi trener- maxsus tayyorgarlikdan o'tgan, xushmuomala, did bilan kiyingan, o'z kayfiyati yoki o'yinga shaxsiy munosabat bilan mashg'ulotlarning tabiiy kechishiga xalaqit bermasligi, sabr-toqatli, madaniyatli bo'lishi zarur.

Mashg'ulotlarni «yumaloq stol» yoki «to'rtburchak» stol atrofida gilam ustida, ba'zan tik turgan holda ham o'tkazish mumkin.

Hozirgi davrda T- guruhlar rahbarlarni muloqotga tayyorlash, ma'sul shaxslarni qayta tayyorlash kurslarida, psixologlar davrasidagina o'tkazilmoqda. Muloqotdagi bilimdonlik barcha mutaxassislariga zarur.

Amaliy psixolog xox maktabda bo'lsin, xox sanoat korxonasida yoki boshqa o'quv yurtida bo'lmasin, mahalliy sharoitni chuqur o'rgangan xolda, u yerdagi rahbariyat bilan kelishib, T- guruhlar tashkil etmog'i va ham o'zining, ham atrofdagilarning bilimdonligini oshirib bormog'i zarur.

Fan amaliyotga - degan tamoyil bugungi kunda har qachongidan ham dolzarb masalaga aylangan. Chunki yoshlarni mustaqil davlatimiz ma'naviy negizlarini teran anglashga o'rgatish va ularni ma'rifatga chorlash jarayonida qator tadbiqiy vazifalarni amalga oshirishni taqazo etadi.

Ilm-fan taraqqiyotini uzoq davri shu bilan tavsiflanadiki, olimlar va tadqiqotchilar ko'proq nazariy masalalarni hal qilish, umumiy qonun qoidalarni sharxlash, tushuntirish orqali jamiyat va insoniyat taraqqiyotini yoritishga o'rganishlari ko'p uchraydi. Bu qoida pedagogika va psixologiya fanlariga ham tegishli.

Dolzarb muammolardan biri- yoshlarda yangicha dunyoqarashni shakllantirish, ularni yangicha demokratik munosabatlarga ruhiy jihatdan tayyorlashdir. Ma'naviyat sohasidagi islohotlar yoshlarda o'z xalqining madaniyati, Vatanning o'tmishi va buguni, milliy qadriyatlarga to'g'ri munosabatlarning shakllanishiga sabab bo'ladi va bu- ziyoli, bilimdon kishilar uchun eng zarur fazilatdir.

Mavzuni mustahkamlovchi savollar:

Muloqot shaxslararo munosabatlar vositasi.
Muloqot tomonlari.
O'zaro bir-birini tushunish mexanizmlari.
Muloqot jarayoniga ta'sir etuvchi omillar.
Muloqotni egallash imkoniyatlari.
O'zaro bir-biriga ta'sir etish mexanizmlari.

Mavzu yuzasidan adabiyotlar

1. G'oziyev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002.1-2 kitob.
2. G'oziyev E.G. Muomala psixologiyasi. T-2001.
3. Vedenskaya L.V, Pavlova L.A. Delovaya retorika: uchebnoye posobiye dlya vuzov.- M.:IKS "MarT", 2004-512 s.
4. Nemov R.S. Prakticheskaya Psixologiya Poznaniye sebya: Vliyaniye na lyudey:Posobiye dlya uch-sya-M:Gumanit. Izd.Sentr VLADOS, 2003, - 320 s.
5. www.expert.psychology.ru
6. www.psycho.all.ru

Mavzu: Ijtimoiy psixologik bilimdonlik- samarali muomala omili sifatida.

Reja:

- 1.**Bilimdonlik tushunchasining ijtimoiy psixologik mohiyati.**
- 2.**Yoshlarning bilim doirasini oshirishda va dunyokarashini kengaytirishda psixologik bilimdonlikning ahamiyati.**
- 3.**Yoshlarning psixologik savodxonligini oshirish yullari.**

Ma'lumki, ilmiy adabiyotlarda " bilimdonlik" tushunchasi kupincha «akl» «akllilik», «ilmga chankoklik» tushunchalari bilan bir xil ma'noda ishlatiladi. Aslida psixologik nuqtai nazardan ushbu tushunchalar urtasida mohiyatan bir oz bulsada fark bor. Buyuk bobomiz A. Navoiy «akl» tushunchasini «bilimdonlik»dan kengroq ta'riflab, akl suzining 27 darajasi va 27 sifatini ajratadi. Ushbu sifatlardan eng muxim va ijobiylari bevosita bilimdonlikka alokadordir. M:

«akl muxandislari»- donishmandlar, olimlar, bilimdonlarni;

«akl piri»- tafakkur ustozlari, farosatli kishilarni

«akl uti»- zexn utkirligi, xushyorlikni

«akli kull»- eng yetuk akl kabi kator sifatlargina insonni atrof-muxitda ruy beradigan vokea-xodisalarning mohiyatiga yetish, ularni taxlil kilish va umumlashtirish, yangilik ochish, ijodiy izlanish xislatlarini aks ettiradi.

Ibn Sino esa, inson faoliyatidagi xakikatni bilishga olib keluvchi nazariy, xamda yaxshi ishlarni bajarishga yunaltiruvchi amaliy bilimlarni farklaydi. Demak, shaxsning bilimdonligi uning atrof-muxit, tabiat va jamiyatda ruy berayotgan murakkab xodisalarni kishilar urtasidagi munosabatlarni anglash, baxolash, uzi xakida tugri tasavvurga ega bulish negizida xayotda, kundalik turmush va ongli faoliyatda namunali ishlarni bajarish, insoniy fazilatlariga amal kilishni takoz etadi. Bugungi kunda yoshlar tarbiyasi oldida turgan eng muxim vazifa xam kelajagimiz bunyodkorlarida aynan shunday sifatlar majmuini shakllantirishdir.

Fanlar tarixidan ma'lumki, falsafa fani bilimlarning eng yukori pogonasi bulib, eng fozil va donishmand insonlar ushbu soxalar bilan shugullanganlar. Lekin falsafaning nazariy xamda amaliy kismolari bulib, birinchi kismi 3 boskichdan: tabiatshunoslik, matematika va metofizikadan;

Amaliy kismi xam 3 boskichdan: - shaxs xakidagi ilmlar, insonning uzaro munosabatlari xakidagi ilmlar, mamlakatni boshkarish ilmi kismalariga bulinadi.

Bizningcha bilimdonlikning yuksak pogonasi barcha ilmlar soxibining didi, faxm-farosati va zukkoligini takazo etadi. Ya'ni ma'rifatli, bilimga chankok shaxs tabiat va jamiyat, inson tafakkuri va ma'naviy dunyosiga alokador barcha bilimlarga befark emasligi, ularni mukkamal egallaganligi bilan farklanadi. Shunday avlodgina murakkab texnologiya, xalkaro munosabatlar rivojlangan davrda xalk xujaligining ustivor yunalishlarini boshkaruvchi yukori malakali mutaxassis sifatida davlat va jamiyatga foyda keltirib ishlay oladi. Bugungi kunda ta'lim tizimining asosiy vazifasi - Kadrlar tayyorlash milliy siyosatining ustivor yunalishlaridan kelib chikayotganligi mantikan tugridir. Ijtimoiy psixologiya xam bilimdonlik tushunchasining moxiyatiga uziga xos tarzda yondashadi va uning serkirraligini etirof etadi. Psixolik nuqtai nazardan olib karalganda shunday muxim jixat mavjudki, u xam bulsa anik ilmlar soxasida bilimlar xamda shaxsning jamiyatdagi insoniy, mafkuraviy, xukukiy, siyosiy, demokratik munosabatlar tugrisidagi bilimlarining uzaro uygunligi masalasidir.

Uzbekiston sharoitida ushbu masalaning ijobiy tarzda xal kilinishiga 1996 yili chikarilgan «Ma'naviyat va ma'rifat jamoatchilik Markazlari faoliyatini takomillashtirish va ular samaradorligini oshirish tugrisidagi» farmon, Respublika Oliy va urta maxsus ta'limi vazirligining ushbu farmonni ukuv yurtlarida bevosita bajarishga karatilgan kator buyruk va karorlari, turli ukuv maskanlarida «Ma'naviyat va ma'rifat asoslari» kurslari ukitilishining tashkil etilishi sezilarli rol uynadi.

Ma'naviyat soxasidagi isloxotlar, amalga oshirilgan va oshirilayotgan ishlarning axamiyati shundaki, ular yoshlarda uz xalki madaniyati, Vatanining utmishi va buguni, milliy kadriyatlarga tugri munosabatlarning shakllanishiga sabab bulmokda, bu esa, ziyoli, bilimdon kishilar uchun eng zarur fazilatdir. Aks xolda olam siru asrorlarini chukur bilgan, kizikishlari doirasida jiddiy izlanishlar olib borishga tayyor shaxs agar u bilimlarini, avval uz xalki, millati, yaknlari manfaatiga yunaltira olmasa, va uning jamiyat tarakkiyotiga alokasini tasavvur kila bilmasa, ma'naviyati kashshok, iktidori esa samarasiz, xudbin sifatida baxolanadi. Shu bois xam mamlakatimiz oliy ukuv yurtlarida, maktablarda «Ma'naviyat saboklari» ning kiritilishi ulardan kutilayotgan samara ana shu ezgu niyatlarning amalga oshishiga sabab bulmokda. Oliygoxlarda talabalar xukukiy madaniyatini urganish va uni shakllantirishga karatilgan anik vazifalar belgilandi.

Fargona Davlat Universiteti olimlari xukukiy ong bilimlar bilan xukukiy madaniyat urtasidagi uzaro alokani urganish maksadida sosiologik tadjikot utkazganlaar. Ma'lum bulishicha talaba yoshlarning bilim doirasida respublikaning Asosiy Komusi, uning moxiyati, konunchilik shartlari va mazmuni xakida tasavvurlar mavjud, ya'ni xukukiy ongning shakllanganlik darajasi 2-4 kurs talabalarida taxminan 70-75% tashkil etgan bulsa xukukiy madaniyat mezoni xakidagi tasavvurlari 18-20% tashkil kilgan xolos.

Nixoyat yukoridagilarga alokador yana bir jixat borki, bu yoshlarning psixologik savodxonligi va uni oshirish masalasidir. Psixologik savodxonlik tushunchasining asl moxiyati – bu shaxsning uzi, uning xissiy kechinmalari munosabatlari majmui bilan jamiyat va undagi shaxslararo munosabatlar tizimi, kadriyatlar, ma'naviyat tugrisidagi tula tasavvurlaridir.

Psixologik nuqtai nazardan, bilimdon odam tasavvurlarida obyektivlik va xolislik sifatleri mavjudkim, shu tufayli u uz «meni» ni mukammallashtirish va uzgalar bilan tugri munosabatlar urnatish kobiliyatiga ega. Tugri, xayot undagi vaziyatlar, xodisalar, shaxsiy tajriba shaxsni ma'lum yunalishda rivojlanishiga sabab xisoblanib uning ma'lum ijtimoiy tasavvurlari tizimini xosil kiladi. Lekin stixiyali, tajribadagi xatoliklar va yutuklar evaziga orttirilgan psixologik savodxonlik anik maksadga yunaltirilgan, shaxs va jamiyat manfaatlariga anik taxlil va ezgu niyatlarga tayangan bilimdonlikdan fark kiladi. M: boshkaruv tizimini oladigan bulsak, raxbar va xodim urtasidagi munosabatlarning tugri yulga kuyilmaganligi kupincha shaxslararo ziddiyatlarni va nizolarni keltirib chikaradi. Lekin agarda raxbarning faoliyati, maksadlarida xodimning individual xususiyatlari va ijtimoiy kutishi xamda iktidori xisobga olinib, mulokotga kirishilsa, mulokot samaradorligini oshiruvchi usullardan foydalanilsa, natija uzaro kelishuv va tomonlarning xamfikrliligi bilan yakunlanadi. Yangi davr kishisi, umuman ishlab chikarishning turli soxalarida faoliyat kursatayotgan shaxslar maxsus dastur asosida muomala texnikasi va uzini tarbiyalash texnologiyasini egallasalar, unda ijtimoiy faoliyat samarasi ortadi.

Psixologik savodxonlik yana shuning uchun xam zarurki kupincha inson uz iktidori va imkoniyati darajasida anik tasavvur kilmaydi, bilimgox yoki kasb tanlashda uzgalar ta'siriga berilib, muayyan xatolikka yul kuyadi. Buning okibatida nafakat usha shaxs aziyat chekadi, balki jamiyatga zarar keltiradi. Xar bir shaxs uzini uzi tarbiyalashning malakalariga ega bulishi, autotrening elementlaridan boxabar bulishi, uzgalar bilan mulokotga tayyorligi, treninglarda kunikmalar xosil kilishi, «uzgacha bula olish» san'ati, uning ruxiy barkamolligiga zaminligi tufayli jamiyatda soglom insoniy munosabatlar ustun turadi. Bilimdon kishilar uzining bilim tizimidan xam unumli, xam samarali foydalanish imkoniyatiga egadirlar. Zero, ba'zan bilimlar doirasi kengligi sababli dimogdorlik illati yuzaga kelishi, saloxiyati buyicha uz urnini topa olmaslik, uz-uzini kuyi baxolash barkamol shaxs tarakkiyoti uchun salbiy ta'sir kursatadi. Demak, ijtimoiy psixologik bilimdonlikdan kuzlangan asosiy maksad –. Bugungi talabalar ertangi kunning bunyodkorlari, vatanparvarlari, mexnatsevar insonlar, jamoalarni boshkaruvchi ziyolilar bulib yetishishi kerakligini xisobga olsak, ulardan bilimdonlik darajasi va kulamining keng bulishining axamiyati shak-shubxasizdir. Yuksak, teran va atroflicha fikr yurita oladigan va ijtimoiy faoliyatidan el yurtga naf yetkaza oladigan insonlargina komolotga erishishi mumkin. Bu jarayonda ijtimoiy psixologiya uzining faol metodlari va konuniyatlari bilan uz xissasini kushadi.

Jamiyatimizning bugungi ijtimoiy xayotida ruy berayotgan tub isloxotlarning moxiyati xakida fikr yuritilar ekan, eng noyob milliy kadiryatlarni yosh avlod ruxiga va ma'naviy dunyokarashiga singdirish va undan umuminsoniy manfaatlar yulida foydalanishning yagona yullaridan biri-bu ularda bilimdonlikni yetarli darajada shakllantirishdir.

«Dunyoning demokratik kadriyatlaridan baxramand bulishda axolining bilimdonligi muxim axamiyat kasb etmokda». Fakat bilimli, ma'rifatli jamiyatgina demokratik tarakkiyotning barcha afzalliklarini kadrlay olishini, va aksincha bilimi kam, olim odamlar avtoritarizm va totalitar tuzumini ma'kul kurishini xayotning uzi ishonarli tarzda isbotlamokda (Karimov I.A. Uzbekiston XXI asr busagasida. 1997)

Davlatimizda mustakillik kulga kiritilib, xukukiy va demokratik isloxotlar amalga oshirilishida kilinayotgan ijtimoiy sa'i-xarakatlarning ne'mati shundaki, mustakillik mamlakatimiz axolisining bilim doirasini kengaytirdi. Uz tariximiz, tilimiz, milliy kadriyatlarimiz, madaniy merosimiz durdonalarini urganishga ochilgan yul xalk

tafakkurining rivojlanishi, uning utmishi, buguni va ertasi xakida anik tasavvurlarga ega bulishiga imkon yaratadi, yoshlarni mustakil fikr yuritishga urgatadi.

Tayanch iboralar: Bilimdonlik, psixologik savodxonlik, muomola texnikasi, uz-uzini tarbiyalash texnologiyasi.

Nazorat savollari:

- 1. Bilimdonlik tushunchasini psixologik jixatdan taxlil etib bering**
 - 2. Bilimdonlikning yuksak pogonasi nimada?**
 - 3. Psixologik savodxonlik deganda nimani tushunasiz?**
- Psixologik savodxonlik nima uchun zarur?**

MAVZU: Munozara metodlari va uni tashkil etish texnologiyasi.

Reja:

- 1. Munozara metodlarining ijtimoiy psixologik moxiyati.**
- 2. T- guruxlarida munozaralarni tashkil etishning uziga xosligi va turlari.**
- 3. Breynstorming va uni utkazish texnologiyasi.**

Tayanch iboralar:

Munozara, T-guruxlar, «generatorlar» «tankidchilar» «katalizatorlar» Breynstorming.

Umuman, baxs munozara yuli bilan turli ijtimoiy muammolarni xal kilish masalasiga kizikish utgan asrning 30-yillaridan boshlangan, deb xisoblanadi. Chunki ayni bu xodisaga kizikish shu davrga kelib pedogogika va psixologiya soxalariga xam yoyilgan va bu xakda birinchi ilmiy psixologik xulosalar kilgan olim shveysariyalik psixolog Jan Piajedir. U bola ijtimoiylashuvi jarayenini urganar ekan, uning uz tengkurlari bilan turli mavzularda kiladigan munozara yoki baxslari undagi egoistik shaxsiyatparaslik mavkeini susayishi va shu tarika uz-uzini anglash bilan bir katorda uzgalar mavkeini anglash va «uzga shaxs bula olish» kobiliyatini ustirishini anikladi. Keyinchalik shunga uxshash tadjikotlar sof ijtimoiy psixologik xodisalar doirasida xam urganila boshlandi. Masalan, nemis olimi Kurt Levin xam 40-yillardayok guruxda kupchilikning yagona bir karorga kelishining psixologik tabiatini urganar ekan, unda ana shu guruxlarda utkaziladigan tabiiy munozaralarning xar bir shaxs ijtimoiy ustanovkalari, karashlari va guruxga munosabatiga bevosita ta'siri borligini isbotladi. Uning fikricha, guruxdagi munozara xar bir shaxsning guruxiy faoliyatiga nisbatan motivasiyasini oshirib, shu bilan birga xar kaysi a'zoning guruxiy jarayenlarga kushilishi, mavkeini anglash, uzgalarga nimanidar deyish kabi extiyejini oshiradi. Erkin, demokratik tarzda fikr almashinish imkoniyatining yaratilishi muxokama kilinayetgan muammo buyicha gurux a'zolaridagi fikrlash jarayonini tezlashtiradi, ularni ijtimoiy mavkellarini yanada faollashtiradi.

K. Levin eksperimentlarining real xayetda kanday samara berishi buyicha keyinchalik, ya'ni ikkinchi jaxon urushi yillarida sinovlar utkazilgan. Usha yillari bir gurux ayollarga ayrim ozik-ovkat maxsulotlari, jumladan, balik konservasi va pashtetning xam foydali ekanligi, xar doim xam yangi suyilgan mol yeki boshka xayvon gushtini iste'mol kilish shart emasligi xakida chiroyli va ishonchli ma'ruzalar ukilgan. Lekin ertasi kuni usha

tinglovchilarning uch foizigina dukonlardan yukorida targibot kilingan narsalarni xarid qilganlar. Boshka bir ayellar guruxiga esa aynan shu mavzuda munozaralar utkazish sharoiti yaratilgan. Keyingi kuzatishlarning kursatishicha, munozara katnashchilaridan 32% usha ozik-ovkat maxsulotlariga nisbatan uz fikrlarini uzgartirganlar va taklif etilgan maxsulotlarni xarid kila boshlaganlar.

Ilmiy nuktai nazardan olib karaganda, munozaralarning moxiyati va axamiyati kuydagilarda izoxlanadi: an'anaviy ma'ruza tinglovchilari tanishtirilayotgan muammoga nisbatan taxminan bir xil neytral mavkeni bildiradilar, ya'ni shu mavzu yuzasidan uzida tugri fikr mavjud bulgan sharoitda ma'ruzachining (xam) bildirayotgan fikrlarini ishonchlirok va asoslanganrok, deb xisoblab, mavzu yuzasidan shaxsiy fikrini past baxolaydi. Agar bayon etilayotgan fikrlar mutlako yangi bulsa, uning moxiyatiga tula tushunib yetish va tushunish kiyin, degan ma'noda yana fikriy pasayish yuzaga keladi. Fikrlar tuknashuvini takozo kiluvchi munozarada esa karama-karshi yoki monand fikrlarning borligini anglash xam shaxsda ushbu fikrlarga nisbatan ancha faol mavkeni shakllantiradi.

Munozaraning kanday yakunlanishidan kat'iy nazar, ya'ni unda fikrlar kesishmasligi xam mumkin yeki ularda ma'lum uygunlik bulishi kuzatiladi, bunda nima bulganda xam baxsning mazmuni shaxsning ijtimoiy tasavvurlari va karashlarida mustaxkam urnashadi xamda xotirada koladi. Baxsli munozaraning predmeti yoki obykti sifatida maxsus tarzda tanlab olingan muammo yoki amaliy faoliyatda uchraydigan turli xodisalar va karama-karshi goyalar kabul kilinishi mumkin. Masalan, 50-yillarda ingliz shifokorlari Maykl va Enid Bamintlar psixoterapevtlar seminarini tashkil etib, munozara va muxokamaning amaliy axamiyatini isbotlashgan. Ular xar kuni klinikadagi vrachlarning tuplanishlari va kundalik amaliyotlarida ruy bergan xodisalar, faktlar xakida ma'lumotlar berib, keyin bildirilgan fikrlar uzaro muxokama kilingan. Shu tufayli turli shifokorlar tajribasida tabiy xisoblangan «uzbilarmonchilik» ning oldi olingan va xozirgacha saklanib kolgan «5-dakikalik» shifokorlar yigini paydo bulgan. Shifokorlar uzaro fikr almashinishlari tufayli ma'lum umumiy foydali karorlarga kelishlari tibbiyot ilmi va amaliyotining rivojiga ijobiy ta'sir kursatgan.

Xar kanday sharoitda xam shaxsning uz boshidan kechirganlarini uzgalarga ayta olishi va boshka fikrlarni kabul kila olishi katta ijtimoiy axamiyatga ega. Usha Garb mamlakatlarda keng tarkalgan «T-gurux»lar metodi xam aynan turli xayotiy kazuslarni taxlil kilish vositasida fikrlar uygunligiga erishish va shaxsni tarbiyalash imkoniyatini yaratadi.

Munozara metodlarining ijtimoiy psixologik axamiyati shundaki, ular xar bir shaxsning uz nuktai nazarini taxlil kilishga imkon yaratib, undagi tashabbuskorlik, xamda uz akliy potentsiallaridan tulik foydalanish imkoniyatini beradi. Ya'ni ushbu turkum metodlarining vazifalari xam uning axamiyatli maksadlaridan kilib chikadi: a.) munozara kanatishchilarini real vaziyatlarini taxlil kilishga, asosiy, muxim muxim narsani nomuxim narsadan ajratishga va muammoni anglashga urgatadi. b.) muammoga taalukli rang-barang kirralarni ajratish, ular moxiyatini anglash imkoniyatini yaratadi. g.) muammoning turli mukobil yechimlari bulishi mumkinligini namoyish kiladi. Ayniksa, axlokiy-ma'naviy mavzulardagi mummolarni xal kilishda munozaraning roli katta. Bunday sharoitda baxslashuvchilarning yetuklik darajalari, axlokiy kadriyatlarini anglash darajalari katta axamiyatga egadir. Axlokiy-ma'naviy masalalar yuzasidan munozarani tashkil etuvchi shaxsga aloxida talablar kuyilishini ta'kidlash kerak. Chunki U baxslashuvchilarga xech kanday taziyk kursatilmasligi, xar bir shaxsning erkin fikr bayon etishiga yul kuygan xolda ular fikrlarining tamoman zidlashib ketishiga yul kuymasligi, munozaradan kelib chikadigan xulosani va karorni guruxning uziga xavola kilish lozimligini unutmasligi zarur. Bu usul

maktablarda, turli bilim maskanlarida, maxalla kumitalari shu faoliyatda, turli maslaxat shaxobchalari, uspirinlar tarbiyasi borasida keng kullanishi mumkin.

Kichik va katta guruxlarda munozaralarni tashkil etish koidalari.

«Munozara» yoki «baxs» suzlarining moxiyati shundaki, ular doimo kishilar guruxini anglatadi, ya'ni xar kanday baxs yoki munozara guruxda mavjud buladi. Lekin ijtimoiy psixologiyada (asosan) guruxlarning ikki turi bulib, ulardagi shaxslar soni va guruxi xajmiga kura, katta va kichik gurux turlariga ajratiladi. Ijtimoiy psixologik treninglar utkaziladigan maxsus guruxlar «T-guruxlar» deb yuritiladi. Lekin an'anaviy «T-gurux»lar kishilar sonining ozligi va bevosita mulokot sharoitlarining yetarli ekanligi bilan tavsiflanadi. Shunday bulishiga karamay, kupincha real amaliyotda psixolog shunday guruxlar bilan ishlashiga tugri keladiki, undagi odamlar soni belgilangandan kuprok buladi. Masalan: urta maktablardagi sinflar, ukuv yurtlaridagi akademik guruxlar shular jumlasidandir. Shuning uchun xam biz bevosita kompakt-8-10 kishilik kichik guruxlarda xamda odamlarning soni 20-30 kishi bulgan guruxlarda munozaralarni uyishtirishning moxiyati xakida aloxida tuxtalib utamiz. Shunday kilib T-guruxlarda munozaralarni uyushtirilgan munozaralarning erkin mavzusi, yunaltirilgan va anik ssenariyli disput turlari mavjud bulib, bu tanlangan va munozara guruxlarining mulokot tajribasiga boglikdir «disput» suzining lugaviy ma'nosi «fikrlayapman» «tortishyapman» degan ma'noni bildiradi. Kichik guruxlardagi munozaradagi mavzu xususiyatiga karab, xar birining uz fikr-muloxazalarini oxirigacha bayon etish imkoniyatlarining borligidir. Bunday guruxda boshlovchi xam katorda utirib, mavzuning yechimi batamom xal bulmaguncha faol mulokotlarning ishtirokchisi bulishi mumkin. Lekin asosiy rol guruxning a'zolariga yuklanganligi va bevosita ajralib chikkan norasmiy lider asosiy baxs yurituvchi bulishi mumkinligini unutmazligi zarur. Bunday gurunglar turli sharoitda, kupincha baxs ishtirokchilari uchun tabiiy sharoitlarda utkazilsa, maksadga muvofik buladi.

Agar T-gurux odatdagidan kattarok xajmda (masalan 30 kishigacha) bulsa, unda munozarani uyishtirishning uziga xos tomoni bor. Bu xolda baxs guruxi shartli ravishda a'zolarga anik mavkellarini bayon kilingan xolda uchga bulinadi. Birinchi gurux – «fikrlarni jamlovchilar»-generatorlar guruxi deyiladi: ikkinchi-«tankidchilar» va uchinchi gurux-«fikrlarni tezlatuvchilar-katalizatorlar»deb ataladi. Xar bir ajratilgan guruxning uziga xos funksiyalari bor «generatorlar» urtaga tashlangan muammo yoki baxs mavzusi buyicha uzlaridagi barcha fikrlarni urtaga xolis tashlaydilar. Gurux a'zolaridan biri lider-ularni umumlashtirib bayon etadi. Sungra uyinga «tankidchilar»kirishadi. Ularning vazifasi – eshitgan fikrlariga tankidiy nukta nazardan ular ichidagi «magzini» va «puchak» fikrlarni saralash. Shundan keyn vaziyatga karab, yana suz «generatorlar»ga yoki «katalizatorlar»ga berilishi mumkin. Bildirilgan fikr va takliflarda mabodo xisobga olinmay kolgan jixatlar yoki nourin fikr bulsa yoki moxiyatan shu mavzuga alokador bulgan, lekin ikkala tomon xisobga olmagan biror jixat aniklansa, tomonlar dikkatini karatish, kerak bulsa baxsni davom ettirishga ruxsat berish va uni yakun kilish takozo kilinsa, ikkala guruxning uyiniga baxo bergan xolda munozarani tuxtatish –«katalizator»larning vazifasidir. Ular kupincha ikkala gurux uchun xolis arbitrlar – «xakamlar»rolini xam uynashlari mumkin.

Maktabda bir sinf doirasida yoki talabalar guruxida axlokiy-ma'naviy mavzuda baxs uyushtirganda, yukoridagi usulni kullash, imkoniyati bulsa, suxbatdoshlarni uchburchak-berk stol atrofiga tuplash mumkin. Demak baxslashuvchilarning fazoviy joylashishlari xam bu urinda ma'lum axamiyat kasb etadi. Katta guruxlarda baxs yoki munozara uyushtirilganda boshlovchining roli ayniksa kattadir. Chunki U xar bir guruxdagi

tortishuvlar va fikr almashinuvlarning boshida turmogi, kerak bulsa, ular faoliyatini maksadga muvoffik tarzda yunaltirib turmogi lozim. Kichik guruxdagidan farkli ularok, katta guruxlarda boshlovchi u yoki bu ichki guruxga yon bosmasligi yoki ularni uzining shaxsiy fikriga majburan ergashtirmasligi kerak. Aks xolda, u uzining faoliyati bilan boshkalar tashabbusiga salbiy ta'sir kursatishi va baxsning yunalishini buzib kuyishi mumkin. Shuning uchunkatta guruxlarda uyushtiriladigan munozaraning mavzusi oldindan tanlangan va unga boshlovchi ma'lum ma'noda tayyor bulishi shart.

Breynstroming va uni utkazish texnologiyasi.

Munozaralar yuritishning yana bir shakli borki, uning nomini rus tilida «mozgovaya ataka» inglizcha-«breynstroming» deb ataladi. Bizning tilimizda bu tushunchaning anik analogik tarjimai yuk, lekin uni «miyaga xujum» yoki «fikrlar tuknashuvi» deb atash mumkin. Metodning psixologik mohiyati shundaki oddiy munozarada baxslashuvchilar kuprok ongli, asosli fikrlarni bayon etishga xarakat kiladilar. Bunda esa baxslashuvchilarga miyaga kanday fikr kuyilib kelsa, uni tankidsiz va asoslamay erkin, «tilga nima kelsa» aytish imkoniyati beriladi. Bu narsa kuprok muammo ancha notanish, savol murakkab yoki noanik bulgan sharoitlarda kul keladi. Ya'ni, bunda «erkin assosiasialar»ga yul beriladi va oxir okibat guruxning uzi ma'lum rasional «magzni» ajratib oladi. Bu usulni birinchi marta Amerikalik olim A. Olborn 30- yillardayek taklif etgan va yirik loyixalarni rejalashtirish va oldindan uning natijalarini bashorat kilishda ma'lum yutuklarni kulga kiritgan edi. Lekin keynchalik mutaxassislar uni fakat nostandart, uziga xos yechimi bulgan vazifalarni muxokama kilgandagina kullash mumkin, degan fikrni bildira boshladilar. Birok tugri tashkil etilgan breynstromingning amaliy afzalliklari kup. Fakat bunda kuyidagi koidalarga rioya kilish kerak:

Jumlalar juda kiska bulishi kerak, lekin ularni asoslanishi shart emas.

Xar kanday jumla yoki fikr tankid kilinishi mumkin emas, ya'ni fikrlar tankiddan xolidir.

Mantikiy fikrdan kura, fantastik yoki kukkisdan, tasodifan miyada paydo bulgan fikr muximrok.

Fikr yoki bildirilgan kiska muloxaza kayd etiladi.

Bildirilgan fikr yoki goyalar u yoki bu ishtirokchiniki, deb ajratilmaydi, ya'ni ular-muallifsizdir.

Fikr yoki yaxshi goyalarni tanlash aloxida «tankidchilar» yoki guruxning norasmiy liderlari tomonidan amalga oshiriladi. Yukoridagi gurux katta bulganda baxs uyushtirishda xam generatorlarga ushbu usulda imkon berish tajribada yaxshi natijalar beradi.

Breynstroming, ayniksa 50-yillarda Amerika va Fransiya davlatlarida turli texnologik muammolarni xal kilishda keng kullanilgan va uning natijalari kuplab makola va kitoblarda umumlashtirilgan. Lekin ommaviy kullashda ayrim tortishuvlar paydo buldiki, ayniksa yoshlar auditoriyasida uni ishlatishdagi nokulaylik borligi anik edi. Ammo baribir, yukorida ta'kidlanganidek kishilarni faol ijtimoiy psixologik mulokotga tayerlash, nostandart muammolarni yechish va odamni umuman guruxga kuniktirish maksadida undan foydalanish mumkin va bu jixatdan kator afzalliklari va tadbikiy axamiyati mavjud.

Nazorat savollari:

Munozara usulini tadbik etgan psixologlarning faoliyati xakida nimalarni bilasiz?

Munozara usulining ijtimoiy psixologik axamiyatini kursating.

Munozara metodlarining asosiy vazifalarini kursating.

Munozaralarni tashkil etishda kanday koidalarga rioya etish zarur.

Breynstormingni utkazish texnologiyasi kanday?

MAVZU: BOSHQARUV PSIXOLOGIYASI

Reja.

1. Psixologiyada boshqarish muammosi.
2. Guruhlarda rahbarlik va liderlik.
3. Liderlikka oid nazariyalar.
Xarizmatik nazariya.
Vaziyatga bog'liqlik nazariyasi.
Sintetik nazariya.
4. Liderlik uslublari haqida tushuncha.
Avtoritar uslub.
Demokratik uslub.
Liberal uslub.
5. Rahbarlik sifatleri.
6. Liderlik va superliderlik.

Psixologiyada boshqaruv muammosi. Boshqarish muammosining ijtimoiy psixologiyaning maxsus bo'limi ekanligi. Guruhlarda rahbarlik va liderlik masalalari. B.Parigin bo'yicha lider va rahbar orasidagi tafovut va o'xshashliklar. Ijtimoiy xodisalarni boshqarishda liderlik faoliyatidan foydalanish qoidalari.

Liderlikning uchta nazariyasi. «Liderlik sifatleri» nazariyasi, uning mohiyati. Liderlikning vaziyatga bog'liqlik nazariyasi va uning g'oyasi. Liderlikning sintetik nazariyasi va unda guruhning roli. Liderlik usullari haqida tushuncha. Avtoritar rahbar va uning ish olib borish xususiyatlari. Demokratik rahbar va jamoani boshqarishdagi uning ta'sir usullari. Liberal rahbar va undagi ish olib borish tartiblari. G.Gibsh va M.Forverglar bo'yicha bu uchala toifa rahbarlarning jamoa psixologik muhitidagi o'rnolari masalasi.

Rahbarlik sifatleri (intellekt darajasi, mustaqillik, o'ziga ishonch, ziyolilik, rejallilik, kommunikativlilik va boshqa sifatler).

Psixologiyada boshqarish muammosi

Oxirgi yillarda inson omiliga e'tiborning ortib borishi munosabati bilan boshqarish psixologiyasi masalalariga ham qiziqish kuchaydi. Shu asosda ijtimoiy psixologiyaning maxsus bo'limi — boshqarish psixologiyasi paydo bo'ldi. Boshqarish psixologiyasi psixologiyaning shunday tarmog'iki, u boshqaruv faoliyati bilan bog'liq bo'lgan muammolarni, shaxs va shaxslar guruhi tomonidan boshqa guruhlar faoliyatini samarali tashkil etish va birgalikdagi faoliyatini amalga oshirishning psixologik mexanizmlarini o'rganadi.

Boshqarish muammolari ham bir qancha fanlar tomonidan o'rganiladi, jumladan, falsafa, tarix iqtisod, xuquqshunoslik va psixologiya uning o'ziga xos tomonlarini ochish bilan shug'ullanadi. Psixologiya boshqarishni ham obykti, ham subyektni o'rganadi. Psixologik tadqiqotlarda o'rganiladigan olimlar jamoasi, alohida shaxs, ularning psixologik holatlari, ulardagi ayrim jarayonlar va vazifalari boshqaruv obykti deb aytiladi. Boshqaruvning subyekti o'rganilganda esa odatda boshqaruvchi shaxs yoki odamlar guruhi nazarda tutiladi.

Psixologiya ko'proq boshqaruvchi shaxs faoliyatining psixologik asoslarini o'rganadi va shu asosda buysunuvchilar ishlarini samarali tashkil etish, aniq va to'g'ri qarorlar qabul qilish uchun qanday psixologik xolat va jarayonlarni o'zida tarbiyalash lozimligi kabi qator muammolarni yechadi. Masalan, konkret hayotiy sharoitlarda agar boshliq majlis olib borayotgan bo'lsa, har bir so'zga chiquvchilarning fikrlari, ma'ruzalari va hokazolar orqali ularning psixologik holatlari aniqlanadi, yangi ish dasturlari ishlab chiqariladi, qabul qilingan qarorlarga ko'ra boshliqning va xodimlarning har biriga alohida ilmiy ko'rsatmalar va maslahatlar beriladi.

Boshqaruv psixologiyasi boshliq faoliyatini analiz qilganda asosiy diqqatni boshqarish uning ehtiyoji yoki qobiliyatlariga mos yoki mos emasligi, qaysi individual xususiyatlariga ko'ra u boshliq darajasiga ko'tarildi, ishni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun u boshqaruvning qay usullaridan foydalanyapti, xodimlarga psixologik ta'sir ko'rsatish maqsadida u qanday ta'sir uslublarini qo'llayapti kabi qator masalalarga qaratadi. Boshliq bo'lish ishiga turli shaxslarning munosabatlari har xil, chunki kimdir boshliqda bo'lgan imtiyozlarga beriladi, kim uchundir unga berilajak huquqlarni afzal ko'rish xos, kimgadir yuksak mas'uliyatlarni bo'yinga olish ma'qul keladi. Shaxslarning boshliq funksiyalari haqidagi tasavvurlari qanchalik xilma-xil bo'lmasin, boshliqdan real sharoitlarda odamlar guruhini aniq maqsad asosida faoliyatga yo'llash, ularga bosh bo'lish, turli tadbirlarni amalga oshirish, obro'ga ega bo'lish, har bir qilingan ish uchun javobgarlikni o'z buyniga olish kabi ko'plab sifatlarning mujassam bo'lishi talab qilinadi.

Ayniqsa boshliq uchun turli guruhlardagi, ko'p holda bir boshliq uchun bir vaqtning o'zida bir qancha guruhlardagi shaxslararo munosabatlarning xarakteriga javobgar bo'lish qiyinchiliklar turdiradi, chunki o'sha guruhlarini tashkil etgan har bir shaxsning o'ziga xos individualligi, boshqaruvchi haqidagi ular tasavvurining har xilligi va guruhlarda norasmiy liderlarning borligi boshliqdan odamlar bilan ishlash borasida ham tajribaning, ham psixologik fahm-farosatning va sabr-qanoatning bo'lishini talab qiladi. Shuning uchun ham kundalik hayotimizda, ham ilmiy adabiyotlarda tez-tez yonma-yon ishlatiladigan "lider" va "boshliq" tushunchalarining psixologik mazmunlarini analiz qilib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Guruhlarda rahbarlik va liderlik

Guruhlardagi o'zaro munosabatlar yuqoridan pastga yoki aksincha bo'lib, guruh a'zolarining konkret mavqeylari, boshliq bilan bo'ysunuvchilar o'rtasidagi munosabatlarni o'z ichiga oladi. Bu borada "lider" va "boshliq" tushunchalari o'rtasidagi farqlar haqida gapirish lozim. B.D. Parigin bu ikki tushunani farqlab shunday yozadi:

- 1) lider asosan guruxdagi shaxslararo munosabatlarni boshqarsa, rahbar — shu guruhdagi rasmiy munosabatlarni boshqaradi;
- 2) liderlik kichik guruhlargagina xos bo'lgan hodisa bo'lsa, rahbarlikning haq-xuquqlari katta guruhlar doirasida ham sodir bo'lishi, amalga oshirilishi mumkin;
- 3) agar liderlik stixiyali, betartib jarayon bo'lsa, rahbarlik maqsadga qaratilgan, jamiyatda ishlab chiqilgan normalar, tartiblar asosida saylovlar oqibatida sodir bo'ladigan hodisadir;
- 4) liderlik rahbarlikka nisbatan vaqtinchalik hodisa bo'lib, guruh a'zolarining kutishlari, ularning kayfiyatlari, faoliyat yunalishiga qarab, uzoqroq muddatda yoki qisqa muddatda ro'y beradi;
- 5) rahbarning liderdan farqi yana shundaki, u liderda yo'q bo'lgan jazolash va ragbatlantirish tizimiga ega bo'lib, shu asosda o'z xodimlariga ta'sirini o'tkazishi mumkin;

6) lider guruhda u yoki bu qarorlar, ko'rsatmalar, tashabbuslarni o'z ixtiyoricha, bevosita chiqarishi mumkin, rahbarda esa bu yo'nalishda ko'plab rasmiy ko'rsatmalar, rejalar, normalar, buyruqlar mavjudki, ular doirasidan chiqib ketishi kiyin;

7) liderning faoliyati faqat kichik guruhlar doirasida amalga oshirilsa, rahbar shu guruhdagi, kengroq ijtimoiy doiradagi, jamiyatdagi vakili bo'lganligi uchun, uning vakolatlari ham keng, faoliyat imkoniyatlari ham ortiqdir.

Lider hyech qachon yolg'iz bo'lmaydi, u doimo guruh a'zolari orasida bo'ladi, u shu guruh a'zolarini u yoki bu harakatlarga chorlaydi. Chunki lider guruh a'zolarining psixologiyasi, ularning kayfiyatlari, intilishlari, qiziqishlari va hokazolarni hammadan ham yaxshi biladi, ular ichida eng tashabbuskoridir. Agar sinf doirasida olib qaraladigan bo'lsa, turli xil lider borligini aniqlash mumkin. Masalan, guruh a'zolari ichida eng bilag'oni, aql o'rgatuvchisi, topqiri, intellektual lideri, bolalar ichida eng hazilkashi, dilkashi, xushchaqchag'i, ko'ngil so'rovchisi, o'zgalarni tushuna oladigan — emosional lider, guruhni ish faoliyatga chorlay oladigan, dadil, qatiyatli, irodali-irodaviy liderlar bo'lishi mumkin. Ular ayni vaziyatlarda vaziyat talabiga ko'ra paydo bo'ladilar hamda bolalar ongida o'z sifatlariga ko'ra obro' qozonadilar. Lider sifatleri ichida yaxshi va yomonlari ham bo'lishi mumkin, lekin guruh liderga ergashganda, uni ibrat sifatida tanqidsiz qabul qiladi va shuning uchun ham barcha ishlariga ergashib, ko'rsatmalariga amal qiladi. Maktabda bolalar yoshida xulqi maktab normalariga to'g'ri kelmaydigan liderlarning borligi, ular ma'lum guruh ichida so'zsiz obro'ga ega ekanligi ham shu bilan tushuntiriladi. Masalan, lider "ketdik" deb ko'rsatma bersa, unga ergashganlarning darsni ham tashlab keta olishi shu bilan tushuntiriladi.

Shuning uchun ham sinf rahbari o'z sinfidagi rasmiy liderlar bilan ishlash bilan cheklanmaydi, balki norismiy liderlarni ham aniqlay bilishi, ular bilan hamkorlikda ishlashi zarur. To'g'ri, ba'zi hollarda rasmiy va norasmiy lider bir shaxs bo'lishi ham mumkin. Bu juda qulay, lekin liderlik vaziyatga bog'liq bo'lgani uchun ham ularning o'zgarib turishini hisobga oladigan bo'lsak o'qituvchining boshqarish maxorati yoki san'ati uning norasmiy liderlar bilan samarali ishlash usulidir.

Shunday qilib, har qanday lider obro'ga ega. Obro'lilik shaxsning shunday xususiyatiki, u boshqa shaxslarga ham hissiy-emosional, ham irodaviy ta'sir ko'rsata olish qobiliyatiga egadir. Norasmiy obro'lilik ya'ni shaxslararo munosabatlar mahsuli sifatida orttirilgan obro' juda samaralidir. Odamlar ko'ngliga yo'l topish, ularni turli vaziyatlarda tushuna olish, ishonch va shunga o'xshashlar obro' orttirish mezonlaridandir.

Liderlikka oid nazariyalar

Liderlik hodisasi to'g'risida gap ketar ekan, liderlik nazariyalari xaqida ham qisqacha to'xtalib o'tish o'rinlidir. Hozirgi kunga qadar liderlik to'g'risida asosan uchta nazariya mavjud:

Xarizmatik nazariya;

vaziyatga bog'liqlik nazariyasi;

sintetik nazariya.

Xarizmatik nazariya

Birinchisi "liderlik sifatleri nazariyasi"dir yoki xarizmatik nazariya. Uning mohiyati shuki, hamma ham lider bula olmaydi, ayrim shaxslarda shunday sifatlar yig'indisi tug'ma mavjud bo'lib, ular uning guruhda lider bo'lishini ta'minlaydi. Masalan, 1940 yilda amerikalik K. Berd 79 sifatdan iborat bo'lgan liderlik qirralari ro'yxatini tuzdi. Bu ro'yxatda jumladan tashabbuskorlik muloqotga kirisha olish, yumor hissi, o'ziga ishonch, tez va aniq qarorlar qabul kila olish, tashkilotchilik kabi sifatlar bor edi. Lekin bu nazariyaning xatoligi shunda ediki, birinchidan, u yuqoridagi sifatlar qanday qilib namoyon bo'ladi-yu, qanday

shakllanishini tushuntirib bera olmadi, ikkinchidan, so'roqlar mobaynida birorta sifat ham mutlaq ko'p marta qayd etilmadi.

Vaziyatga bog'liqlik nazariyasi

Ikkinchi nazariya liderlikning vaziyatga bog'liqligi nazariyasidir. Bu yerdagi asosiy g'oya — lider vaziyatning mahsuli degan g'oyadir. Har bir odamda liderlik sifatlari bor, lekin ayrim vaziyatlar ayrim shaxslarning o'zlarini ko'rsatishlari, lider bo'lishlari uchun qulay hisoblanadi.

Sintetik nazariya

Yuqoridagi ikki nazariyani tanqid qilish natijasida paydo bo'lgan uchinchi nazariya liderlikning sintetik nazariyasidir. Bu nazariya liderni guruhliy munosabatlarning bevosita mahsuli deb qaraydi, liderning ruyobga chiqishida guruhning birlamchi rolini ilgari suradi. Psixolog A.N. Leontyevning faoliyat konsepsiyasiga tayangan holda, liderlikni faoliyat mahsuli, guruhning ushbu faoliyatga munosabati va guruhda qabul qilingan normalar va ijtimoiy kutishlarga kim ko'proq javob berishiga qarab liderni aniqlash mumkin. Ijtimoiy kutishlar nazariyasi hozirda ko'pchilik tomonidan ma'qul yondashishlardan biri deb qabul qilinmoqda.

Liderlik uslublari haqida tushuncha

Har bir lider yoki boshliq o'zicha individual va qaytarilmasdir. Buning boisi har bir boshliq o'z ish faoliyatini, boshqaruv faoliyatini o'ziga xos tarzda tashkil etishidadir.

Ijtimoiy psixologiyada boshqaruv sohasida batafsil o'rganilgan muammolardan biri — turli boshqaruv uslublaridir. Bu sohada nemis olimlari G.Gibsh va M. Forverg, rus olimlari V.D. Parigin, L.N. Umanskiy, M.Yu. Jukov va boshqalarning ishlari ayniqsa diqqatga sazovordir. Barcha ilmiy tadqiqotlarni umumlashtirgan holda ijtimoiy psixologiyada qabul kilingan uch asosiy boshqarish uslublariga harakteristika berib chiqamiz. Bu uch uslub:

Avtoritar;

Demokratik;

Liberal ish uslublaridir.

Avtoritar uslub

Avtoritar rahbar barcha ko'rsatmalarni ishchanlik ruhida, aniq-ravshan, keskin ohangda xodimlarga yetkazadi. Muloqot jarayonida ham xodimlarga nisbatan do'q-po'pisa, keskin ta'qiklash kabi qat'iy ohanglardan foydalanadi. Uning asosiy maqsadlaridan biri — nima yo'l bilan bo'lsa-da, o'z hukmini o'tkazish. Uning nutqi ham aniq va ravon doimo jiddiy tusda bo'ladi. Biror ish yuzasidan xodimlarni maqtash yoki ularga jazo berish, tanqid qilish sof subyektiv bo'lib, bu narsa boshliqning kayfiyatiga va o'sha shaxslarga nisbatan shaxsiy munosabatiga bog'liq. Jamoa a'zolarining tilak-istaklari, ularning fikrlari va maslahatlari juda kam xollardagina inobatga olinadi, aksariyat hollarda bunday istaklar yoki ko'rsatmalar to'g'ridan-to'g'ri do'q-po'pisa, kamsitish yoki ma'naviy jazolash yo'li bilan cheklanadi yoki qoniqtirilmaydi. Bunday rahbar o'z ish uslublari, kelajak rejalari, biror aniq ishni, operatsiyani qanday amalga oshirmoqchiligini odatda, jamoadan sir tutadi, uning fikricha, bu uning obro'yiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Guruhdagi ijtimoiy-fazoviy munosabatlardagi o'rni jihatidan, u "jamoadan chetda", avtonomdir.

Avtoritar rahbarda har bir jamoa a'zolarining qobiliyatlari, ishga munosabatlari, mavqyellariga ko'ra tutgan o'rinlari haqida tasavvurlar borki, shunga ko'ra u har bir xodimning ish harakatlarini maksimal tarzda dasturlashtirib qo'ygan, unda har qanday

cheklashlar uning ochiq g'azabini keltiradi va buning uchun unda jazolashning turli uslublari mavjud. Ya'ni bunday jamoalarda hokimiyat — markazlashtirilgan, jamoa rahbari ushbu markazning yakka hokimi — shuning uchun ham bu yerda "mening odamlarim", "mening ishim", "mening fikrim bo'yicha" kabi iboralar tez-tez ishlatiladi. Bunday rahbarlarda ishiga nisbatan shunday fidoiylilik borki, ular o'zlarini shu ishsiz tasavvur qila olmaydilar, ya'ni ish uning "butun vujudini qamrab olgan". Shu sabab bo'lsa kerak bunday rahbar har bir odamni uning kundalik ish faoliyatini, uning natijalarini juda yaxshi biladi. Lekin, aslida, uni ishning mazmunidan ko'ra, uning o'sha yerdagi yetakchilik roli, boshliqligi ko'proq qiziqtiradi va o'ziga o'sha sifatlariga qarab baho beradi. Bu sifat, tabiiyki, ishning sifatiga ham ta'sir qilgani uchun jamoa oldiga qo'yilgan barcha topshiriqlar bajarilmay qolmaydi ("temir rahbar"). Bunday jamoalarda tanqid ishi juda sust, chunki u o'zini ham, boshqalarni ham tanqid qilishlariga yo'l qo'ymaydi. Tanqid qilishga, uning fikricha, faqat boshliq haqli, yig'ilishlarda so'zni o'zi boshlab, tashabbusni oxirigacha boshqalarga bermaydi, odamlarning takliflari, ularning hissiyotlari e'tiborga olinmaydi.

G. Gibsh va M. Forverglarning tahlil qilishlaricha, avtoritar lider bosh bo'lgan jamoada ishlarning samaradorligi ancha yuqori bo'lib, ishlab chiqarish ko'rsatkichlari ham yuqori bo'lar ekan. Lekin jamoadagi ruhiy-ma'naviy muhit og'ir, tang bo'lib, bu narsa odamlarning jamoadan, ishdan qoniqmasliklariga olib keladi. Bunday rahbarlar boshchilik qilgan mehnat jamoalarida ishlaydigan odamlar o'z kasblari, ish joylarini osonlikcha almashtirishlari mumkin.

Demokratik uslub

Demokratik rahbar, aksincha, bo'ysunuvchilarga mustaqillik erk berish tarafdori. Ishda topshiriqlar berganda ishchilarning shaxsiy qobiliyatlarini hisobga olgan holda taqsimlaydi. Bunda u xodimlarning shaxsiy moyilliklarini ham hisobga oladi. Buyruq yoki topshiriqlar, odatda, taklif ma'nosida beriladi. Nutqi oddiy, doimo osoyishta, sokin, unda o'rtoqlarcha, do'stona munosabat sezilib turadi. Biror kishini maqtash, uning lavozimini oshirish yoki ishdagi kamchilikka ko'ra ishiga baho berish doimo jamoa a'zolarining fikri bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi. Tanqid, ko'pincha taklif, istak shaklida qilingan ishlarning mazmuniga baho berish holida "aybdorga" yetkaziladi. Har bir yangi ish jamoa maslahatisiz boshlanmaydi. Shuning uchun ham uning fazoviy-ijtimoiy holati "jamoada ichida".

Jamoada tanqid va o'z-o'zini tanqid shunday yo'lga qo'yilganki, uning oqibatidan hech kim aziyat chekmaydi. Chunki ko'prok boshliq emas, balki jamoaning boshqa faollari — norasmiy liderlar tanqid qiladilar. Boshliq yo'l qo'ygan xato-kamchiliklarni jamoatchilik oldida bo'yniga olishdan qo'rqmaydi. Chunki undagi mas'uliyat hissi nafaqat yuqori boshqaruv tashkilotlari a'zolari bilan muloqot paytida, balki, xodimlar bilan muloqotda ham sezilib turadi va qo'yilgan topshiriq yuzasidan mas'uliyatni boshqalarga ham bo'lib berishni yaxshi ko'radi. Boshliqning xodimlaridan siri yo'q, shuning uchun ham majlislarda ko'proq u emas, balki barcha xodimlar gapiradilar, oxirgi qaror chiqarish va so'zlarni yakunlash, umumlashtirish huquqidan u to'liq foydalanadi.

Gibsh va Forverglarning tahlillariga ko'ra, bunday boshliq rahbarlik qilgan jamoalarda ma'naviy-ruhiy muhit juda yaxshi, ishchilar jamoadan, ishdan qoniqish hosil qilganlar, ishdan ketish hollari kam bo'ladi, lekin ishlab chiqarish zo'rg'a norma holatida bo'lar ekan.

Liberal uslub

Liberal (loqayd) uslubda ishlaydigan rahbarning kayfiyatini, ishga munosabatini, ishdan mamnun yoki mamnun emasligini bilish qiyin. Unda taqiqlash, po'pisa bo'lmaydi, uning o'rniga ko'pincha ishning oxirgi oqibati bilan tanishish bilan cheklanadi, xolos. Jamoada

hamkorlik yo'q boshliq jamoaning muammolari, ishning baland-pasti bilan qiziqmaydiganday, go'yoki boshqa "koinotda" yurganga o'xshaydi. Aniq ko'rsatmalar bermaydi, uning o'rniga norasmiy liderlar yoki o'ziga yaqin kishilar orqali qilinishi lozim bo'lgan topshiriqlar bajaruvchilarga yetkaziladi. Uning asosiy vazifasi, uning nazarida, xodimlar uchun ish sharoitini yaratish, ishdagi kamchiliklarni bartaraf etish, kerakli mahsulot, xom-ashyo kabilarni topib kelish, majlislarda qatnashish va hokazolardan iborat.

Xodimlar bilan muloqotda bo'lishga to'g'ri kelganda, u doimo xushmuomala bo'lib, odob, ahlok normalarini buzmaslikka harakat qiladi, lekin hych qachon ular bilan tortishmaydi. Majlislarda agar biror muammo munozarani keltirib chiqarsa, u bevosita jarayonga aralashmay, oxirgi so'zni o'ziga qoldiradi. Shunday qilib, xodimlarga fikrlash va hatti-harakatlar erkinligi berib qo'yilgan, bular yuzasidan boshliqning fikri so'ralgan taqdirda ham, undan aniq gap chiqmaydi, chunki u xodimlarni yaxshi bilmaydi, qolaversa, ularni xafa qilib qo'yishdan qo'rqadi. Uning fazoviy-psixologik holati "guruh tashqarisida". Olimlar fikricha, bunday rahbar ishni olib borgan jamoalarda barcha ko'rsatkichlar doimo orqada, qo'nim ham yo'q. Liberal rahbar ishda o'zboshimchalikka yo'l qo'yib, ko'p turmay, boshqa yerdan ish qidirishga harakat qiladi.

Yuqorida baho berilgan boshqarish uslublari ko'proq liderlikka emas, balki rahbarlikka taalluqli, lekin ilmiy adabiyotlarda bu ikkala ibora, ko'pincha sinonimday ishlatiladi. Aslida, eng yaxshi rahbar o'zida barcha liderlik sifatlarini ham mujassamlashtirgan bo'ladi. Chunki sof ijtimoiy psixologik ma'nodagi liderning turlari turli sharoitlarda o'zida ko'proq namoyon etadigan shaxsiy sifatlariga ko'ra tabaqalanadi. Masalan, lider-tashkilotchi, lider-tashabbuskor, lider-erudit, jamoa hissiy-emosional holatni boshqaruvchi lider, lider-bilag'on va hokazo. Yaxshi rahbar ana shu lider sifatlarini bilgan holda, ularni o'zida tarbiyalashi va jamoasidagi liderlar bilan hamkorlikda ishlay olishi kerak. Oxirgi yillarda Moskva va boshqa yirik ilmiy markazlarda o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida shunday xulosaga kelindiki, aslida hayotda sof demokrat yoki sof avtoritar rahbarni uchratish qiyin, lekin uchragan paytda ham ular bir jamoani uzoq muddat boshqara olmasligi ma'lum buldi. Shuning uchun ham ular vaziyatga bog'liq, konkret jamoa, unda qabul qilingan hatgi-harakat normalari, shaxslararo munosabatlar tipi liderning ham, rahbarning ham ish taktikasi va uslubini belgilaydi, degan g'oya qabul qilinmoqda. Lekin bu rahbarlik uslublarining psixologik mazmun va mohiyatini bilishning amaliy ahamiyati shundaki, har bir uslubda o'ziga xos ijobiy tomon bor, mohir rahbar o'zini-o'zi tarbiyalar ekan, o'shalarining eng ma'quli, ayniqsa o'zi rahbarlik qilayotgan jamoaga moslarini tarbiyalashi maqsadga muvofiqdir.

Rahbarlik sifatleri

Yuqorida aytib o'tilganidek rahbarda tug'ma qobiliyat bo'ladi deb ham aytib bo'lmaydi, ikkinchi tomondan, rahbar vaziyatga qarab stixiyali tarzda tarbiyalanib ketaveradi, deb ham bo'lmaydi. Minglab shaxs sifatleri ichida ko'plari rahbarlik uchun qulay va ma'quldir. A.V. Petrovskiy ana shunday ijobiy sifatlardan bir yarim mingini sanab chiqqan. Lekin ularning barchasini umumlashtiradigan, albatta bo'lishi lozim bo'lgan ayrim sifat, qobiliyatlari borki, ular haqida qisqacha to'xtalib o'tmoq lozim.

Avvalo, har qanday rahbarda intellekt — aql-zakovatning ma'lum normasi bo'lishi kerak. Bu norma yaxshi rahbar uchun o'rtadan yuqori bo'lmog'i maqsadga muvofiqdir, chunki geniy darajasidagi intellektga ega bo'lgan rahbar bilan ishlash xodimlar uchun qator noqulayliklarni keltirib chiqarishini, bunday aql-zakovat qolganlarning ijobiy rivojlanishiga psixologik to'siq bo'lishini amaliyot va hayot ko'rsatdi. Rahbardagi o'rtadan yuqori

intellektni qoplab ketadigan yana boshqa muhim sifatlar borki, ular boshqarish ishining samarasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Masalan, rahbarning mustaqil fikrlilik, topqirlik, tashabbuskorlik sifatлари. Chunki, ayrim hollarda xato qilsa ham, rahbar original fikrlar aytib, yo'l-yo'riqlar ko'rsata olishi, har bir aytilgan fikr, qilingan ishga mustaqil baho bera olishi zarur.

Chunki mustaqillik shaxs qiyofasini belgilovchi muhim psixologik xususiyatdir.

Rahbarda mustaqillik bo'lsa, unda o'ziga ishonch ham bo'ladi, bu esa o'z navbatida rahbardagi subyektiv talablar darajasining yuqori bo'lishiga olib keladi. Ko'pincha, rahbarning boshqalarga talabchanligi haqida gapiriladi, lekin yaxshi rahbar avvalo o'z-o'ziga nisbatan talabchan bo'lishi kerak. O'z-o'zini baholash va shu asosda boshqalarga nisbatan munosabatlar tizimini ishlab chiqishi muhim bir omildir.

Har qanday rahbar uchun universal, kerak bo'lgan hislatlardan yana biri tom ma'noda "ziyoli" bo'lish yoki, boshqacha qilib aytganda, madaniyatli bo'lishdir. Boshliq o'zidagi madaniyatni avvalo muomalada, odamlar bilan bo'ladigan kundalik muloqotlarda namoyon etmog'i lozim. Muomala madaniyati — bu o'rinli, aniq, qiska, samimiy gapirish san'ati va ikkinchi tomondan, suhbatdoshni tinglash qobiliyatidir. Chunki, boshliq bilan xodimlar o'rtasida kelib chiqadigan shaxsiy ziddiyatlarning asosida yo tinglay olmaslik yoki gapni to'g'ri yo'sinda gapira olmaslik yotadi. O'zganing o'rniga tura olish, uning hiskechinmalariga sherik bo'lish, empatiya hissining borligi, dialoglarda sabr-toqatlilik va boshqalar muloqot madaniyatining muhim tomonlaridir.

Jamoa faoliyatini va o'z faoliyatini rejalashtirish qobiliyati rahbar uchun muhim bo'lgan talablardan biridir. Chunki rejalashtirish asosida o'z-o'zini boshqara olish va boshqalarni tashqi faoliyatini maqsadga muvofiq tarzda boshqara olishni ta'minlovchi muhim psixologik xususiyat yotadi. Rejalashtirish — bu o'ziga xos kelajakni ko'ra olish kobiliyati, kelajak obrazi bo'lib, bu narsa shaxsning qanchalik kamol topganligi va maqsadga intiluvchanligining muhim belgisidir. Bu juda murakkab psixologik jarayon bo'lib, u shaxsning o'z diqqatini qanchalik omilona tarzda boshqarishi, uni faqat muhim narsalarga qarata olishi, vaqtdan tez foydalana olish, ortiqcha ishlardan o'zini tiyish, qo'l ostidagilarga, imkoni boricha, ularning qobiliyatlariga qarab ish buyura olish va nihoyat, buyurgan ishni o'z vaqtida nazorat qilib, so'rab olish imkoniyati bilan bog'liq. O'z ishini puxta rejalashtirish qobiliyatiga ega bo'lgan rahbar realistik tafakkurga ega bo'lmog'i, ya'ni har qanday sharoitlarda ham o'sha muammo yoki ishga taalluqli barcha alternativ variantlardan eng to'g'risi va maqsadga muvofiqini tanlay oladigan, ishni to'g'ri tashkil eta bilgan, ya'ni eng kam kuch va vaqt sarflab ishni uddalay olgan, noaniq yoki tasodifiy vaziyatlarda ham ish taktikasini to'g'ri yo'lga yo'naltira oladigan odam bo'lishi kerak. Bundan tashqari, yaxshi rahbar uchun oldida turgan ishning har bir alohida detallarigacha tasavvur qilib, uni amalga oshirishning barcha bosqichlari va vositalarini oldindan ko'ra bilish qobiliyati ham zarur. Shunday taqdirdagina u ishga dadil kirishishi, o'zgalarni o'z ortidan ergashtirishi va ishlab chiqarishda yuksak ko'rsatkichlarga erishishi mumkin.

Yuqorida aytib o'tilgan rahbarlik sifatleri ichida eng muhimi, tabiiyki, psixologik mahoratni talab etgani — odamlar bilan ishlash mahoratidir. Jamoa a'zolari bilan samarali ishlash uchun esa boshliq ularning psixologiyasini, har bir a'zo psixologiyasini va guruh psixologiyasini yaxshi bilishi zarur, chunki "o'zgalar psixologiyasini bilish ular ustidan hukmronlikning yagona yo'lidir", — deb yozishgan edi ingliz olimlari. Ijtimoiy psixologiyaning bu borada ham yaxshi vositasi — ijtimoiy psixologik trening uslubi borki, uning yordamida odamlar bilan ishlovchilar jamoani boshqarishning turli usullariga muvaffaqiyatli tarzda tayyorlanmoqdalar.

Rahbarning professional muhim sifatlari masalasi oxirgi yillarda mutaxassislar va amaliyotchilarniko'proq qiziqtirmoqda. Bir guruh olimlar amerikalik hamda yaponiyalik rahbarlar faoliyatini o'rganib, ularga xos bo'lgan eng muhim sifatlarning bloklarini ajratganlar. 1500 ta amerikalik menedjer va 41 ta yirik Yaponiya firmalari rahbarlarining sifatlari quyidagicha tabaqalandi:

A. Konseptual qobiliyat va xulq-atvor standartlari:

dunyoqarashning kengligi, global yondashuv;

uzoqni ko'ra bilish va egiluvchanlik;

tashabbuskorlik va dadillik, tavakkalchilikka moyillik;

muntazam o'z ustida ishlash va uzluksiz o'qish.

B. Shaxsiy sifatlar:

maqsad va yrnalishlarni aniq belgilash;

o'zgalar fikrini tinglash qobiliyati;

xolislik, samimiyat va bag'rikenglik;

adolatli qarorlar chiqarish orqali xodimlarni joy-joyiga qo'yish, ular imkoniyatlaridan to'la foydalanish;

shaxsiy yoqimtoylik;

jamoatashkil etish va unda uyg'un muhitni ushlab tura olish qobiliyati.

V. Salomatlik.

Lekin barcha o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida shu narsa ayon bo'ldiki, amerikalik rahbarlar ko'proq xodimlarning shaxsiy-individual tashabbuslar ko'rsatishlariga imkon beruvchi muhitning bo'lishi tarafdorlari bo'lsalar, yaponiyaliklar - xodimlarning hamkorlikdagi faoliyatlari samarasini oshiruvchi sharoitlarni yaratishga e'tibor beradilar.

Shuning uchun ham rahbarlik sifatlari xaqida gap ketganda, shaxsning bir qator bilimdonliklari nazarda tutiladi.

1. Professional bilimdonlik - o'zi boshqarayotgan soha faoliyatini mukammal yo'lga quyish uchun o'sha faoliyat borasida to'la ma'lumotlar, bilim va malakalarga ega bo'lishlikdir.

2. Uslubiy bilimdonlik - bilgan narsalari, shaxsiy malaka va ko'nikmalari, turli loyixalar xususidagi ma'lumotlar, topshiriqlarni tez, to'g'ri va tushunarli tarzda xodimlarga yetkaza olish qobiliyati.

3. Ijtimoiy psixologik bilimdonlik - odamlar bilan ishlash, ular bilan til topisha olish, jamoani uyushtira olish, uni yaxshi ishlashga safarbar qila olish, o'zidagi liderlik sifatlarini to'la namoyon eta bilish qobiliyati. Bu tushuncha ko'pincha "kommunikativ bilimdonlik" tushunchasi bilan sinonim sifatida ham ishlatiladi.

50-chi yillardan boshlab o'tkazilgan tadqiqotlarda xar qanday faoliyatda ham muvaffaqiyatni ta'minlovchi sifatlarning yuzlab xillarini aniqlandi. Lekin ularni umumlashtirilganda, 5% sifatlarga barcha tadqiqotlarda muhim, deb e'tirof etildi. Ularning orasida eng ko'p marta takrorlanganlari: a) intellekt (odamning murakkab va mavhum muammolarni yecha olish qobiliyati, u o'ta yuqori bo'lmasligi, aksincha, o'rtachadan yuqori bo'lishi kerakligi e'tirof etildi); b) tashabbuskorlik (yangicha ishlash va harakatlarga ehtiyojni anglash qobiliyati va shunga mos motivlar) kiradi.

RAHBARLIKA LOYIQLIK MEZONLARI ASOSIDA LIDERLIKNING VAZIFALARI:

lider - ma'mur;

lider - rejalashtiruvchi;

lider - siyosatchi;

lider - baholovchi ekspert;

lider - jamoning vakolatli vakili;

lider - rag'batlantirish va jazolash tashabbuskori;

lider - hukm chiqaruvchi va yarashtiruvchi;
lider - namuna “Ota”;
lider - jamoaning ramzi - referent;
lider - individual mas’ullikni cheklovchi;
lider - dunyoqarashlar shakllantiruvchi;
lider - “Balogardon”.

Liderlik va superliderlik

Amerikalik tadqiqotchi Linda Djuell o’zining «Industrialno-organizatsionnaya psixologiya» (2001 yil) kitobida ijtimoiy psixologik xodisalardan muhimi bo’lmish liderlik masalasiga o’zining o’ziga xos yondashuvini bayon etgan. U bu muammoni aynan bizning sharoitimizdagi talqini, ya’ni mardlik va jasorat ko’rsatish uchun ochiq maydonlar yo’q bo’lgan sharoitda liderlik xislatlarining namoyon bo’lish xususiyatlarini ochishga urinadi. Uning fikricha, zamonaviy ishlab chiqarishning samaradorligi eng avvalo xodimlar rolini oshirib, liderlarnikini aksincha, pastlashtirish, yoki aniqrog’i, kamaytirish hisobiga ro’y beradi. Shundagina rahbarlikda ortiqcha bo’g’inlarni kamaytirish mumkin. Liderning, ya’ni amerikaliklar rahbari lider fenomeni doirasida tasavvur qilishadi, vazifasi – guruhning samarali faoliyat ko’rsatish yo’llarini belgilab berishdir.

Bu kitobda ijtimoiy psixologik nuqtai nazardan ahamiyatli bo’lgan tushunchadan biri bu – «superlider» tushunchasidir. Superlider kim va qachon oddiy lider superga aylanadi? Amerikalik tadqiqotchilar Mans va Simslarning fikricha, eng yaxshi lider – bu «superliderdir». Bu shunday shaxski, u o’z xodimlarining aksariyatini liderlarga, birinchi navbatda o’zlari uchun liderlarga aylantira oladi. Bundagi asosiy g’oya shundan iboratki, agar odam eng avvalo o’zi uchun lider bo’la olsa, o’zidagi bu malaka yoki mahoratni boshqalarga yetkaza olsagina, bu odam uchun shunday vaqt-saot yetib keladiki, jamoa o’zi mustaqil ishlaydigan, bevosita tepasida turib boshqarib turadigan insonga muhtoj bo’lmagan mexanizmga aylanadi. Bu – superliderlikdir.

Oddiy rahbar yoki liderning superliderga aylanishi bir necha bosqichlarda kechadi (pr.):

I – o’zi uchun lider bo’lish, ya’ni shaxsiy maqsad va maslaklar, o’zini o’zi kuzatish, o’zini o’zi rag’batlantirish, hayoliy repitisiyalar va kognitiv tahlillar orqali o’zining mustaqil inson, shaxs ekanligini, o’zida boshqalarga o’rnak bo’luvchi sifatlar borligini anglash;

II – yuqorida qayd etilgan sifatlarning afzalliklarini o’zgalarga namoyish etib, uning afzalliklariga ishonтира olish;


III – xodimlariga o’zlarida tashabbus va o’ziga ishonchni namoyon etish uchun sharoit yaratish;

IV – mustaqil qobiliyat egalari bo’lgan xodimlarni rag’batlantirish, kerak bo’lganda, faqat konstruktiv tanbehlar berish;

V – o’z-o’zini boshqarishga asoslangan ijtimoiy faoliyatni tashkil etish va ishlarga xadeb aralashaverishdan o’zini tiyish.

Demak, samarali boshqaruv – aslida ijtimoiy ta’sirni amalga oshirishning eng namoyishkorona ko’rinishidir. Shu ma’noda, liderlik – avval shaxsning o’ziga, so’ngra o’zgalarga bera oladigan ta’sirida ko’rinadigan fazilatlar majmuidir, deb ta’riflanadi.

RAHBARGA ZARUR BO’LGAN TO’RTTA “T”



Rahbarga zarur bilimdonlik qirralari:


3. Ijtimoiy

- | |
|--|
| <ol style="list-style-type: none">1.Профессионал билимдонлик2. Услужий билимдонлик3. Ижтимоий билимдонлик. |
|--|


Mavzu yuzasidan qisqacha xulosa:

Mazkur mavzuda ijtimoiy psixologiyada boshqaruv va rahbarlik muammosining qo'yilishi, rahbarlikka oid nazariyalar (xarizmatik, vaziyatga bog'liqlik, sintetik), rahbar va lider orasidagi o'xshashlik va tafovutlar, ularning vakolat darajalari, rahbarlik uslublari (avtoritar, demokratik, liberal) to'g'risida atroflicha bilim va tushunchalar berilgan.

Раҳбарлик фаолиятининг диагностик хусусиятлари



1. Раҳбар туб маънода реалист бўлиши, яъни унинг барча ҳаракатлари корхона манфаатларига мос келиб, унга фойда келтиришини тасаввур қилиши лозим;
2. Раҳбарнинг умуман одамлар ҳақида қандай тасаввурда эканлиги, улар тўғрисида нима деб ўйлаши, бу борадаги билимлари жуда муҳим;
3. Ҳар қандай нарсани йўл - йўлакай, қийинчиликсиз идрок қила олиши муҳим қобилият эканлиги;
4. Ўзгалар фаолияти ва жамоани яхлит тарзда бошқара олиш ҳамда бажараётган ишни биргаликда ҳамма қатори амалга оширишга тайёр бўлиши лозим.
5. Жамоа ва унинг ташқарисидаги рақобатчи ҳамда ҳамкасбларнинг мавқеи ва ишлаб чиқариш салоҳиятини аниқлаб, ўзи зарур хулосаларни чиқара олиши.
6. Ҳар қандай тошпирилган вазифани охирига етказиш ва бундан маълум бир қониқиш ҳисси ҳосил қилиш учун ўзидаги қобилият ва куч-қувват заҳирасига эга бўлиши шарт. Бунинг учун эса:
 - а) ўз кучи, салоҳияти ва қобилиятларини энг асосий мақсадга қаратиш, иродани айнан шунга сарф қилиш;
 - б) доимо тетик ва соғлом бўлиб, ҳар доим ҳам ишга яроқли эканлигини кўрсата олиш;
 - в) бошқа ходимлар ҳам бажара олиши мумкин бўлган майда-чуйда ишларга қўл урмай, уларнинг назоратигагина эътиборни қарата олиш (делегирование);
 - г) ён - атрофдаги бошқа ташкилот ва корхоналардаги бошқарув услублари ҳақида ҳам маълумотга эга бўлиб, бошқарувда улардан ортда қолиб кетмасликка ҳаракат қилиш, корпорация усулидан унумли фойдаланиш.



Nazorat savollari va mustaqil ishlar mavzulari:

1. Psixologiyada boshqarish muammosi.
 2. Guruhlarda rahbarlik va liderlik.
- Liderlik usullari haqida tushuncha.
- Rahbarlik sifatleri.

Mavzu yuzasidan adabiyotlar ro'yhati:

1. G'oziyev E.G. Toshimov R. Menejment psixologiyasi. T-2001
2. G'oziyev E.G. Muomala psixologiyasi. T-2001.
3. Vospitay svojego lidera, kak naxodit, razvivat i uderjivat v organizasii talantlivyx rukovoditeley. \ Per. s angl.-M.: Izdatelskiy dom "Vilyams", 2002.- 416 s.
4. www.expert.psychology.ru

MAVZU: Ijtimoiy psixologiyada oilaviy munosabatlar psixologiyasi.

Reja:

1. Oilaning ijtimoiy psixik xususiyatlari.
2. Oilada o'zaro munosabatlar.
3. Hozirgi zamon oilasining asosiy vazifalari.
4. O'zbekiston olimlari tomonidan oila munosabatlarning o'rganilishi.

...,bu yorug' dunyoda hayot bor ekan,oila bor.Oila bor ekan, farzand deb atalmish bebaho ne'mat bor. Farzand bor ekan, odamzod hamisha ezgu orzu va intilishlar bilan yashaydi''¹.

Oilaviy munosabatlar hamma vaqt ham gumanitar fanlarni qiziqtirib kelgan, ayniqsa,bu sohaning o`ziga xos ijtimoiy psixologik tomonlari mavjud bo`lib u oilani yaxlit bir ijtimoiy guruh sifatida talqin qilib, unda sodir bo`ladigan barcha ruhiy jarayonlarni o`rganadi.

Respublikada oila va nikoh masalalariga e`tabor yuksakligini hisobga olib, ko`pchilik olimlar o`z ilmiy uzlanishlarini ana shu muammolarga bag`ishlaganlar. Oilada nisbatan ilmiy qiziqishning sabablari, eng avvalo, bu ob`ektning naqdligi bo`lsa, ikkinchidan, keyingi yillarda hatto respublikada ajralishlarning ko`payishi, tug`ilishning shahar va qishloqlarda notekisligi,"Muammoli" oilalarning ko`payishi, oila institutiga yoshlar munosabatlari o`zgarayotganligi.

Xalqimizda oila muqaddas dargoh sanaladi. Bu hatto davlat darajasiga ko`tarilib, 1998 – yil respublikamizda "Oila yili", deb e`lon qilinishi ham bu yo`nalishlarda ishlar samaradorligini oshirish, oilada psixologik yordam ko`rsatish, bu borada mavjud muammolarning aniq echimlarini topish ishini jadallashtiradi. Bizning jamiyatimizda oilaga qaratilgan bunday e`tibor uning ma`naviy negizlarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Oila munosabatlari yil sayin o`zgarib bormoqda:

Oilaviy jamiyat oldidagi vazifalari o`zgarib borishi.

Oilada tug`ilishning kamayishi, ko`p avlodli tarkibdan kam avlodli oilalarga aylanayotganligi.

Oilaviy munosabatlar tizimida er va xotin funksiyalari va oilaviy roller haqidagi ijtimoiy tasavvurlarning o`zgarib borayotganligi.

Iqtisodiy inqirozlarning oila a`zolari o`rtasidagi munosabatlarga ta`siri.

Ayollarda reproduktiv ustanovkalarining o`zgarishi.

Prezidentimiz ta`kidlaganlaridek **“ Buning uchun har qaysi ona – ona, ustoz va murabiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko`rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo`lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish – ta`lim – tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo`lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak. Bu esa ta`lim va tarbiya ishini uyg`un holda olib borishni talab etadi ”.**²

Oilada shaxslararo munosabatlar.

Oilada shaxslararo munosabatlar: Er xotin munosabatlari, ota onalar va farzandlar, qaynona kelin munosabatlarinio`z ichiga oladi. Oilaviy munosabatlarning muloqot madaniyati o`z – o`zini bilish va boshqa odamlarni tushuna olish qobiliyati, kishilarning xulqi va xolatlariga nisbatan adekvat munosabat bildirga olish, har bir odamga nisbatan muloqot shahli usuli va stillarini tanlay bilishdan iboratdir. Oilada shaxslararo munosabatlar odatda nizosiz bo`lmaydi, er xotin, ota ona va farzandlar o`rtasidagi munosabatlar o`zigaq hos harakterga ega. Ota ona va farzandlar o`rtasidagi nizolarga quyidagilar sabab bo`ladi: Dunyo qarashlar orasidagi mavjud farqning hisobga olinmasligi ba`zi bolalarni mehnatga o`rgatilmaganligi va buning oqibatida, yengil – yelpi hayot kechirishga o`rganib qolishi, ota – onalarning psixologik – pedagogik bilim saviyalari yetarli darajada emasligi, ota – onalar

¹ I. A. Karimov Yuksak ma`naviyat yengilmas kuch- T. O`zbekiston- 2008 yil – 56 bet.

² I. A. Karimov “ Yuksak ma`naviyat engilmas kuch” asari – Toshkent “ O`bekiston” -2008 yil, 61- bet.


bolalarda 3,6,13,14 yoshlarda muqarrar ravishda bo`lib o`tdigan krizislarni bilmaydilar, ba`z iota – onalarning ichkilikka ro`jo` qo`yishi, giyohvandlikka berilishi, ayrim yoshlarning farzandlik burchini unitib qo`yishi.

Hozirgi zamon oilalarining asosiy funksiyalari.

Har bir oila ijtimoiy tizim strukturasi sifatida jamiyat oldida ma`lum bir funksiyalarni bajaradi. Oilaning ijtimoiy funksiyalari deganda: Jamiyatning oilaga ta`siri, umumiy ijtimoiy tizimda, oilaning o`rni, oilaning hal qiladigan ijtimoiy – jamoatchilik funksiyalarini tushunish lozim. Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida hozirgi zamon oilasining asosiy funksiyalari qo`yidagilar:

JADVAL


HOZIRGI ZAMON OILASINING ASOSIY FUNKSIYALARI



Oilaning iqtisodiy funksiyasi – oila o'zining iqtisodiy funksiyasi orqali jamiyatga davlatga katta iqtisodiy foyda keltiradi.

JADVAL

OILANING IQTISODIY FUNKSIYASI



Oilaning reproduktiv funksiya oilaning jamiyat oldidagi reproduktiv funksiyasi va uning bajarilishi deyilganda – oila sonining qayta tiklanishi uchun har bir oilada nechtdan farzand bo`lishi lozimligi nazarda tutiladi. Oilaning tarbiyaviy funksiyasi – shaxs ma`naviyati uning dunyoqarashi, insonning tasavvur va e`tiqotidagi aloqador ko`nikmalar majmui asosanoilada shakllanadi, oila – haqiqiy ma`naviyat o`chog`i, tarbiya omili va muhitidir. Oilaning kommunikativ funksiyasi – oila a`zolarining o`zaro muloqot va o`zaro tushunishga bo`lgan ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi. nekriativ funksiyasi – o`zaro jismoniy, moddiy, ma`naviy va psixologik yordam ko`rsatish, bir – birining salomatligini mustahkamlash, oila a`zolari dam olishini tahlil etishdir. Oilaning felitsitologik funksiyasi – oilaviy munosabatlar tizimida shaxsiy baxtga erishishga intilish holatidir. Oilaning reguliyativ funksiyasi – oila a`zolari o`rtasidagi o`zaro munosabatlarni boshqarish, birlamchi ijtimoiy nazorat o`rnatish, oilada ustunlik va obro`ni amalgam oshirish jarayonidir. Oilaning relaksatsiya funksiyasi – oilaning relaksatsiya funksiyasi – oila a`zolarining jinsiy, emotsional faoliyatini, ruhiy – jismoniy quvvatini, mehnat qobiliyatini qayta tiklash demakdir.

O`zbekiston olimlari tomonidan oila munosabatlarining o`rganilishi.

O`zbekistonda o`tkazilayotgan ijtimoiy psixologik tadqiqotlar asosan oila va oilaviy munosabatlarga bag`lirlangan. Bu borada bir qator psixologlardan V.Karimova, G.Shoumarov boshchiligidagi ilmiy ishlarni keltirish mumkin. Maslan: G.B. Shoumarov boshchiligidagi olimlar tomonidan oilaning ijtimoiy – psixologik vazifalari, oiladagi shaxslararo munosabatlar, oila negizida yuzaga keladigan ruhiy munosabatlar, oila qurish mativlari, oilaning bolalar tarbiyasiga bevosita ta`sir ko`rsatadigan ijtimoiy – psixologik omillari kabi bir qator jihatlari o`rganiladi.

V. Karimova va uning boshchiligidagi ilmiy ishlarida yoshlardagi oila hususidagi tasavvurlar, ularning oila motivlari, oila qurish omillariga munosabatlari, oila turiga ko`ra noto`liq oila muhitidagi shaxs individual – psixologik xususiyatlari, o`z-o`zini baholashi, oila muhitida shaxsda namoyon bo`ladigan feminine va mashulini sifatlar nuqtai nazaridan yondashishlari taxlil etib berilgandir.

Oilaviy munosabatlar psixologiyasi xususida o`tkazilgan muhim tadqiqotlardan biri N. Sog`inovning o`zbek oilasiga xos bo`lgan nikox va oila munosabatlari – nikoxdan qoniqish, nikox motivlari, oila qurishning o`zbeklarga xos bo`lgan yosh xususiyatlari, yosh o`zbek oilalardagi psixologik mojarolar va ajralishlarning sabablarini sistematik tarzda o`rgangan ilmiy ishidir.

Sharq mutafakkirlarining oilaviy munosabatlar haqidagi qarashlari.

Abu Ali ibn Sino: oilaviy munosabatlarning turli tomonlarini yoritarkan, Ibn Sino, avvalam bor oila boshlig`i oldiga qator talablarni qo`yadi. Oila boshlig`i deb yozadi u, ham nazariy, han amaliy jihatdan oilada tarbiya masalalarini mukammal o`zlashtirmog`i lozim. Agar oila boshlig`i tajribasiz bo`lsa, u o`z a`zolarini yaxshi tarbiyalay olmaydi, oxir iqibat u ijobiy natijalarga erisha olmaydi, yomon tarbiya nafaqat ushbu oila, balki qo`shmilarga, mahalla-ko`yga ham yomon ta`sir qilishi mumkin. Oiladagi bola tarbiyasi ota-onaning jamiyatda tutgan mavqeyidan qat`iy nazar, ularning birlamchi vazifasidir, deb hisoblaydi Ibn Sino.

Yusuf Xos Hojib: Shoirning fikricha, farzand ko'rish va unga tarbiya berish har bir Inson uchun buyuk baxtdir, ularsiz hayotning ma'nosi yo'q. Lekin bu narsa ota-onaga Juda katta ma'suliyatyuklaydiki, uning uddasidan chiqmoq, har bir ota-ona uchun ham Farz, ham qarzdir. Shuning uchun ham Yusuf Xos Hojib oilaviy tarbiyani bola axloqiy Taraqqiyotining asosi, debhisoblagan: "Agar bolaning xulqi yomon bo'lsa

Tavsiya etiladigan adabiyotlar.

- 1.Karimov I.A. «Uzbekiston XXI asr busagasida: xavfsizlikka taxdid, barkarorlik shartlari va tarakkiyot kafolatlari» Toshkent. 1997 y.
- 2.Karimov I.A. «Barkamol avlod-Uzbekiston tarakkiyotining poydevori» Toshkent. 1997 y.
- 3.Karimova V.M. «Ijtimoiy psixologiya asoslari» Toshkent. Uk. 1994 y.
- 4.Karimova V.M. «Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot» Toshkent. Universitet. 1999 y.
- 5.Agoronyan A.S. «Kultura povsednevnoy jizni. Sotsialno-prakticheskiye aspekti» Toshkent. Uzbekistoon. 1982 y.
- 6.Anikeyeva «Jamoadagi ruxiy muxit» Toshkent. Uk. 1992 y.
- 7.Gozman «Psixologiya emotsionalnix otnosheniy» M: Izd MGU –1987.
- 8.Dobrovich A.B. «Vospitatelyu o psixologii i psixogigiyene obsheniya» Kn. dlya uchiteley i rukovoditeley M.Prosv-1978.
- 9.Jutikova N.B «Psixologicheskiye uroki obidennoy jizni» Besedi psixologa. M. Prosv-1990.
- 10.Kovalyov S.V «Psixologiya sovremennoy semi» Kn. dlya uchitelya M. Prosv-1988.
- 11.Kon I.S. «Psixologiya ranney yunosti» Kn. dlya uchitelya M. Prosv-1989.
- 12.Kronin A.A. Kronina ye.A. «V glavnix rolyax: vi, mi, on, ti, ya» Psixologiya znachimix otnosheniy. M. Misl 1989.
- 13.Nochevnik. «Kultura i etika obsheniya» T.1983.
- 14.Petrovskaya A.A. «Kompetentnost v obshenii. Sotsialno-psixologicheskiy trening» M. Izd. MGU 1989.
- 15.Turayeva O. «Oilaviy munossabatlar psixologiyasi» Toshkent. 1990 y.
- 16.Elkonin D.B. «Psixologiya igri» M. 1978.
- 17.E. Goziyev va b. «Psixologiya muammolari» Toshkent. 1999 y.
- 18.E.Goziyev «Zamonaviy raxbar kiyofasi» X.T 2000 y 2-son.
- 19.E.Goziyev «Raxbar faoliyatidagi nuksonlarni bartaraf etish» X.T. 2000 y 3-son.
- 20.Abduraxmonov F. Davletshin M.G. «Odamlar bilan kanday mulokotga kirishish va yondashish kerak» Toshkent.1996 y.
- 21.Turgunov «Psixologiyadan izoxli lugat» Toshkent. 1998 y.
- 22.Samarov R. «Oilani etnopsixologik urganishga yana bir uslubiy yondoshish» X.T. 1998 y 1-son.
- 23.Soginov N.A. Xabibullayev F.R. «Ukuvchilar urtasida shaxslararo munosabatlarni urganish» Toshkent. 1998 y.
24. E.Goziyev «Universitetlarda psixologiya ukitishni takomillashtirish» Toshkent. 1992 y.

